



Onaxon Jabborova, Xurinis Qarshiboyeva

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

ISBN 978-9910-9590-1-1



9 789910 959011



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Onaxon Jabborova, Xurinisa Qarshiboyeva

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

*(60110500 – boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari va amaliy
faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun darslik)*

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2024

UO'K
KBK

Jabborova O.M., Qarshiboyeva X.K. Pedagogik diagnostika.
Darslik. – T.: “ZEBO PRINT”, 2024. 134 b.

MAS'UL MUHARRIR:

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich - *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAQRIZCHILAR:

Xudoyqulov Xol Jumayevich - *pedagogika fanlari doktori, professor.*

Umarova Zuhra Abduraxmanovna - *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Mazkur darslik yangi o'quv fani “Pedagogik diagnostika” ishchi-o'quv dasturiga asosan yozilgan. Darslik ta'limning kredit-modul talablari asosida yozilgan bo'lib, unda pedagogik diagnostika asoslari, metodologiyasi va texnologiyalari yoritib berilgan. Asosiy e'tibor bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik diagnostika asoslari bo'yicha kompetensiyasini tarkib toptirishga qaratilgan.

Darslik oliy pedagogika ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda mazkur muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berilgan. № 537325.

ISBN

MUNDARIJA

Kirish	4
1-modul. Pedagogik diagnostika nazariyasi	5
1-mavzu: Pedagogik diagnostika tushunchasi mazmuni	5
2-mavzu: Pedagogik diagnostikaning nazariy masalalari	12
3-mavzu: Pedagogik diagnostikaning manbalari	19
2-modul. Pedagogik diagnostikaning didaktikasi	25
4-mavzu: Pedagogik diagnostikaga oid tadqiqotlar	25
5-mavzu: Pedagogik diagnostika didaktikasi	32
6-mavzu: Pedagogik diagnostikaning metodlari	38
7-mavzu: Pedagogik diagnostikaning ilmiy mezonlari	43
8-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasini tashkil etishning me'yoriy asoslari	50
3-modul. Pedagogik diagnostika metodologiyasi	60
9-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi texnologiyalari ...	60
10-mavzu: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi diagnostikasi	81
11-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi bo'yicha xorijiy tajribalar	89
12-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida klaster tizimi	96
13-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti	103
14-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining samaradorligini baholash	110
15-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining istiqbolli yo'nalishlari	122
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	128
Lug'at	131

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida jahon andozalari darajasida sifatli ta'limga erishish vazifalari qo'yilgan. Mazkur jarayonda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari sifatiga asosan boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirish taqozo etiladi. Bunda pedagogik diagnostika qonuniyatlariga amal qilish muhimdir.

“Diagnostika” atamasi lotincha bo'lib, tashxislash, yo'naltirish, o'rganish va tajriba qilib ko'rish ma'nolarini anglatadi. Pedagogik diagnostika jarayonida asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi va tarbiyalanganligi darajalarini aniqlashga qaratiladi. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning bilim va tarbiyaviy ko'nikmalari o'rganilib, baholanadi va baholash natijasida mazkur jarayonni yanada rivojlantirish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik diagnostikaning tutgan o'rne muhimdir. Chunki 7-11 yoshli o'quvchilarni bilimlar olamiga olib kirish, ularning o'qish savodxonligini tarkib toptirish, hisob ko'nikmasini shakllantirish va ta'limning keyingi bosqichi hamda turlariga tayyorlash ishlari aynan diagnostika natijalari asosida amalga oshiriladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik diagnostika bo'yicha nazariy bilim, metodik ko'nikma va amaliy malakalarini tarkib toptirish muhimdir. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari, didaktikasi va metodologiyasi bilan qurollanadi.

Mamlakatimizda amalda bo'lgan ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bevosita pedagogik diagnostikaning asoslarini tashkil qiladi. Shuningdek, pedagogik merosimizda va pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida pedagogik diagnostikaning mezonlari, tamoyillari va metodlari ishlab chiqilgan. Xorijiy pedagog olimlarning tadqiqotlarida ham pedagogik diagnostika masalalari tahlil qilingan. Bularning barchasi mazkur darslikda o'z ifodasini topdi.

Darslikdan foydalanish uchun imkon qadar unda taqdim etilgan o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirish va berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish tavsiya etiladi. Darslik so'ngida pedagogik diagnostika bo'yicha eng muhim so'zlar lug'ati ilova qilindi.

Darslik yuzasidan fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

1-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA NAZARIYASI

1-mavzu: Pedagogik diagnostika tushunchasi mazmuni

Reja:

1. Pedagogik diagnostika tushunchasi.
2. Pedagogik diagnostikaga doir yondashuvlar.
3. Pedagogik diagnostikani o'rganishning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: *pedagogika, diagnostika, tushuncha, yondashuv, o'rganish, bilim, metodika, malaka.*

Pedagogik diagnostika tushunchasi. “Diagnostika” atamasi lotincha bo'lib, tashxislash ma'nosini anglatadi. Pedagogik diagnostika Pedagogika fanining maxsus bo'limi bo'lib, unda ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va natijalarining sifati hamda samaradorligi o'rganiladi. Bundan tashqari, pedagogik diagnostika vositasida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarliklari, bilim, ko'nikma va malakalari tashxislanadi.

Pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini o'rganib borishdir. Shu ma'noda pedagogik diagnostika tushunchasida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- a) ta'lim va tarbiya jarayonini tashxislash;
- b) ta'lim va tarbiya samaradorligini tahlil qilish;
- v) ta'lim va tarbiya natijalarini baholash.

Ta'lim va tarbiya jarayonini tashxislashda majmuiy yondashuv ustuvor hisoblanadi. Unga ko'ra, ta'lim muassasasining sharoitlari va muhiti, jihozlanishi, ta'lim beruvchilar uchun mavjud imkoniyatlar va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalari o'rganiladi. Mazkur o'rganish jarayonida asosiy e'tibor o'quv fanlari bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholashga qaratiladi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonini tashxislash ishi bilan maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar shug'ullanadi.

Mamlakatimizda mazkur vazifa O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ta'lim sifati inspeksiyasiga yuklatilgan. Bu inspeksiya har o'quv yilining yakunida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professionl va oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini tashxislash ishini amalga oshiradi. Natijada kelgusi o'quv yilida amalga oshirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar belgilanadi.

Pedagogik diagnostikada ta'lim va tarbiya samaradorligini tahlil qilish ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, o'quv fanlarining reja va dasturlari, o'quv materiallari hamda o'qitish metodologiyasi o'rganilib, maxsus yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Tahlil natijasida o'quv fanlarining tarkibi, ularning materiallari va ta'lim berish metodlari korreksiya qilinadi. Tahlilni amalga oshirishda amaliy faoliyatdagi pedagoglarning ishtirok etishiga e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan bunday tahlil bevosita amaliy natijalar asosida amalga oshiriladi. Pedagogik diagnostika tahlilida muayyan yondashuvlar nazarda tutiladi. Misol uchun, o'quv fanlari tarkibini tahlil qilishda ularning ta'lim oluvchilar va jamiyat uchun zaruriyati hisobga olinadi. Shu sababli keyingi paytlarda mamlakatimizda pedagogik diagnostika masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik diagnostikaning tashxislash va tahlil qilish vositalari asosida ta'lim va tarbiya natijalari baholanadi. Baholash jarayonida ta'limga oid me'yori-huquqiy hujjatlar, pedagogik tadqiqotlarning natijalari va jamiyatning ehtiyojlari asosida mezonlar belgilanadi. Pedagogik diagnostikaning baholash funksiyasi asosan ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga qaratiladi. Buning uchun turli testlar, yozma ishlar, maxsus savolnomalar va analitik o'rganishlarga asoslaniladi. Shu sababli pedagogik diagnostikaning baholash funksiyasi ta'lim va tarbiya uchun zaruriyat hisoblanadi. Bularning barchasi pedagogik diagnostika tushunchasi mazmunini ifodalaydi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik diagnostika bo'yicha nazariy bilimarni egallash amaliyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. Chunki pedagogik

diagnostika amaliy faoliyat asosidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur masalada haftalik pedagogik amaliyot imkoniyatlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ldi.

Pedagogik diagnostika tushunchasida turli yondashuvlar va pedagog olimlarning metodik tavsiyalari muhim o'rin tutadi. Ularning barchasi o'quv fanlari mazmunidan kelib chiqib pedagogik diagnostikani amalga oshirishga asoslanadi. Shu sababli pedagogik diagnostika tushunchasini keng ma'noda tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik turkumdagi fanlar vositasida pedagogik diagnostika asoslarini o'rganish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Shu sababli talabalar mustaqil ta'lim vositasida pedagogik diagnostikaning asoslarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Pedagogik diagnostikaga doir yondashuvlar.

Pedagogik diagnostikaga doir yondashuvlar majmui mavjud. Bunda diagnostika oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, o'ziga xos yondashuvlar bayon qilingan. Bunday yondashuvlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- a) ilmiy yondashuv;
- b) metodik yondashuv;
- v) innovatsion yondashuv.

Pedagogik diagnostikada ilmiy yondashuv ta'lim sifati ko'rsatkichlarini chuqurlashtirish va ta'lim beruvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishni nazarda tutuvchi g'oyalar, fikrlar hamda tavsiyalar majmuidan iborat. Ilmiy yondashuvda mazkur masalalarning eng muhim asoslari o'rganilib, tahlil qilinadi. Misol uchun, bugungi kunda butun dunyoda angliyalik pedagog olim Enrik Erksonning pedagogik diagnostikaga ilmiy yondashuvi qabul qilingan. Unga ko'ra, pedagogik diagnostika natijalari bosqichma-bosqich tahlil qilib boriladi.¹ Bunda quyidagicha yondashuv asosida ilmiy diagnostika o'tkaziladi:

- umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining o'zlashtirish

¹ Эриксон Э. Детство и общество. – Санкт Петербург, 2003

ko'rsatkichlari;

- professional ta'lim o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari;

- oliy ta'lim talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari;

- ta'lim beruvchilarning kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari.

Bunday bosqichli pedagogik diagnostikani amalga oshirish ta'lim va tarbiya jarayonining mazmunini kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limning pedagogik diagnostikasi mazkur bosqichli yondashuvning birinchi guruhida amalga oshiriladi va unda boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari hamda xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Shu sababli mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning pedagogik diagnostikasi metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalalarni o'rganish pedagogik diagnostikaning ilmiy yondashuvi to'g'risida ko'nikma beradi.

Pedagogik diagnostikaning metodik yondashuvida ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish vositalari hamda ta'lim beruvchilarning amaliyotda qo'llaydigan texnologiyalarini o'rganishga asoslanadi. Bugungi kunda butun dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida rus pedagog psixologi S. Rubenshteynning pedagogik diagnostika metodikasiga psixologik yondashuvi keng qabul qilingan.² Unga ko'ra, pedagogik diagnostika metodikasida ta'lim muhiti, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning ruhiy (psixologik) holatiga ko'ra o'rganilib baholanadi. Bunda asosiy masala ta'lim muhitida yaratilgan ruhiy holatlar, xususiyatlar va omillarni o'rganishdir. Agar ta'lim muhiti ruhiy omillarga boy bo'lsa, ta'limni o'zlashtirish va ta'lim berish jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur masalalarni diagnostika qilishda ruhiy yondashuvning ustuvorligiga alohida e'tibor beriladi. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim bosqichida ta'lim muhitining keng ruhiy omillarga boy bo'lishi taqozo etiladi. Bunda bir xillik, shablonlik yoki ruhiy muvozanatning doimiy ravishda nazoratda bo'lishi o'rganiladi hamda baholanadi. Buning

² Рубенштейн С. Избранное произведения. – Москва, 1989

natijasida boshlang'ich ta'lim bosqichida ta'lim olish va ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlarga ega imkoniyatlari kelib chiqadi.

Keyingi paytlarda texnologik rivojlanish sharoitida pedagogik diagnostikaga innovatsion yondashuvni tarkib toptirish ham taqozo etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagicha: ta'lim va tarbiyaning ilmiy hamda metodik yondashuvlari xulosalari asosida pedagogik diagnostikaga yangiliklarni tadbqiq etib borish muhim ahamiyatga ega. Chunki ilmiy va metodik yondashuvlar muntazam takomillashib boradi. Buning natijasida ta'lim va tarbiya jarayonida o'ziga xos muhitlar yuzaga keladi. Shu sababli pedagogik diagnostikaning innovatsion yondashuvi ta'lim sifati, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va mahorat darajalarini muntazam nazorat qilib borishga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ta'lim muhiti nazoratida uning shart-sharoitlari, o'zlashtirish ko'rsatkichlarida ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikma darajalari hamda mahorat darajasini o'rganishda esa ta'lim beruvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holati o'rganiladi. Natijada pedagogik diagnostikaning nazorat vazifasi vositasida ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Diqqat qilinsa, pedagogik diagnostikaga doir yondashuvlar mazkur masala vositasida ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalarni yaratish xususiyatiga asoslanadi. Shu sababli mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik diagnostikani o'rganishning ahamiyati. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasida pedagogik diagnostika bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik diagnostikani o'rganishning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

a) pedagogik diagnostikaning asoslarini bilish;

b) pedagogik diagnostika bo'yicha kompetensiyani egallash;

v) pedagogik diagnostikani amalga oshirish ko'nikmasi bilan qurollanish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik diagnostikani o'rganishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun majburiy (mutaxassislik) va tanlov fanlari vositasida pedagogik diagnostikaning asoslari bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish taqozo etiladi. Shu ma'noda pedagogik diagnostika mazmuni, uning nazariy tushunchalari va metodlarini chuqur o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasida muhim yo'nalishni tashkil qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim muassasalarining yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda ularni pedagogik diagnostika asoslari bilan boyitish dolzarb bo'lib turibdi. Shuningdek, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika asoslari bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikma beruvchi "pedagogik diagnostika" maxsus kursini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim muassasalarining imkoniyatlari keng ekanligini eslatib o'tish joiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik diagnostika bo'yicha kompetensiyalarni egallashi ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda pedagogik diagnostikani o'tkazishning vositalari, metodlari va texnologiyalarini o'zlashtirish kutilgan samarani beradi. Chunki pedagogik diagnostikaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib qo'llaniladigan vositalar ba'zida o'zgaradi. Misol uchun, bugungi kunda pedagogik diagnostikaning test vositasi keng amalda bo'lib kelmoqda. Ayni paytda, test texnologiyasining turli variantlari yaratilayotganligi pedagogik diagnostikada bu vositaning nisbatan yangilangan turlaridan foydalanish taqozo etiladi. Shu ma'noda pedagogik diagnostikaning metodlari va texnologiyalari ham takomillashib bormoqda. Mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagicha: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlariga biriktirilgan ustoz

yordamida mustaqil ta'lim vositasida pedagogik diagnostika bo'yicha kompetensiyalarni o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda eng asosiy adabiyotlar bilan tanishish, ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganish va baholash mezonlarini o'zlashtirish muhim o'rin tutadi. Shu sababli mustaqil ta'lim texnologiyasining imkoniyatlaridan foydalanilgan holda pedagogik diagnostika kompetensiyalarini o'zlashtirish kutilgan samarani beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik diagnostikani amalga oshirish ko'nikmasini egallashi zarurdir. Chunki kelgusida har bir o'quvchiga individual yondashuv asosida bilim va tarbiya berish jarayoni texnologiyalashib boradi. Bu jarayonda pedagogik diagnostikani qo'llash taqozo etiladi. Aks holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirganlik va tarbiyalanganlik darajasini baholash murakkab kechadi. Shu sababli kelgusida har bir o'quvchiga individual yondashuv texnologiyasi asosida ta'lim va tarbiya berish sharoiti boshlang'ich ta'lim jarayonida muntazam pedagogik diagnostikani o'tkazib borishni taqozo etadi. Bunga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyor bo'lishi kerak. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik diagnostikani amalga oshirish metodlari va texnologiyalarini o'zlashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muntazam o'zi ustida ishlab borishi keng imkoniyatlarni beradi.

E'tibor berilsa, pedagogik diagnostikani o'rganishning ahamiyati muhimdir. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida uning asoslarini o'zlashtirish, kompetensiyani egallash va ko'nikmalar bilan qurollanishga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini yo'naltirish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib, pedagogik diagnostika tushunchasining mazmuni uning ma'no-mohiyati, unga doir yondashuvlar va pedagogik diagnostikani o'rganishning ahamiyatini idrok etish bilan belgilanadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik diagnostika tushunchasi qanday mazmunga ega?
2. Pedagogik diagnostikaga doir yondashuvlarning asosiylari nimalardan iborat?
3. Pedagogik diagnostikani o'rganishning ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?
4. Pedagogik diagnostikaga doir yondashuvlarni o'zlashtiring va konspekt qiling.

2-mavzu: Pedagogik diagnostikaning nazariy masalalari

Reja:

1. Pedagogik diagnostika asoslari.
2. Pedagogik diagnostikaning metodlari.
3. Pedagogik diagnostikaning texnologiyalari.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, pedagogika, diagnostika, nazariya, asos, metod, texnologiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Pedagogik diagnostika asoslari. Boshlang'ich ta'lim jarayonida sifatli ko'rsatkichlarga erishish uchun uning holatini pedagogik diagnostika qilib borish muhim tayanchlardan biridir. Shu sababli pedagogik diagnostika asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Pedagogik diagnostika asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

- a) ta'lim va tarbiya jarayoni mazmunini o'rganish;
- b) ta'limni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'rganish;
- v) ta'limni amalga oshirishning vositalarini o'rganish;
- g) ta'lim beruvchilarning mahorat ko'rsatkichlarini o'rganish;
- d) ta'lim samaradorligini o'rganish.

Pedagogik diagnostika asoslarida ta'lim va tarbiya jarayoni

mazmunini o'rganish muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, ta'limni tashkil qilish asoslari va tarbiyani amalga oshirish omillari qonuniy asosda belgilanishi hamda ana shu masalalarning o'rganilishi taqozo etiladi. Pedagogik diagnostika jarayonida ta'lim va tarbiya jarayoni mazmunini qiyosiy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunda mamlakat ta'lim va tarbiya jarayoni mintaqaviy mamlakatlar hamda dunyo mamlakatlari ta'lim va tarbiya jarayoni bilan qiyoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichi tajriba jihatidan Markaziy Osiyo davlatlari boshlang'ich ta'lim bosqichidan ustuvor turadi. Shu sababli bunday omillar asosida pedagogik diagnostikani amalga oshirish ta'lim va tarbiya jarayonida sifatli ko'rsatkichlarga erishish imkoniyatlarini beradi.

Pedagogik diagnostikada ta'limning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ham o'rganish muhimdir. Bunda ta'lim oluvchilarning kasbiy bilim darajasi, tarbiya qonuniyatlarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari va faoliyat asoslarini bilish darajasi tashxis qilinadi. Ta'lim ko'rsatkichlarida mazkur uch masala YUNESKONing ta'lim to'g'risidagi hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Ta'limni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini to'g'ri tashxislash pedagogik diagnostikaning eng muhim asosidir. Bu borada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim asoslarini o'zlashtirishni tashxislash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Bugungi kunda mamlakatimizning ta'lim muassasalarida an'anaviy, onlayn va mustaqil ta'lim shakllari vositasida ta'lim jarayoni amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda an'anaviy ta'lim shaklini pedagogik diagnostika qilish tajribasi mamlakatimizda mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz. Ayni paytda, onlayn va mustaqil ta'lim shakllaridagi ta'limni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tashxislash mezonlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur ta'lim shakllari asosiy e'tiborni bilim berishga qaratadi. Shu jihatdan ushbu ta'lim shakllarining tarbiya va ta'lim oluvchilarni faoliyatga yo'naltirish masalalarini tashxislash bo'yicha mezonlar shakllantirilishi muhim ahamiyatga egadir. Bizningcha, mazkur masalada

ta'lim oluvchilarning bilim darajasida, asosan, ko'rsatkichlarni tashxislash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda, tarbiya va faoliyatga tayyorgarlik masalalari bo'yicha tashxislash jarayonini ta'lim oluvchilarning faollik, axloq qoidalariga rioya qilishi va faoliyatga tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha tashxislash kutilgan samarani beradi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida onlayn va mustaqil ta'lim shakllari ko'rsatkichlarini tashxislash bo'yicha ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar ko'lamini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib turibdi.

Pedagogik diagnostikada ta'lim beruvchilarning mahorat darajasini tashxislab borish ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, ta'lim beruvchilarning ma'lumotlik darajasi, kasbiy bilim ko'rsatkichlari va ijtimoiy faollik samaradorligi o'rganiladi. Mamlakatimizda oliy ma'lumotli pedagoglar bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli mazkur masalada tashxislash jarayonida individual yondashish taqozo etiladi. Shuningdek, ta'lim beruvchilarning kasbiy bilim faoliyat ko'rsatkichlari talab darajasida ekanligini eslatib o'tish joiz. Ayni paytda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar kategoriyalarga ega. Shu sababli mazkur toifa o'qituvchilarning kasbiy bilim va faoliyati tashxislanganda ularning kategoriyalari talablaridan kelib chiqiladi. Mazkur masala bo'yicha ham ilmiy va amaliy ishlanmalar yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Pedagogik diagnostika jarayonida ta'lim samaradorligi ham o'rganiladi. Ta'lim samaradorligini diagnostika qilishda ta'lim muassasasining sharoitlari, ta'lim muhiti, ta'lim oluvchilarning faollik darajasi va ta'lim beruvchilarning kasbiy tajribalari o'rganiladi. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha o'rganishlar natijasida muayyan ta'lim muassasasining samaradorlik darajasi baholanadi. Misol uchun, bugungi kunda mamlakatimizda oliy pedagogik ta'lim samaradorligi bo'yicha tajriba mavjud. Unda oliy ma'lumotli pedagog kadrlarni tayyorlash xalqaro ta'lim dasturlariga mos ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Shu jihatdan maktabgacha, maktab, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorlik nuqtai nazaridan alohida

tashxislanadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda qo'shimcha ta'lim shaklida bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritmoqda. Mazkur ta'lim muassasalarining samaradorlik darajasi ham ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda tashxislanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning ta'lim turlari xilma-xildir. Shu sababli ta'lim samaradorligi bo'yicha pedagogik diagnostikada ularning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, pedagogik diagnostika asoslari muhim xususiyatlarga egadir. Mazkur ta'kidlangan xususiyatlarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik diagnostikaning metodlari. Pedagogik diagnostika metodlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda bu borada keng ommalashgan metodlar mavjud. Bunday metodlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) hujjatlarni o'rganish metodi;
- b) test metodi;
- v) tahlil metodi.

Pedagogik diagnostikada ta'lim muassasasining hujjatlarini o'rganish metodi keng ommalashgan. Unda ta'lim muassasasining Nizomi, buyruqlari, pedagogik kengash qarorlari va o'qituvchilarning malakaviy hujjatlari o'rganiladi. Buning natijasida ta'lim muassasasining faoliyatiga baho beriladi. Hujjatlarni o'rganish metodidan asosan ta'limni boshqaruvchi tashkilotlar vakillari keng foydalanishadi. Chunki bunday metod 1924-yilda O'zbekiston Respublikasi Maorif vaziri, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat tomonidan ishlab chiqilgan edi. Natijada mazkur metod hozirgi kunga qadar pedagogik diagnostika jarayonida keng qo'llanib kelinmoqda. Dunyo mamlakatlaridan Rossiya Federatsiyasida ham hujjatlarni o'rganish metodidan keng foydalanilishini eslatib o'tish joiz.

Yevropa mamlakatlari ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostikaning test metodidan foydalanish keng ommalashgan. Unga ko'ra, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab maxsus ishlab

chiqilgan savolnoma asosida pedagogik diagnostika o'tkaziladi. Bu metodda asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratiladi. Shu sababli o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab mamlakatimiz ta'lim tizimida ham pedagogik diagnostikaning test metodidan foydalanish tarkib topdi. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini muntazam o'rganib borish ishlari amalga oshirilmoqda. Misol uchun, bugungi kunda "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur"ga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim ko'rsatkichlari 2022-2023 o'quv yilidan boshlab diagnostika qilib borilmoqda. Mazkur diagnostikaning natijalariga ko'ra keyingi paytlarda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim bosqichi mazmunan yangilangan va o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari rivojlana boshlagan. Shu jihatdan o'rta maxsus va oliy ta'lim jarayonida ham pedagogik diagnostikaning test metodidan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim metodlaridan biri bu tahlildir. Tahlil metodiga ko'ra, ta'lim muassasasi hujjatlari va maxsus test asosida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma hamda malaka darajalari o'rganiladi. Olingan ma'lumotlar batafsil tahlil qilinadi va ta'lim muassasasining faoliyatiga umumiy baho beriladi. Tahlil metodi o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab dunyo mamlakatlari ta'lim muassasalarida qo'llanib kelinmoqda. Tahlil metodidan asosan pedagogik ta'lim ilmiy muassasalari va mutaxassislari foydalanadi. Amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar pedagogik diagnostika jarayonida mazkur metoddan kam foydalanishini eslatib o'tish joiz. Pedagogik diagnostikaning tahlil metodini o'rganish uchun pedagogik diagnostikaga oid ilmiy adabiyotlarni o'qish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, pedagogik diagnostika metodlari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur metodlarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida uyg'un o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun pedagogik diagnostikaga oid o'quv adabiyotlari bilan tanishish, kerakli

ma'lumotlarni izlab topish va professor-o'qituvchilarning tavsiyalariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ayniqsa, "Pedagogik diagnostika" o'quv fanining muhim o'rin tutishini eslatib o'tish joiz.

Pedagogik diagnostikaning texnologiyalari. Hozirgi zamon yevropa mamlakatlarida pedagogik diagnostikaning bir necha texnologiyalari qo'llanilmoqda. Bunday texnologiyalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) kompyuterli texnologiya;
- b) individual yondashuv texnologiyasi;
- v) tajriba almashish texnologiyasi.

Pedagogik diagnostikaning kompyuterli texnologiyasi maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida amalga oshiriladi. Unga ko'ra, kompyuterli dasturda ta'lim muassasasini majmuy shaklda diagnostika qilish ma'lumotlari kiritiladi. Shu ma'lumotlar asosida ta'lim muassasasining imkoniyatlari, sharoitlari, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va ta'lim muassasasining istiqbolli yo'nalishlari diagnostika qilinadi. Kompyuterli diagnostika texnologiyasida inson omilining salbiy ta'sir kuchi kamayadi va asosan tashxis jarayonini kompyuter dasturi amalga oshiradi. Buning natijasida pedagogik diagnostikaning ma'lumotlari to'g'ri va xolis bo'lishiga erishiladi. 2018-2019 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostikaning kompyuterli texnologiyasi qo'llanila boshlaganligini eslatib o'tish joiz.

Pedagogik diagnostikaning individual yondashuv texnologiyasi mutaxassislarining faoliyatiga asoslanadi. Unga ko'ra, ilmiy daraja va tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan savolnoma asosida ta'lim jarayonini individual tarzda tashxislaydi. Bu borada bugungi kunda mamlakatimizda o'quv dasturlarining diagnostikasi keng amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tish joiz. O'quv dasturlari muntazam o'rganib borilmoqda va har bir o'quv yili boshida ular yangi va dolzarb mavzular bilan boyitiladi. Chunki jamiyatimizning texnologik rivojlanishi o'quv dasturlarini muntazam ravishda pedagogik diagnostikaning

individual texnologiyasi asosida baholab borishni taqozo etmoqda. Shu sababli 2022-2023 o'quv yilidan boshlab mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv fanlari maqbullashtirilgan va bugungi kunda 11 o'quv fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim jarayoni amalga oshirilmoqda. Mana shu fanlar o'qituvchilarining individual yondashuv texnologiyasi asosida ta'lim jarayonini tashxislab borishi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida tajriba almashish jarayoni keng yo'lga qo'yilgan. Bu borada ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining tajriba almashish jarayoni ommalashgan. Ayni paytda, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasasini bitirgan o'qituvchilar bir o'quv yili davomida stajyor o'qituvchi sifatida faoliyat yuritishi amalga kiritildi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarining stajyor o'qituvchilari uchun tajribali o'qituvchilarning biriktirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda pedagogik diagnostikaning tajriba almashish texnologiyasidan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib, pedagogik diagnostikaning asoslari, metodlari va texnologiyalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida ularni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik diagnostika asoslari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Pedagogik diagnostikaning metodlari nimalardan iborat?
3. Pedagogik diagnostikaning texnologiyalari qanday xususiyatlarga ega?
4. Pedagogik diagnostikaning asosiy texnologiyalarini o'zlashtiring va konspekt qiling.

3-mavzu: Pedagogik diagnostikaning manbalari

Reja:

1. Pedagogik diagnostikaning tarixiy manbalari.
2. Pedagogik diagnostikaning ilmiy manbalari.
3. Pedagogik diagnostikaning xorijiy manbalari.

Tayanch tushunchalar: pedagogika, diagnostika, manba, tarixiylik, ilmiylik, xorijiy tajriba, bilim, ko'nikma, malaka.

Pedagogik diagnostikaning tarixiy manbalari.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishning asoslari ko'p. Ana shunday asoslardan biri ta'lim va tarbiya jarayoni, uning mazmuni va sifatini o'rganuvchi pedagogik diagnostikadir. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik diagnostikaning manbalari bilan tanishishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu ma'noda pedagogik diagnostikaning tarixiy manbalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- a) mutafakkirlarning pedagogik yondashuvlari;
- b) pedagog olimlarning tadqiqotlari;
- v) pedagogik manbalarda tavsiya etilgan yondashuvlar.

Mutafakkirlarning pedagogik yondashuvlarida pedagogik diagnostikaning ta'lim va tarbiya jarayonini o'rganish bo'yicha manbasi o'z aksini topgan. Jumladan, Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik yondashuvida bola shaxsiga aqliy, jismoniy va estetik munosabatda bo'lish jarayonini o'rganish o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, bolaning aqliy imkoniyatlari hisobga olingan holda u ta'lim va tarbiya vositasida jismoniy chiniqtiriladi va uning qalbida go'zallikka rag'bat uyg'otiladi. Buning uchun ta'lim va tarbiya beruvchi o'ziga xos rejalashtirish, bolani yo'naltirish va bolani faoliyatga tayyorlash asoslarini belgilab oladi. Buning natijasida u pedagogik yondashuvlar asosida bola shaxsini baholaydi. Bolaning aqliy, jismoniy va estetik imkoniyatlarini o'rganish bilan ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligi baholanadi.

Pedagogik diagnostikaning muhim manbalaridan biri pedagog olimlarning tadqiqotlaridir. Bunday tadqiqotlarda pedagogik diagnostikani amalga oshirish bo'yicha quyidagilar tavsiya etilgan:

- a) pedagogik diagnostikada ilmiy yondashish;
- b) pedagogik diagnostikani guruhli yondashuv asosida o'tkazish;
- v) pedagogik diagnostikada eng samarali metodlarga asoslanish.

Mazkur tavsiyalar pedagog olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda pedagogik diagnostikada ilmiylik, guruhli yondashish va samarali metodlarni tanlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Ushbu masalalar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Chunki kelgusida boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning asoslaridan biri sifatida qabul qilinishi ehtimoli mavjud. Shu sababli pedagogik diagnostikaning ilmiy tadqiqotlarda tavsiya etilgan asoslarini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Keyingi paytlarda pedagogik diagnostikani o'tkazishda asosiy e'tibor o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini o'rganishga qaratilmoqda. Bunday yondashuv ham o'ziga xos bo'lib, uning natijasida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va ko'rsatkichini rivojlantirish asoslari ishlab chiqiladi. Mazkur masalada bizning yondashuvimizga ko'ra, o'qituvchilarning o'z kasbiy bilimlari ustida muntazam ishlab borishi pedagogik diagnostikaning samaradorligini ta'minlaydi. Chunki pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi va kasbiy faoliyat ko'rsatkichlarini rivojlantirish asoslarini ishlab chiqishdir.

Pedagogik diagnostikaning ilmiy manbalari.
Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning asoslaridan biri pedagogik diagnostikadir. Shu ma'noda pedagogik diagnostikaning ilmiy manbalarini aniqlash va o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik diagnostikaning asosiy ilmiy manbalari

quyidagilardan iborat:

a) ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash va uning ko'rsatkichlarini rivojlantirish asoslarini ishlab chiqish;

b) ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetensiyasini aniqlash va uning ko'rsatkichlarini rivojlantirish omillarini ishlab chiqish;

v) ta'lim muhitini rivojlantiruvchi yangi asoslarni yaratish.

Pedagogik diagnostikaning mazkur ilmiy manbalari ta'lim muhiti va uning shart-sharoitini bugungi kun ehtiyojlari asosida rivojlantirib borish omillarini beradi. Negaki, ta'lim muhiti jamiyatimizning innovatsion rivojlanish davrida goh o'zgaruvchan, goh an'anaviy, goh innovatsion yondashuvlar asosida takomillashib bormoqda. Bunday o'zgaruvchanlikni o'rganib borish va uning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan pedagogik diagnostikaning ilmiy manbalariga tayangan holda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar faoliyatini muntazam baholab borish zaruriyat hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatda pedagogik diagnostikaning o'z milliy manbalari mavjud. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimida amal qiladigan pedagogik diagnostikada ta'lim oluvchining bilim darajasi o'rganiladi. Qozog'iston Respublikasida amalda bo'lgan pedagogik diagnostikada esa ta'lim oluvchining ko'nikma darajasi o'rganib baholanadi. Shu jihatdan keyingi paytlarda mamlakatimizda ta'lim oluvchining xorijiy tilni bilishiga asosiy e'tibor qaratilayotganligini eslatib o'tish joiz. Demak, kelgusida boshlang'ich sinf o'qituvchisining faoliyati diagnostika qilinganida uning xorijiy tilni bilishi masalasi ham hisobga olinadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kamida ikkita xorijiy tilni o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ta'lim va tarbiya jarayonini pedagogik diagnostika qilish jarayonida ta'lim beruvchining bilim, ko'nikma, malaka va mahorat darajasi o'rganilib, ularni rivojlantirish asoslari ishlab chiqiladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik diagnostika

manbalarini o'rganishda tegishli o'quv adabiyotlari bilan tanishish, Internet jahon axborot tarmog'idan pedagogik diagnostikaga oid ma'lumotlarni olish va shaxsiy individual metodlarni o'zlashtirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi haftalik amaliyot davrida o'zining ko'nikmalarini tajribasinovdan o'tkazishi ularda pedagogik diagnostika bo'yicha ko'nikmaning tarkib topishiga olib keladi. Shu sababli mazkur Pedagogik diagnostika o'quv fani asoslarini chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, pedagogik diagnostika manbalarini o'rganishda mustaqil ta'lim shakli ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik diagnostika asoslarini o'rganishini yo'naltirish mumkin. Umuman, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil ta'lim olish malakasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik diagnostikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika manbalarida ko'proq metodik tavsiyalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday metodik tavsiyalar ko'p hollarda ta'limni boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan taqdim qilib boriladi. Bunday tashkilotlar pedagogik diagnostikaning maqsadini, vazifalarini, muddatini va uning natijasida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuini belgilaydi.

Pedagogik diagnostikaning xorijiy manbalari.

Pedagogik diagnostikaning xorijiy manbalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) pedagogik diagnostika bo'yicha muayyan mamlakatning tajribasini o'rganish;

b) o'rganilayotgan xorijiy tajribani milliy pedagogik tajribaga moslashtirish;

v) imkon qadar o'rganilayotgan xorijiy mamlakatning pedagogik diagnostikaga oid me'yoriy hujjatlarini o'rganish.

Bizning kuzatishimizga ko'ra, har bir mamlakat pedagogik

diagnostika bo'yicha o'zining tajribasiga ega. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida pedagogik diagnostika maxsus ilmiy markazlar tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnomalar asosida o'tkaziladi. Rossiya Federatsiyasi ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika pedagog olimlar tomonidan shakllantirilgan metodlarga asosan amalga oshiriladi. Finlandiya Respublikasida pedagogik diagnostika nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur misollardan ma'lum bo'ladiki, pedagogik diagnostikaning xorijiy manbalarini o'rganishda muayyan mamlakatning tajribasini chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning kuzatishimizga ko'ra, keyingi paytlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy va aniq fanlar darsliklarida xorijiy mamlakatlar o'quv adabiyotlarining materiallari ustuvor ekanligi ko'zga tashlanadi. Biroq bunday yondashuv milliy pedagogik tajribamizga moslashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, AQSHda yaratilgan matematika o'quv fani darsliklarida asosiy e'tibor ta'lim oluvchini texnologiya jarayoniga tayyorlashga qaratilgan. Mamlakatimiz matematika o'quv fanini o'qitish jarayonida esa ta'lim oluvchilarning matematik bilim, tafakkur va ko'nikmasini shakllantirishga asoslaniladi. Shu jihatdan muayyan xorijiy o'quv adabiyotlaridan foydalanilgan holda ta'lim jarayonini amalga oshirishda o'quv materiallari milliy pedagogik yondashuvlar bilan boyitilishi pedagogik diagnostikaning asoslaridan birini tashkil qiladi.

Pedagogik diagnostikaning xorijiy tajribalarini o'zlashtirishda Ustoz shogird an'anasiga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ustoz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik diagnostika bo'yicha xorijiy manbalarini o'rganish jarayonini kuzatib borishi, uni yo'naltirishi va to'g'ri o'zlashtirishini tashkil qilishi kerak bo'ladi. Chunki talabalar ko'p hollarda muayyan xorijiy tajribani mutloq darajada qabul qiladi. Aslida xorijiy tajribalarda ham yondashuvlar xilma-xil bo'ladi. Shu sababli muayyan mamlakatning pedagogik diagnostika bo'yicha tajribasini o'raganida xolislik tamoyiliga tayanish muhim ahamiyatga

egadir.

Bugungi kunda malakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalar akademiyasi tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. Ana shu tuzilmaning imkoniyatlaridan foydalangan holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik diagnostika bo'yicha bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga, xorijiy tajribani to'g'ri o'zlashtirishga yo'naltirilgan seminarlar, mashg'ulotlar va maxsus treninglar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ish pedagogik diagnostika o'quv fani o'qituvchisi tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib, pedagogik diagnostika manbalari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ularni o'zlashtirishga asosiy e'tiborni qaratish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik diagnostika manbalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish ko'nikmalarini beradi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik diagnostikaning tarixiy manbalari nimalardan iborat?
2. Pedagogik diagnostikaning ilmiy manbalarini nimalar tashkil qiladi?
3. Pedagogik diagnostikaning xorijiy manbalari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Pedagogik diagnostikaning xorijiy manbalarini o'zlashtiring.

Birinchi modul bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
2. Jonsaitova J., Tadjibayev I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik diagnostikasi. – Chirchiq, 2023
3. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009

2-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING DIDAKTIKASI

4-mavzu: Pedagogik diagnostikaga oid tadqiqotlar

Reja:

1. Pedagogik diagnostikaga oid nazariy tadqiqotlar.
2. Pedagogik diagnostikaga oid metodik tadqiqotlar.
3. Pedagogik diagnostikaga oid innovatsion tadqiqotlar.

Tayanch tushunchalar: pedagogika, diagnostika, tadqiqot, innovatsiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Pedagogik diagnostikaga oid nazariy tadqiqotlar.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu borada pedagogik diagnostikaning tadqiqotlar majmui bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Ana shunday muhim yo'nalishlardan biri nazariy tadqiqotlardir.

Pedagogik diagnostikaning nazariy tadqiqotlarida quyidagi masalalar o'rganiladi:

- a) ta'lim va tarbiya jarayonining sifat ko'rsatkichlari;
- b) pedagoglarning metodik ko'rsatkichlari;
- v) ta'lim muhitining rivojlanganlik ko'rsatkichlari.

Ta'lim va tarbiya jarayonining sifat ko'rsatkichlarini o'rganishga yo'naltirilgan nazariy tadqiqotlarda, asosan, milliy pedagogik jarayon va xorijiy pedagogik jarayonlarning qiyosi bo'yicha tahlillar amalga oshiriladi. Bunday tadqiqotlarda ba'zida milliy pedagogik jarayonning sifat ko'rsatkichlari ustuvor namoyon bo'lsa, ayrim hollarda esa bu masalada xorijiy mamlakatlar tajribasining ustuvorligi namoyon bo'ladi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini nazariy o'rganishda qiyosiy yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, mazkur masala bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash asosida R.Djurayev, Sh.Mardonov, R.Safarova kabilarning nazariy

tadqiqotlari mavjudligini eslatib o'tish joiz. Ularda milliy pedagogik jarayonning sifat ko'lami tahlil qilinib, unga xos ko'rsatkichlar xorijiy mamlakatlarning sifat ko'rsatkichlariga qiyoslangan. Bugungi kunda butun mamlakatimiz ta'lim tizimida mana shunday qiyosiy nazariy tadqiqotlarni o'tkazish vositasida pedagogik diagnostikani rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli maktabgacha va maktab ta'limi, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim sifatini bosqichma-bosqich nazariy jihatdan o'rganish ta'lim tizimida pedagogik diagnostikaning nazariy tadqiqotchiligi rivojlantirish imkonini beradi. Buning uchun ta'lim tizimining uzviylik, uzluksizlik va bosqichlilik tamoyillariga tayanish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik diagnostikaning nazariy tadqiqotchiligida metodik tadqiqotlar yo'nalishi ham muhim o'rin tutadi. Bunda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, ularning mahorati asoslari va individual tajribaga ega bo'lish darajasi masalalari metodik jihatdan o'rganilib, tahlil qilinadi. Bunday tadqiqotlarda asosiy e'tibor tajribali o'qituvchilarning faoliyatiga qaratib kelinayotganligini eslatib o'tish joiz. Bundan keyin yosh o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish va ularni yangi metodikalarga o'rgatish tizimini ishlab chiqish metodikasi masalalariga doir tadqiqotlar ko'laminii kengaytirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Pedagogik diagnostikaning metodik tadqiqotlar yo'nalishida mamlakatimiz pedagog olimlaridan J.Yo'ldoshev, R.Axliddinov, S.Turg'unov kabilarning o'ziga xos metodik tadqiqotlari yaratilgan. Mazkur olimlarimiz o'qituvchilar tayyorlash, ularning kasbiy tayyorgarligini muntazam o'rganib borish va mahoratini shakllantirish metodikasi masalalarida bugungi kunda ham amalda bo'lib kelayotgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishgan. Masalan, J.Yo'ldoshev tadqiqotida o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichini rivojlantirish uchun unga o'qitish metodikasi va texnologiyalarini erkin tanlash imkoniyatini berish kutilgan samarani berishini asoslab berilganligi muhim ahamiyatga ega.

Shu jihatdan barcha o'qituvchilar uchun yagona va umumiy mazmunga ega bo'lgan metodikalar va texnologiyalarni taqdim etish ularning kasbiy tayyorgarlik va mahorat darajalarini kutilgan darajada rivojlantirish uchun imkoniyat bermasligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu ma'noda pedagogik diagnostikaning metodik tadqiqotchiligi bo'yicha yangi avlod ilmiy ishlanmalari muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida barcha masalalarga yangicha yondashish ko'nikmasi tarkib topdi. Shu jihatdan pedagogik diagnostikaning innovatsion tadqiqotchilik yo'nalishini yuzaga keltirish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda bizning yondashuvimizga ko'ra, ta'lim muassasasida ta'lim muhitining rivojlanganlik ko'rsatkichlari majmui o'rganilishi va tahlil qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir ta'lim muassasasi o'zining imkoniyatidan kelib chiqib, ta'lim muhitini rivojlantirib borish ishlarini amalga oshirmoqda. Shu jihatdan ta'lim muassasalarida ta'lim muhiti turli-tuman va rang-barang xususiyatlarga egadir. Mana shu jarayonni yangicha yondashuv asosida o'rganib, tajribadan o'tgan ta'lim muhiti asoslarini ta'lim muassasalariga muntazam taqdim etib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning fikrimizcha, pedagogik diagnostikaning innovatsion tadqiqotchilik yo'nalishi ta'lim muhitini rivojlantirishning eng muhim omilidir.

E'tibor berilsa, pedagogik diagnostikada nazariy, metodik va innovatsion tadqiqotlar majmui muhim o'rin tutadi. Shuni ta'kidlash lozimki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik diagnostikaning innovatsion ilmiy tadqiqotchiligini rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi.

Pedagogik diagnostikaga oid metodik tadqiqotlar.

Pedagogik diagnostikada metodik tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) qulay, oson va universal xususiyatlarga ega tadqiqotlar;
- b) diagnostika jarayonini texnik imkoniyatlarga asosan amalga oshirishga doir tadqiqotlar;
- v) pedagogik diagnostika samaradorligini aniqlash

vositalariga doir tadqiqotlar.

Pedagogik diagnostikaga oid metodik tadqiqotlarda qulay, oson va universal xususiyatlarga ega tadqiqotlar majmuini yaratish muhimdir. Chunki bunday tadqiqotlarda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning tayanchlari, vositalari va ulardan foydalanish asoslari ishlab chiqiladi. Misol uchun, bugungi kunda masofadan turib hududlar ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonini pedagogik diagnostika qilib borish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun aynan mana shunday diagnostikaning mexanizmlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Shu ma'noda ana shunday dolzarb yo'nalishlarda metodik tadqiqotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Umuman, universal xususiyatlarga ega ilmiy tadqiqotlar pedagogik diagnostikaning imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik diagnostikaning universal tadqiqotchilik yo'nalishiga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda innovatsion texnologiyaga asosan ta'lim jarayonini amalga oshirish eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli kompyuter, TV, nanotexnikalarga asoslangan boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki texnikaga asoslangan ta'lim dasturlari muntazam yangilanib bormoqda. Bu borada ta'lim dasturlarini takomillashtirish va ularni o'quv-texnika imkoniyatlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Mardonovning fikricha, texnik vositalarga asoslangan ta'limni tashkil etish uchun didaktik ta'minotini ishlab chiqish muhimdir.³ Shu ma'noda bunday ta'minotni ishlab chiqishda yangi ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj seziladi. Didaktik ta'minotni ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarning yosh, jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyatlarini hisobga olgan ilmiy-tadqiqotlar yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada ayniqsa, boshlang'ich ta'limda texnik-o'quv vositalardan foydalanishga doir yangi avlod

³ Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021

tadqiqotlariga ehtiyoj yuqori ekanligini eslatib o'tish joiz.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar majmuini yaratish muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning samaradorligi qanday mezonlar asosida baholanish metodikasini ishlab chiqish muhimdir. Mazkur masalada bizning yondashuvimizga ko'ra, samaradorlikni baholash mezonlari o'zlashtirish ko'rsatkichlari va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asoslarini o'rganish bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli, samaradorlik mezonlari, vositalari va metodlari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarni yaratish uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarining fundamental loyihalarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Fundamental loyihalarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning yaxlit xususiyatlari o'z aksini topadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asoslari, texnologiyalari va amaliyoti bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni yaratish zaruriyatdir.

Pedagogik diagnostikaga oid innovatsion tadqiqotlar. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida ilmiy-tadqiqotlarda bayon qilingan xulosalar, tavsiyalar va ko'rsatmalardan foydalanish mazkur ta'lim bosqichining sifatli ko'rsatkichlariga erishish omili hisoblanadi. Shu ma'noda innovatsion tadqiqotlar majmuini yaratish dolzarbdir. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda innovatsion tadqiqotlarni yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar;

b) boshlang'ich ta'limda individual o'qitish jarayoni bo'yicha innovatsion tadqiqotlar;

v) boshlang'ich ta'limning ta'lim turlari o'zaro bog'liqligi bo'yicha innovatsion tadqiqotlar.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish jarayoni kechmoqda. Bunda asosan TIMSS va PIRLS xalqaro ta'lim dasturlari talablariga amal qilinayotganligini eslatib o'tish joiz. TIMSS xalqaro dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik va o'qish savodxonligini kuchaytirish nazarda tutilgan. Shu sababli mazkur dasturning matematik metodlari va o'qish savodxonligi asoslari bo'yicha nazariy-metodik tadqiqotlarni yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, PIRLS xalqaro ta'lim dasturida mustaqil fikrlash va ijodiy yondashish ko'nikmalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib toptirish nazarda tutilgan. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar va ularning mezonlari aniq emas. Shu sababli mazkur masalada metodik ilmiy-tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashi qanday mezonlarga asoslanishi nazariy jihatdan asoslab berilmagan. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun ularning ijodiy fikrlashi yangilanib turadi. Mazkur masalalar bo'yicha innovatsion tadqiqotlarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi jarayonida har bir o'quvchi bilan individual ishlash dolzarbdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim ko'rsatkichlarini rivojlantirish, tarbiya olganlik ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning ta'lim muhitiga moslashuvi masalalari bo'yicha innovatsion ilmiy tadqiqotlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa, har bir o'quvchi bilan individual ishlash metodikasi asoslari bo'yicha yangi ishlanmalar yaratish muhimdir. Misol uchun, bu masalada boshlang'ich sinflarda o'quvchilar miqdorini optimallashtirish muammolariga doir tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim sinflarida 40-45 nafar o'quvchilarning mavjudligi ta'lim sifatiga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Boshlang'ich ta'lim tajribasiga ko'ra, boshlang'ich sinflarda 12-15 nafar o'quvchining bo'lishi maqbul hisoblanadi.

Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'quvchilar miqdorini belgilash metodikasi bo'yicha innovatsion tadqiqotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limning ta'lim turlari bilan bog'liqligi bo'yicha innovatsion ilmiy tadqiqotlarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bog'liqligi, boshlang'ich ta'lim va keyingi umumiy o'rta ta'lim bog'liqligi, boshlang'ich ta'lim va maxsus ta'lim muassasalari bog'liqligi, boshlang'ich ta'lim va ijodiy ta'lim muassasalari bog'liqligi metodikasi masalalari bo'yicha innovatsion tadqiqotlarni yaratish muhimdir. Bu masalalarda nazariy, metodik va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limning boshqa ta'lim turlari bilan bog'liqligi innovatsion metodikasini yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasiga oid innovatsion tadqiqotlar yaratish masalalarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, pedagogik diagnostikaning muammolari bo'yicha innovatsion tadqiqotlar yaratish masalasini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik diagnostikaga oid nazariy tadqiqotlar asoslarini nimalar tashkil qiladi?

2. Pedagogik diagnostikaga oid metodik tadqiqotlar omillari nimalardan iborat?

3. Pedagogik diagnostikaga oid innovatsion tadqiqotlar xususiyatlari qanday yondashuvlarga asoslanadi?

4. Pedagogik diagnostika didaktikasining innovatsion tadqiqotlar yo'nalishini o'zlashtiring va taqdimot tayyorlang.

5-mavzu: Pedagogik diagnostika didaktikasi

Reja:

1. Pedagogik diagnostika didaktikasida ta'lim nazariyasi.
2. Pedagogik diagnostika didaktikasida o'qitish masalasi.
3. Pedagogik diagnostika didaktikasida baholash usullari.

Tayanch tushunchalar: *diagnostika, pedagogika, didaktika, ta'lim, o'qitish, nazariya, baholash, bilim, ko'nikma, malaka.*

Pedagogik diagnostika didaktikasida ta'lim nazariyasi.

Boshlang'ich ta'limning hozirgi zamon rivojlanish jarayonida ta'lim berish asoslarini kuchaytirish bo'yicha pedagogik diagnostikani muntazam o'tkazib borish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan pedagogik diagnostikaning didaktikasida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- a) ta'lim oluvchilarni kutilgan darajada o'qitish didaktikasi;
- b) ta'lim oluvchilarga o'rgatish didaktikasi;
- v) ta'lim oluvchilarni bilimdonlik faoliyatiga tayyorlash didaktikasi.

Pedagogik diagnostika didaktikasida zamonaviy talablar asosida ta'lim oluvchilarni o'qitish muhim o'rin tutadi. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda o'qitish jarayonini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz:

- maktabgacha ta'limda o'qitish vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning savodxonlik ko'nikmasini tarkib toptirish;
- umumiy o'rta maktab ta'limida o'quv fanlari asoslarini to'liq o'qitishga erishish;
- o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini chuqurlashtirish;
- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni mutaxassis sifatida tayyorlash.

Pedagogik diagnostika didaktikasida o'qitish jarayonini bunday tashkil qilish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda mazkur bosqichlar asosida o'qitish jarayonini diagnostika qilish va o'rganib borish muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning natijasida pedagogik diagnostika didaktikasining eng asosiy vazifasi amalga oshiriladi.

Pedagogik diagnostika didaktikasida o'rgatish masalasi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilarga nimani, qanday va qachon o'qitish masalalari bo'yicha pedagogik diagnostika nazariy-amaliy ma'lumotlarni taqdim etadi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masala tizimlashgan. Biroq, maktab ta'limida va oliy ta'limning magistratura bosqichida o'quv fanlarini bugungi kun talablari asosida takomillashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda maktab ta'limi va oliy ta'limning magistratura bosqichida alohida va muntazam ravishda pedagogik diagnostikani amalga oshirish o'rgatish jarayonini modernizatsiyalashning muhim omilidir. Bunda quyidagi masalalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quv fanlari qanday vositalar asosida o'rgatilmoqda;
- o'rganish jarayoni pedagogik talablarga javob beradimi;
- o'rganganlik ko'rsatkichlari jamiyat talablariga mosmi.

Aynan mana shunday yondashuv asosida o'rgatish jarayonini pedagogik diagnostika qilib borish ta'lim bosqichlaridagi mazkur masala bo'yicha vositalar va metodlarni takomillashtiradi. Buning natijasida o'rgatish mazmuni yangilanib, ta'lim jarayonida modernizatsiya, ya'ni bugungi kun talablari asosida maqbullashib borish jarayoni yuzaga keladi.

Pedagogik diagnostika didaktikasida ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlash ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli bunda pedagogik diagnostika ta'lim oluvchilarning kasb va hunar asoslarini o'zlashtirish jarayoni, ularning kasbiy kompetensiyasi qanday shakllanayotganligi masalalarini o'rganib, tahliliy ma'lumot tayyorlaydi. Buning natijasida ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlash imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli bugungi kunda ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlashda quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

- kasb va hunarlarning klassifikatorlarini muntazam

yangilab borish;

- nanotexnologiyaga asoslangan mutaxassisliklar ko'lamini kengaytirish;

- ixtirochilikka asoslangan ilmiy mutaxassislar tayyorlash jarayonini tashkil etish.

Shu jihatdan pedagogik diagnostikani tayyorlash masalasida aynan ana shu jihatlar diagnostika qilinishi mazkur jarayonning didaktikasida muhim o'rin tutadi. Bu borada bizning yondashuvimizga ko'ra, yangi kasb va hunarlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonini muntazam pedagogik diagnostika qilib borish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Diqqat qilinsa, pedagogik diagnostika didaktikasida muhim masalalar o'z ifodasini topadi. Bunda o'qitish, o'rgatish va tayyorlash masalalari pedagogik diagnostika didaktikasining asosi hisoblanadi. Aynan mana shu masalalar oliy pedagogik jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik diagnostika didaktikasida o'qitish masalasi.

Pedagogik diagnostika didaktikasida innovatsion tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagilarga asoslanish muhim ahamiyatga ega:

a) ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini individual diagnostika qilish;

b) tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini klasterli asosda diagnostika qilish;

v) ta'lim beruvchilarning mahoratini majmuyi diagnostika qilish.

Pedagogik diagnostika didaktikasining innovatsion tadqiqotlarida individual pedagogik diagnostika muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilarning axloqiy fazilatlarini o'zlashtirganlik ko'rsatkichlari, faoliyatda axloq qoidalariga rioya qilish darajasi va o'zgalarga axloqiy munosabati holati diagnostika qilinib baholanadi. Shu sababli bu borada quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- ta'lim oluvchilar qanday axloqiy fazilatlarini o'zlashtirgan;

- ta'lim oluvchilarda axloqiy faoliyat asoslari qanday

ko'rsatkichga ega;

- ta'lim oluvchilarning o'zgalarga axloqiy munosabati holati qanday darajada.

Mana shu masalalarning pedagogik diagnostika qilinishi mazkur jarayonning didaktikasida muhim o'rin tutadi. Shu sababli bu borada pedagogik diagnostika didaktikasining individual yo'nalishi bo'yicha yangi tadqiqotlar majmuini yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Pedagogik diagnostika didaktikasining asosiy masalalaridan biri ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini klasterli asosda diagnostika qilishdir. Bunda amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar, ilmiy mutaxassislar va ta'lim boshqaruvining vakillari hamkorlikda ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini o'rganib baholaydi. Shu jihatdan pedagogik diagnostikaning klasterli metodi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini hamkorlikda baholash;

- tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarining ijobiy yoki salbiy xususiyatlarga egaligini aniqlash;

- tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarining bugungi kun talablariga javob berishi yoki bermasligi to'g'risida xulosaga kelish.

Bunday yondashuv klasterli asosda ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini xolis baholash imkonini beradi. Shu sababli mazkur masala bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Pedagogikdiagnostikadidaktikasidata'limberuvchilarning mahoratini o'rganib borish asosiy masalalardan biridir. Chunki pedagogik mahorat vaqt rejimida rivojlanib borish xususiyatiga ega. Shu jihatdan mazkur masalani pedagogik diagnostika qilishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ta'lim beruvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini majmuyiy o'rganish;

- ta'lim beruvchilarning o'z mahoratidan foydalana olish

darajasini o'rganish;

- ta'lim beruvchilarning mahoratlaridagi yangicha yondashuvlarni aniqlash.

Bunday pedagogik diagnostika innovatsion tadqiqotchilik yo'nalishini yanada kuchaytiradi. Chunki pedagogik diagnostikada ta'lim beruvchilarning mahorat ko'rsatkichlarini muntazam o'rganib borish ta'lim mazmuni, muhiti va uning sharoitlarini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borish omillarini aniqlashtiradi. Shu sababli bu masalaga majmuy yondashish muhim ahamiyatga ega. Shuni eslatib o'tish joizki, ta'lim beruvchilar bugungi kunda o'zlarining mahoratlarini rivojlantirib borish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega. Bunda ayniqsa, o'quv materiallarining elektron taqdim etilayotganligi imkoniyatlar ko'lamini kengaytiradi. Shu jihatdan pedagogik diagnostikada aynan ana shu masalalarni o'rganib baholash, sifatli ta'limga erishishning muhim asoslaridan biridir.

E'tibor berilsa, pedagogik diagnostika didaktikasining innovatsion tadqiqotlar yo'nalishida individual, klasterli va majmuy pedagogik diagnostikalash muhim imkoniyatlarni berishi bilan namoyon bo'ladi.

Pedagogik diagnostika didaktikasida baholash usullari. Pedagogik diagnostika didaktikasida baholash usullari muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarni o'rganish taqozo etiladi:

- a) o'quvchilarning bilim darajasini baholash;
- b) o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash;
- c) o'quvchilarning faoliyatga tayyorgarlik ko'nikmasini baholash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasini baholashda yangi metodikalarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada baholashning innovatsion metodikalarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalada bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq, tabiiy va gumanitar fanlar mavzularini o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlari, bilim darajasi va tushunish darajasini baholash muhimdir. Shu sababli mazkur masalada quyidagi metodikaga

asoslanish zaruriyat hisoblanadi:

- o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini baholash;
- o'quvchilarning tushunish darajasini baholash;
- o'quvchilarning fikrlash darajasini baholash.

Bunday yondashuv pedagogik diagnostika didaktikasida muhim o'rin tutadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimga bo'lgan qiziqishlari boshlang'ich ta'limning mazmunini tashkil qiladi. Bilim olishga bo'lgan qiziqishni choraklik shakllarga asosan diagnostika qilib borish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini baholash ham pedagogik diagnostikaning muhim usullaridan biridir. Bunda quyidagilarga asoslaniladi:

- o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini o'zlashtirganlik darajasini baholash;
- o'quvchilarning axloq qoidalariga rioya qilishini baholash;
- o'quvchilarning o'zgalarga munosabatini baholash.

Bunday usullar boshlang'ich ta'limda pedagogik diagnostikaning muhim didaktik usullari hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur masalada quyidagi usullarga asoslanish muhimdir:

- o'quvchilarning keyingi ta'lim turlariga tayyorligini baholash;
- o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatga tayyorligini baholash;
- o'quvchilarning mustaqil harakat qilish ko'nikmalarini baholash.

Bu usul boshlang'ich ta'lim pedagogik diagnostikasida va uning didaktikasida muhim o'rin tutadi.

E'tibor berilsa, pedagogik diagnostika didaktikasida baholash usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Shunday qilib, pedagogik diagnostika didaktikasida ta'lim nazariyasi, o'qitish masalasi va baholash usullari muhim o'rin tutadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik diagnostika didaktikasida ta'lim nazariyasi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Pedagogik diagnostika didaktikasida o'qitish masalasi nimalarga asoslanadi?
3. Pedagogik diagnostika didaktikasida baholash usullari nimalardan iborat?
4. Pedagogik diagnostika didaktikasida baholash usullarini o'zlashtiring va haftalik amaliyot davrida sinovdan o'tkazing.

6-mavzu: Pedagogik diagnostikaning metodlari

Reja:

1. Pedagogik diagnostikaning an'anaviy metodlari.
2. Pedagogik diagnostikaning noan'anaviy metodlari.
3. Pedagogik diagnostikaning innovatsion metodlari.

Tayanch tushunchalar: *pedagogika, diagnostika, metod, an'anaviylik, noan'anaviylik, innovatsiya, bilim, ko'nikma, malaka.*

Pedagogik diagnostikaning an'anaviy metodlari.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu borada an'anaviy metodlarga asoslanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. An'anaviy metodlar – bu ta'lim va tarbiya jarayonida tajribadan o'tgan usullar majuidir. Shu ma'noda an'anaviy metodlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) o'rganish metodi;
- b) tahlil metodi;
- c) xulosalash metodi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida o'rganish an'anaviy metodi muhim o'rin tutadi. Bunda ta'lim va tarbiya jarayonining sifati va samaradorligi o'rganiladi va baholanadi. O'rganish jarayonida asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan

suhbatga qaratiladi. Buning natijaida boshlang'ich sinf o'quvchilarining majmuy rivojlanishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'linadi. O'rganish jarayoni maxus guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik diagnostikaning an'anaviy tahlil metodida boshlang'ich ta'limga oid ma'lumotlar analiz qilinadi. Bunda tahlil sinflar kesimida, makablararo kesimda va hududlar kesimida amalga oshiriladi. Natijada mamlakat miqyosida boshlang'ich ta'lim jarayoni to'g'rida umumiy ma'lumotga ega bo'linadi. Tahlil jarayoni pedagogik diagnostika bo'yicha ilmiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida xulosalar metodi ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Unga ko'ra, diagnostikada o'rganilgan ma'lumotlar va uning xulosalari asosida ta'lim va tarbiya jarayonining holati to'g'risida xulosaga kelinadi. Xulosa jarayonida ta'lim va tarbiyaning talabga javob berishi ijobiy yoki salbiy shaklda baholanadi. Xulosa yakunida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar taqdim qilinadi. Pedagogik diagnostikaning xulosalash jarayoni mutaxassislar va ta'lim boshqaruvi vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

E'tibor berilsa, pedagogik diagnostikaning an'anaviy metodlari o'ziga xos usullarga asoslanadi. Shu sababli mazkur usullarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik diagnostikaning noan'anaviy metodlari.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini diagnostika qilib borish muhimdir. Shu sababli pedagogik diagnostika jarayonida noan'anaviy metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday noan'anaviy metodlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) rejasiz diagnostika qilish metodi;
- b) maqsadli diagnostika qilish metodi;
- c) taklif asosida diagnostika qilish metodi.

Pedagogik diagnostikaning rejasiz tashxisi muayyan o'quv jarayonini tezkor o'rganish yoki ta'lim muhitini baholash

maqsadida o'tkaziladi. Bunda ta'lim boshqaruvi vakillari ishtirok etadi va diagnostika jarayonida o'tkazilayotgan ta'lim muassasasi vakili ishtirok etmaydi. Shu sababli ta'lim sifatiga erishishda rejasiz diagnostika metodiga asoslanish samarali hisoblanadi. Chunki bunday o'rganishda mavjud holat bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'linadi.

Pedagogik diagnostikaning maqsadli metodidan qisqa muddatli tashxis jarayonida foydalaniladi. Unga ko'ra, bir o'quv yili davomidagi ta'lim va tarbiya hamda uning ko'rsatkichlari o'rganilib, baholanadi. Pedagogik diagnostikaning maqsadli metodi asosida tashxislash uchun kamida bir oy oldin ta'lim muassasasi ogohlantiriladi va tashxislashning savolnomasi taqdim etiladi. Buning natijasida ta'lim muassasasi tayyorlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq, tashxislash jarayonida asosiy e'tibor ta'lim muhiti va o'zlashtirish ko'rsatkichlaridagi muammolarga qaratiladi. Shu sababli barcha ta'lim muassasalari maqsadli diagnostika jarayoniga maxsus tayyorgarlik ko'rishini eslatib o'tish joiz.

Pedagogik diagnostikaning taklif asosida tashxislash metodi demokratik tamoyilga asoslaniladi. Bunda ta'lim muassasasi o'z tashabbusi bilan muayyan o'quv fanini o'qitish jarayonini yoki ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini tashxis etish taklifi bilan mutaxassislarga murojaat qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p yillik tajribali ta'lim muassasasi rahbarlari o'quv va tarbiya jarayonidagi muammolarni hal etish uchun pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanadi. Buning natijasida shu ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya jarayonining ko'rsatkichlari talab darajasida bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik diagnostikaning rejasiz, maqsadli va taklif metodlarini chuqur o'zlashtirishi tavsiya etiladi. Chunki kelgusida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik diagnostika jarayonida ishtirok etishini eslatib o'tish joiz.

Pedagogik diagnostikaning innovatsion metodlari.

Innovatsiya – yangilik, o'zgartirish, takomillashtirish demakdir⁴. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish jarayoni kechmoqda. Bundan maqsad ta'lim va tarbiya jarayonining mazmunini kuchaytirish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini yuksaltirish va ta'lim oluvchilarni faoliyatga bugungi kun talablari asosida tayyorlashdan iborat. Shu ma'noda pedagogik diagnostikaning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish dolzarb bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, pedagogik diagnostikaning quyidagi innovatsion metodlarini o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) masofaviy pedagogik diagnostika metodi;

b) mutaxassislarning individual diagnostika metodi;

v) ta'lim muassasasi jamoasining xususiy pedagogik diagnostikasi metodi.

Masofaviy pedagogik diagnostika shu soha mutaxassislari tomonidan onlayn shaklda o'tkaziladi. Ayni paytda, bunday diagnostika jarayoni uchun maxsus tayyorgarlik amalga oshiriladi. Tayyorgarlik jarayonida diagnostikaning maqsadi, savolnomasi va undan kutilayotgan samaraga oid yo'nalishlar belgilanadi. Shuningdek, masofaviy pedagogik diagnostikada muayyan murakkabliklar ham mavjudligini eslatib o'tish joiz. Chunki diagnostika jarayonida ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash murakkab kechadi.⁵ Shu sababli masofaviy innovatsion pedagogik diagnostika metodidan foydalanganda ko'proq xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki xorijlik pedagog mutaxassislar ta'lim sifati bo'yicha o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lishadi.

Mutaxassislarning individual innovatsion diagnostikasi metodi ko'p hollarda diagnostika masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida qo'l keladi. Bunda muayyan

⁴ Qarang: Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009

⁵ Qrang: Sharipov J., Sherov A. Masofaviy ta'lim: afzalligi nimada? Kamchiligichi? // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2023-yil 5-sentyabr soni.

ta'lim muassasasining muammolari va uning yechimlari bo'yicha maxsus ilmiy pedagogik diagnostika o'tkaziladi. Bu jarayon ko'p hollarda mamlakatimizda Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mutaxassislari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Chunki pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda ta'lim mazmuni, sifati va metodlarini muntazam takomillashtirib borish jarayoni amalga oshiriladi. Shu sababli pedagogik tadqiqotchilikda individual diagnostika metodidan oqilona foydalaniladi. Masalan, pedagogika fanlari bo'yicha tayyorlanadigan dissertatsiyalarda tajriba-sinov ishlari bo'limi mavjud. Aynan, pedagogik tajriba-sinov ishlari individual pedagogik diagnostika asosida amalga oshiriladi va uning natijalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu sababli mutaxassislarning individual diagnostika metodini oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik diagnostikaning ta'lim muassasasi metodi muayyan ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan xususiy tarzda o'rganish jarayoniga asoslanadi. Unga ko'ra, o'quv fanlarining o'qitilish jarayoni, o'quvchilarning qiziqishlari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda ta'lim muassasasi jamoasining o'zi ustida ishlashi masalalari o'rganilib, baholanadi. Keyingi paytlarda mazkur metoddan Prezident ta'lim muassasalari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida keng foydalanilayotganligini eslatib o'tish joiz. Buning natijasida mazkur ta'lim muassasalarida ta'lim sifati ko'rsatkichlari yuqori bo'lmoqda. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim bosqichlarida ham xususiy pedagogik diagnostika metodidan foydalangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jamoasi xususiy pedagogik diagnostikasi bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiqdir.

E'tibor berilsa, innovatsion pedagogik diagnostika keng ko'lamliligi va samaradorlik xususiyatlariga egaligi bilan bu

jarayonda muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, pedagogik diagnostika metodlari ta‘lim mazmuni, uning muhiti, o‘qitish jarayoni va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini baholashda muhim o‘rin tutadi. Buning uchun pedagogik diagnostikaning metodlarini chuqur o‘zlashtirish va o‘zlashtirilganlarni haftalik pedagogik amaliyot davrida sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik diagnostikaning an’anaviy metodlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Pedagogik diagnostikaning noan’anaviy metodlari asoslari nimalardan iborat?
3. Pedagogik diagnostikaning innovatsion metodlaridan qaysi birini bilasiz?
4. Pedagogik diagnostikaning innovatsion metodlarini o‘zlashtiring va konspekt qiling.

7-mavzu: Pedagogik diagnostikaning ilmiy mezonlari

Reja:

1. Pedagogik diagnostikaning xolislik ilmiy mezoni.
2. Pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezoni.
3. Pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezoni.

Tayanch tushunchalar: pedagogika, diagnostika, ilmiylik, mezon, yondashuv, bilim, ko‘nikma, malaka.

Pedagogik diagnostikaning xolislik ilmiy mezoni.
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 2026-yilga qadar boshlang‘ich ta‘limni raqamlashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltirish vazifasi qo‘yilgan⁶. Shu sababli mazkur vazifaning ijrosi jarayonida pedagogik diagnostikaning mezonlari

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 12-sentyabr soni.

imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi.

Mezon – bu ta‘lim, tarbiya va uni o‘zlashtirish jarayonining o‘lchovidir.⁷ Shu sababli ta‘lim muassasalarining mazkur mezon bo‘yicha faoliyatini o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagogik diagnostikaning xolislik ilmiy mezoniga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma‘noda mazkur metodning asoslari quyidagilardan iborat ekanligini eslatib o‘tish joiz:

- a) ta‘lim muassasasining imkoniyatlarini hisobga olish;
- b) ta‘lim muassasasini rivojlantirishni nazarda tutish;
- v) ta‘lim muassasasi uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash.

Mazkur mezonlar asosida ta‘lim muassasasining faoliyati xolislik mezonini bo‘yicha o‘rganiladi va baholanadi. Bunda pedagogik diagnostika bo‘yicha mutaxassislarining ishtirok etishi taqozo etiladi. Chunki mutaxassis pedagogik diagnostikaning xolis o‘tkazilishi uchun ilmiy asoslarga tayanadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, ta‘lim muassasasi diagnostikasida xolislik mezonidan foydalanish shu ta‘lim muassasasining rivojlanishi uchun asoslarni ishlab chiqish imkonini beradi. Xolislik mezonining aksi bir tomonlama, ya‘ni texnokratik yondashuvdir. Texnokratik yondashuv asosida pedagogik diagnostikani o‘tkazish ta‘lim muassasasi yutuqlarini to‘liq namoyon qilmaydi. Shu sababli xorijlik pedagog olimlar pedagogik diagnostikada xolislik tamoyiliga asoslanishni insonparvarlik bilan tenglashtiradilar. Mamlakatimiz ta‘lim muassasalarini pedagogik diagnostika qilishda xolislik mezoniga tayanish muhim ahamiyatga egadir.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, oliy pedagogik ta‘lim muassasalari tomonidan xolislik mezonlari bo‘yicha metodik ishlanmalarning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ko‘p hollarda ta‘lim muassasalari pedagogik diagnostikasida sub‘ektivlik kuzatilmoqda. Agar xolislik mezonini bo‘yicha metodik ishlanmalar yaratilib, ular asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qurollantirilsa, boshlang‘ich

⁷ Qarang: Djurayev R va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent, 2008

ta'lim jarayonini innovatsion rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Pedagogik diagnostikani amalga oshiruvchi, eng avvalo, xolislik mezoniga amal qilishi bilan diagnostika jarayonining maqsadli o'tkazilishi asosiga ega bo'ladi. Bu borada mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining O'quv ishlarini tashkil qilish metodi markazi tomonidan muvofiqlashtirish ishlari olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayni paytda, pedagogik diagnostikaning xolislik mezonini bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rganish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim muassasalari diagnostikasida xolislik mezoniga amal qilish bo'yicha o'ziga xos tajriba mavjudligini eslatib o'tish lozim. Bunday tajribalarni o'rganish va boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishda ulardan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi.

Pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezonini.

Pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezonini o'ziga xos talablar asosida amalga oshirilishini nazarda tutuvchi vosita hisoblanadi. Shu jihatdan pedagogik diagnostikaning tahliliy ilmiy mezonlarida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

a) o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlarni o'rganish va baholash;

b) o'quvchilarning layoqat ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini o'rganish va baholash;

v) maktab Pedagogik jamoasining kasbiy holatini o'rganish va baholash.

Pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezonida o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlarni o'rganish muhim yondashuvlardan biridir. Bunda sinfxonalarning zamonaviy jihozlanganligi va sanitariya-gigiyena talablari hamda hayot xavfsizligi qoidalariga mosligi, iqlim o'zgarishlari hisobga olingan texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi hamda o'qituvchilar uchun qulay ish rejimi yaratilganligi masalalari maxsus pedagogik diagnostika guruhi tomonidan o'rganiladi.

Ushbu masalalar bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, ta'lim muassasasining o'qituvchilar uchun sharoiti ijobiy yoki salbiy yondashuvga asosan baholanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchilar uchun yaratiladigan sharoitlar masalasida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun alohida yondashuv mavjud. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar bilan individual ishlash uchun o'zlarining maxsus metodik xonasiga ega bo'lishi kerak. Shu sababli urbanizatsiya, ya'ni mamlakatimizda shaharlashtirish qoidalari asosida barpo etilayotgan Yangi O'zbekiston massivlarida zamonaviy maktablarni qurish jarayonida o'qituvchilar uchun metodik xonalarni nazarda tutuvchi ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi kelgusida o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlarni diagnostika qilish va baholash ko'rsatkichlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezonida o'quvchilar layoqatini rivojlantirish masalasini o'rganish va baholash ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlar turkumlariga bo'lgan qiziqishiga qarab layoqatlari aniqlanadi, o'quvchilar o'quv fanlari o'qituvchilariga birlashtiriladi va birlashtirilgan o'qituvchilar individual mashg'ulotlari uchun sharoitlar yaratiladi, bular asosida o'quvchilar layoqatining rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganiladi va baholanadi. Bizning individual diagnostik tahlillarimizga ko'ra, keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq va tabiiy fanlarga layoqatlik ko'rsatkichlari yuqori bo'layotganligi bilan diqqatni tortadi. Bunga sabab mazkur fanlar turkumlarining chuqurlashtirib o'qitilayotganligi va ular bo'yicha iste'dodli o'qituvchilar avlodining tarkib topganligidir. Bunday tajribadan foydalangan holda gumanitar fanlar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishi va layoqatlik darajasini maxsus yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki gumanitar fanlar o'quvchilarning dunyoqarashi va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyalanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq, tabiiy va gumanitar

fanlar turkumlari bo'yicha qiziqish va layoqatlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib tuganligini ta'kidlab o'tish lozim. Buning natijasida o'quvchilarning layoqat ko'nikmalarini pedagogik diagnostika qilish omillari kuchayadi.

Pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezonida ta'lim muassasasi Pedagogik jamoasining kasbiy holatini o'rganish va baholash ham asosiy yondashuvlardan biridir. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy ma'lumotlik darajasi, ularning pedagogik mahorati, individual metodikaga egaligi va imkon qadar o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasi masalalarini o'rganish hamda baholash muhim o'rin tutadi. Eslatib o'tish joizki, yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim bosqichi maktabgacha va boshqa ta'lim turlarini bog'lovchi turlariga aylandi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy holatini va umuman ta'lim muassasasi Pedagogik jamoasining kasbiy malaka darajalarini har o'quv yilida diagnostika qilib borish muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik diagnostika – bu imkoniyatdir va unda boshlang'ich ta'lim muammolarini ilmiy yondashuv asosida o'rganish va baholash hamda uni rivojlantirish asoslarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarini oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish taqozo etiladi. Chunki so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2022-2023 o'quv yili yakunida mamlakatimizning 10 ming 104 umumiy o'rta ta'lim maktabida 509 ming 443 o'qituvchi dars bergan. Ularning 46 foizi oliy ma'lumotli hisoblanadi.⁸ Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim jarayonini ilmiy tafakkurga ega bo'lgan va metodik jihatdan yangi yondashuvlarni egallagan oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ta'minlash dolzarbligini eslatib o'tish joiz.

Diqqat qilinsa, pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan

⁸ Nosirov A. Ta'lim mazmuniga qaratilgan o'zgarishlar. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2023-yil 13-iyul soni.

mazkur mezonlarni o'zlashtirishni taqozo etuvchi kasbiy kompetensiyalar majmuidan biridir.

Pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezoni.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha mamlakatimizda dastlabki tajribalar yuzaga kelganligini alohida ta'kidlash lozim. Shu sababli pedagogik diagnostikaning boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan oshkoralik ilmiy mezoni asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) ochiqlik;
- 2) demokratiklik;
- 3) xolislik.

Pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezonida ochiqlik muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik diagnostikaning ochiqlik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, diagnostika jarayoni maxsus guruh tomonidan avvaldan kuni, vaqti va o'tkazish talablari ifodalangan holda e'lon berishdan boshlanadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim ishtirokchilari diagnostika jarayoniga tayyorlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Diagnostika uchun taqdim qilingan savolnomada diagnostikaning maqsadi, talab etiladigan me'yoriy hujjatlar, diagnostika ob'ekti va diagnostika ishtirokchilari to'g'risidagi yo'naltirishlar o'z aksini topadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezonida muhim o'rin tutadigan ochiqlik tamoyili asoslari bilan qurollantirish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun "Pedagogik diagnostika", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi", "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya" kabi o'quv fanlarining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezonida demokratiklik tamoyili asos negizlaridan biridir. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining

9-moddasida mamlakatimizda ta'lim jarayoni va tizimi insonparvarlik va demokratiya tamoyillari asosida tashkil etilishi hamda amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy asos pedagogik diagnostikani demokratik tamoyil asosida o'tkazish uchun omil hisoblanadi. Unga ko'ra, diagnostika jarayoni jamoatchilik ishtirokida, axborot-kommunikatsion vositalarda yoritilgan holda va ta'lim oluvchilarning manfaatlarini ustvor qo'ygan holda amalga oshiriladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan pedagogik diagnostika o'ziga xos aniq va to'g'ri ma'lumotlarni beradi. Chunki demokratik tamoyilga asoslangan pedagogik diagnostika jarayonida inson omilining salbiy ta'siri va sub'ektivizm (bir yoqlamalik) susayadi. Shu sababli mazkur tamoyilni oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezonini negizlaridan yana biri xolislik tamoyilidir. Unga ko'ra, diagnostika jarayoniga mavjud sharoitdan qat'iy nazar oqilona yondashish, olingan ma'lumotlarning ijobiy yoki salbiy ekanligidan qat'iy nazar ularni ilmiy tahlil qilish, diagnostika jarayonida yuzaga kelgan kamchiliklar va murakkabliklar uchun ta'lim jamoasini ayblamaslik, ma'lumotlar tahlilida mutaxassislar ishtiroki va yordamidan foydalanish masalalariga asoslaniladi. Buning natijasida o'tkazilgan pedagogik diagnostika, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayoni bo'yicha amalga oshirilgan pedagogik diagnostika to'g'ri, ob'ektiv va murosa vositalari asosida natijalari tahlil qilinib, baholanadi. Shu sababli xolislik tamoyili asosida pedagogik diagnostikani amalga oshirish mazkur jarayonni kutilgan darajada tashkil etishning tayanchlaridan biri hisoblanadi.

E'tibor berilsa, pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezonini negizlarini ochiqlik, demokratiklik va xolislik tamoyillari tashkil qiladi. Bu tamoyillarni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tavsiya etiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan

pedagoik dianostikaning ilmiy mezonlarini xolislik, tahliliylik va oshkoralik tamoyillari hamda vositalari tashkil qiladi. Bu ilmiy mezonlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogik diagnostikaning xolislik ilmiy mezoni asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. Pedagogik diagnostikaning tahliliylik ilmiy mezoni negizlari nimalardan iborat?
3. Pedagogik diagnostikaning oshkoralik ilmiy mezoni tamoyillarida qaysi tamoyillar muhim o'rin tutadi?
4. Pedagogik diagnostikaning ushbu ilmiy mezonlarini o'zlashtiring va taqdimot tayyorlang.

8-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasini tashkil etishning me'yoriy asoslari

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning qonuniy asoslari.
2. Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning pedagogik asoslari.
3. Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning metodologik asoslari.

Tayanch tushunchalar: *pedagogika, boshlang'ich ta'lim, diagnostika, tashkil etish, yondashuv, me'yor, asos, mexanizm, malaka.*

Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning qonuniy asoslari. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish davlat ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi. Shu sababli "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturi asosida 2023-2026 yillarda boshlang'ich

ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish vazifalari qo'yildi va ular amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda boshlang'ich ta'limda pedagogik diagnostikani tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun pedagogik diagnostikani tashkil etishning qonuniy asoslarini belgilab olish taqozo etiladi. Pedagogik diagnostikani tashkil etishning qonuniy asoslarini qonunlar va ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil qiladi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich ta'limda pedagogik diagnostikani tashkil qilishning eng muhim qonuniy asoslari sifatida quyidagilar bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish dolzarb bo'lib turibdi:

1) "Ta'lim to'g'risida" va "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonunlarda pedagogik diagnostikaga oid belgilangan me'yoriy asoslarni o'zlashtirish;

2) "O'zbekiston - 2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasida pedagogik diagnostikaga oid belgilangan me'yoriy asoslarni o'zlashtirish;

3) mamlakatimiz tomonidan e'tirof etilgan xalqaro ta'lim dasturlarida pedagogik diagnostikaga oid belgilangan me'yoriy asoslarni o'zlashtirish.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (2020-yil 23-sentyabr) boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar manfaatlari hamda huquqlarining ustuvor qo'yilishi belgilab qo'yilgan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik diagnostikani tashkil qilish va amalga oshirishda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning manfaatlari ustuvor qo'yiladi. Bunda ularning shaxsini kamsitmaslik, imkoniyatlarini to'g'ri baholash, munosabatlarda bolaparvarlik va insonparvalik tamoyillariga amal qilishga tayaniladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan pedagogik diagnostika me'yoriy-huquqiy jihatdan to'g'ri amalga oshiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich ta'lim uchun alohida sanitariya-gigiyenik va xavfsizlik qoidalariga asoslangan sharoitlarni tashkil etish, ta'lim oluvchilar va ta'lim

beruvchilarning sog'ligiga zarar keltiradigan xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning sog'lik darajasi va salomatlik ko'nikmasining holatiga ko'ra munosabatda bo'lish talablari belgilab qo'yilgan. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan pedagogik diagnostika jarayonida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning hayot va faoliyat xavfsizligiga daxl qilmaydigan texnik vositalar, metodikalar, texnologiyalar va munosabatlar majmuidan foydalanishga asoslaniladi. Bu bilan pedagogik diagnostika jarayoni o'zining qonuniy asoslaridan biriga ega bo'ladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Sog'liqni saqlash to'g'risida" va "O'qituvchi maqomi to'g'risida"gi qonunlarida boshlang'ich ta'limga doir belgilangan qoidalar va talablar majmuini o'zlashtirishi ularning pedagogik diagnostika bo'yicha kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishida muhim o'rin tutishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishda asosiy me'yoriy hujjatlarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Bunda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim planshetlari bilan ta'minlanganligi va ularning elektron o'quv-resurslari bilan boyitilganligi, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tayanch hisoblangan Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim dasturlari hamda tajribalaridan qanday foydalanilayotganligi o'rganiladi hamda baholanadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limni strategik rivojlantirishning asoslariga ega bo'linadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasida belgilangan o'quvchilarning bilimni chuqurlashtirish, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlash va bu boradagi o'qituvchilarning yangi metodikalarga egaligi o'rganilib baholanadi. Natijada Milliy malakalar ramkasi asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga ega bo'linadi. Bundan tashqari, ta'limga oid keyingi paytlarda qabul qilinayotgan eng asosiy me'yoriy hujjatlar asosida (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha

va maktab ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasining buyruqlari va farmoyishlari asosida) maktab sharoiti, muhiti va maktab jamoasining o'quv-tarbiyaviy tajribasi o'rganiladi va baholanadi. Bu bilan maktab sharoitini rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Shu ma'noda me'yoriy hujjatlar asosida boshlang'ich ta'limning barcha holati diagnostika qilinadi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning pedagogik diagnostikasida xalqaro ta'lim dasturlarini boshlang'ich ta'limga joriy etish tajribasi o'rganilib baholanadi. Bunda TIMSS, PIRLS va STEAM xalqaro ta'lim dasturlarida belgilangan o'quvchilarning tafakkur darajasi, savodxonlik holati, ijodiy yondashuvi, ijodkorlik ko'nikmasi va mustaqil faoliyatga tayyorgarlik masalalari o'rganiladi va baholanadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarining joriy etilishi va boshlang'ich ta'limni dunyo mamlakatlari boshlang'ich ta'lim tajribasi bilan rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunday yondashuv pedagogik diagnostika jarayonida xalqaro ta'lim dasturlaridan boshlang'ich ta'limda foydalanishning yangi metodikalarini ishlab chiqish imkoniyatini ham beradi. Chunki xalqaro ta'lim dasturlarida amaliyotdan nazariyaga tamoyili asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirgan bilimlarini o'z faoliyatlarida qo'llay olish ko'nikmasini tarkib toptirishga asosiy e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida ham mana shunday yondashuv tarkib topganligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilish ishini tashkil etishda muhim tayanchlar mavjud. Bu tayanchlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan majburiy (mutaxassislik) va tanlov fanlari vositasida chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshlang'ich ta'limni tashkil etishning diagnostikasi maxsus yondashishni hamda ular asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda ta'lim oluvchilar va

ta'lim beruvchilarning manfaatdorligi tamoyiliga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishda me'yoriy asoslarning birlamchi bo'lishi kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning pedagogik asoslari. Mamalkatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishning pedagogik asoslari mavjud bo'lib, ularning eng muhimlariga tayanish kutilgan samarani beradi. Bunda didaktik jarayonni tashkil etishda eng muhim pedagogik asoslarga tayanish lozim bo'ladi. Buning uchun quyidagi asoslarga tayanish muhim ahamiyatga ega:

- a) pedagogik tajribalar;
- b) pedagogik innovatsiyalar;
- v) pedagogik integratsiyalar.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishda pedagogik tajribalarga tayanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Unga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim bosqichining ta'lim, tarbiya va amaliyot bo'yicha tajribalari o'rganilib, ular asosida diagnostika jarayoni amalga oshiriladi. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, shahar hududlarida joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim bosqichida ta'lim berish bo'yicha o'ziga xos tajribalar mavjud, qishloq hududlaridagi boshlang'ich ta'lim bosqichlarida esa o'quvchilarni tarbiyalash borasida ustuvor tajribalar tashkil topgan va muayyan fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari tomonidan boshlang'ich ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha ommaviy tajribalar yuzaga kelgan. Shu ma'noda ta'lim jarayonini diagnostika qilishda shahar maktablari, tarbiya jarayonini diagnostika qilishda qishloq maktablari va o'quvchilarning amaliy ko'nikmasini diagnostika qilishda ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablari tajribasi asos qilib olinishi kutilgan samarani beradi. Natijada pedagogik diagnostika xulosalariga tayangan holda muayyan maktablarda ta'lim jarayonini, o'zgarlarida tarbiya jarayonini va ayrimlarida amaliyot ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha

tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bunday yondashuv pedagogik diagnostikada innovatsion xususiyatga ega ekanligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ishini pedagogik diagnostika qilishda pedagogik innovatsiyalarga asoslanish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Unga ko'ra, muayyan umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich ta'limidagi innovatsion vositalar, o'qituvchilarning innovatsion tajribasi, o'quvchilarning novatorlik ko'nikmasiga egaligi va ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish holati o'rganilib baholanadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvning amaliyot bilan bog'liqligi holati to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'linadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichini planshet, kompyuter, TV, ta'lim aloqa vositasi kabi axborot-kommunikatsion vositalar bilan zamonaviy darajada jihozlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu hol boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan oqilona foydalanish ko'lamini kengaytiradi. Shu sababli kelgusida boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishda pedagogik innovatsiya omiliga tayanish zamonaviylik va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirib borishda muhim o'rin tutadi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik innovatsiyalar bo'yicha ko'nikmasini kutilgan darajada tarkib toptirish taqozo etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari keyingi paytlarda integratsiya, ya'ni hududlardagi maktablar bilan ta'lim, tarbiya va amaliyot masalalari bo'yicha keng hamkorlikka asosiy e'tiborni qaratmoqda. Bunda ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining oliy pedagogik ta'lim muassasalariga birlashtirilganligi ham amaliy imkoniyatlarni berayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv fanlarining integratsiyasi, tarbiyaviy ishlarning hamkorlik shakllari, umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zga ta'lim muassasalari bilan hamkorlik samaradorligi, o'quvchilarning mamlakatdagi

o'z tengdoshlari bilan olimpiadalar vositasida hamkorligi darajasi va o'qituvchilarning o'zaro hamkorlik samardorligi masalalari o'rganilib baholanadi. Natijada bunday diagnostika jarayoni mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni hamkorlik tendensiyalari asosida rivojlantiruvchi yo'nalishlarni belgilab olish va ularni ommalashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik integratsiya muayyan tajribani ommalashtirish omili hisoblanadi. Shu sababli xorijiy mamlakatlar, jumladan, Finlandiya boshlang'ich ta'lim bosqichining professional va oliy ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mamlakatimizda ham bunday tajribalarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim didaktikasini pedagogik integratsiya asosida integratsiya qilish mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirishning strategik asoslarini ishlab chiqishda muhim imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik asoslarga binoan diagnostika qilish amaliyotga yo'naltirilganligi, maxsus yondashuvga asoslanishi va keng hamkorlik mexanizmiga tayanishi bilan diqqatni tortadi. Mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi zaruriyat bo'lib tuganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning metodologik asoslari. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida sifat o'zgarishlarini ta'minlash uchun pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda bu borada metodologik asoslarning eng muhimlarini belgilash amaliy ahamiyatga egadir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning metodologik asoslarining eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- a) individual yondashuv metodikasi;
- b) jamoaviy yondashuv metodikasi;
- v) tajribaviy yondashuv metodikasi.

Mazkur metodikalar keyingi 5-10 yil ichida pedagogik olimlar tomonidan idrok etildi. Unga ko'ra, individual

yondashuv metodlari muayyan o'qituvchilarning tajribadan o'tgan o'qitish shakllarining ilmiy asoslarga ega bo'lgan yondashuvlar majmuidir. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishda tajribali o'qituvchilarning o'qitish bo'yicha individual metodikasi asos qilib olinishi va shu mezon asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malaka darajasi diagnostika qilinishi kutilgan samarani beradi. Bunda tajribali o'qituvchilarning o'qitish bo'yicha individual metodikasida mavzuni tushuntirishdagi o'ziga xoslik, qulay va oson yo'l bilan o'quvchilarga tushuntirish, o'quvchilarning fanga qiziqishini kuchaytirish, o'quvchilarda fan to'garaklariga bo'lgan intilish holati va shu o'qituvchining faoliyat samaradorligi masalalari o'rganilib baholanadi. Buning natijasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tajribali o'qituvchilarning individual yondashuv metodikasi majmuiga ega bo'linadi va diagnostika xulosalari vositasida ularni ommalashtirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning bunday muhim omilidan oqilona foydalanish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari haftalik pedagogik amaliyot davrida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikasini o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik diagnostikani amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim bosqichi o'qituvchilarining jamoaviy yondashuv metodikasiga tayanish ham amaliy samaralarni beradi. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim metodik jamoasining faoliyati, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka darajasi, o'quvchilarning fan turkumlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limning keyingi bosqichi va turlariga tayyorlanish darajasi, boshlang'ich ta'limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganilib, baholanadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limning jamoaviy yutuqlari bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi va ulardagi kamchiliklar to'g'risida tasavvurga kelinadi. Bunday yondashuv pedagogik diagnostikaning mo'ljallarini aniq olish va u asosda

boshlang'ich ta'limda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning imkoniyatlarini hamda tarbiyaviy ishlarining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limning jamoaviy yutuqlari yoki kamchiliklarini muntazam o'rganib borish va bunda maktab birlashtirilgan oliy pedagogik ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari faolligidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Chunki jamoaviy yondashuv metodikasi pedagogik diagnostika jarayonida boshlang'ich ta'limdagi haqiqiy holatni aniqlash uchun eng muhim ma'lumotlarni taqdim etish omiliga ega. Shu ma'noda bu metodikadan foydalangan holda boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik diagnostika qilish asoslari bo'yicha ilmiy ishlanmalar yaratish dolzarb hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik diagnostika qilishda tajribaviy yondashuv metodiga tayanish keng imkoniyatlarni beradi. Bunday metodlarda hududlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim bosqichining hududiy tajribasi, boshlang'ich ta'lim bo'yicha mamlakat miqyosidagi tajriba va xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich ta'lim an'analari o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda tajribaviy yondashuv metodikasi asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik diagnostika qilishda boshlang'ich ta'limning hududlar kesimidagi tajribasi, mamlakat miqyosidagi tajriba samaradorligi va muayyan xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich ta'lim bo'yicha innovatsion tajribalari uyg'unlashtirilgan holda o'rganiladi va baholanadi. Bu metodika, asosan, qiyoslash tendensiyasiga tayanadi. Qiyosiy o'rganish natijasida hududlar, mamlakat va xorijiy mamlakatlar kesimida boshlang'ich ta'limning tajribaviy an'analari tahlil qilinib, ushbu ta'lim bosqichini rivojlantirishga yo'naltirilgan yo'nalishlar belgilab olinadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, tajribaviy yondashuv metodikasi asosida pedagogik diagnostikani o'tkazish xorijiy mamlakatlardan Rossiya Federatsiyasida keng qo'llaniladi. Chunki mazkur mamlakat mingdan ortiq yondashuvlarga asoslangan boshlang'ich ta'lim tizimiga ega. Shu ma'noda

mamlakatimizda tajribaviy yondashuv metodikasi asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik diagnostika qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishning metodologik asoslari muhim xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim diagnostikasini tashkil etishning metodologik asoslari o'ziga xos metodlarga tayanadi. Mazkur metodologik asoslar o'zlashtirilishi, ular bo'yicha yangi metodikalar ishlab chiqilishi ilmiy ishlanmalar yaratishni taqozo etadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning qonuniy asoslarini nimalar tashkil etadi?
2. Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning pedagogik asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning metodologik asoslari qanday xususiyatlarga ega?
4. Boshlang'ich ta'lim didaktikasini tashkil etishning me'yoriy asoslarini o'zlashtiring va konspekt qiling.

Ikkinchi modul bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021
2. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
3. Тожибоева Г. Методика воспитательных работ в начальной школе. – Чирчик, 2022

3-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA METODOLOGIYASI

9-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi texnologiyalari

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining elektron-resursli texnologiyasi.
2. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining masofaviy ta'lim texnologiyasi.
3. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining raqamli texnologiyasi.


Tayanch tushunchalar: pedagogik diagnostika, boshlang'ich ta'lim, metod va texnologiya, masofaviy texnologiya, elektron-resursli texnologiya, raqamli texnologiya, bilim, malaka.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining elektron-resursli texnologiyasi. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning o'ziga xos texnologiyalari mavjud. Ana shunday texnologiyalardan biri elektron-resursli texnologiyadir.

Elektron-resursli texnologiya kompyuterli dastur asosida tayyorlanadi. Bu borada pedagog olimlarimizning o'ziga xos tadqiqotlari mavjud bo'lib, ulardan birini e'tiboringizga taqdim etamiz.⁹

“Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi elektron-resursli texnologiyalari”

⁹ Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021



Mavzu: **“Boshlang‘ich ta‘lim diagnostikasi elektron-resursli texnologiyalari”** mavzusining mashg‘ulot ISHLANMASI

Ushbu amaliy mashg‘ulot bilan tanishish uchun ro‘yxatdan o‘tishingiz lozim!

Familiyangiz: Anarboyeva

Ismingiz: Adiba

Sharifingiz: Odiljon qizi

1-sahifa. TA'LIM JARAYONI "FORMULA"SI

Ta'lim jarayoni formulasi deganda mavzuni o'granishning kalitli tushunchalari, matnlari va vositalarini tushunamiz. Bu bilan mavzuni o'zlashtirishdagi asosiy tushunchalarga ega bo'lamiz.

$$J = Pd + T + Bkm$$

J Jarayon

Pd Pedagogik diagnostika


T Texnologiya

Bkm Bilim, ko'nikma, malaka

Keyingi topshiriqqa o'tish

Keys topshirig'i: "Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi texnologiyalari bo'yicha ishlanma tayyorlash"

Quyidagi chizmalarni raqamlar bilan belgilangan tushunchalar asosida to'ldiramiz va bu bilan diagnostika tushunchasiga ega bo'lamiz.



Chizmada aks ettirilishi lozim bo'lgan jumlar: 1. Diagnostika. 2. Mazmun. 3. Metodik ko'nikma. 4. O'rganish. 5. O'zlashtirish. 6. Mustaqil ta'lim mashg'uloti. 7. Metod. 8. Vosita

• Kiritilayotgan so'z yoki jumlaning faqat raqamini kiriting!

Keyingi topshiriqqa o'tish

IJODIY TEST TOPSHIRIG'I

1. Gapni tugallang:

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining elektron-resursli texnologiyasi quyidagilarga

2. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying:

Elektron-resursli texnologiyasi

ko'nikma va malakasining tarkibi hisoblanadi.

3. Gapni tugallang: Elektron-resursli texnologiya pedagogik diagnostikada

muhim o'rintutadi

4. Nuqtalar o'rniga kerakli jumlani topib qo'ying:

elektron-resursli texnologiya

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi asoslaridan biri va ijodiy layoqatning negizi sifatida qabul qilinadi.

5. Gapni tugallang:

Elektron-resursli texnologiya kompyuterli dastur asosida tayyorlanadigan metodikalardan

biridir.

6. Gapni tugallang (mashg'ulot)

O'quv dasturi va o'qitish maqsadiga mos holda elektron-resursli texnologiyadan foydalanish ta'lim jarayonini rivojlantirish

asosidir.

Amaliy mashg'ulot: (qiziqish)

Elektron-resursli texnologiya o'quvchilarni qiziqtiruvchi o'qitishning

muhim

vositasidir.

Keyingi topshiriqqa o'tish

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining elektron-resursli texnologiyadan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish bo'yicha topshiriqlar

1) Pedagogik diagnostikaning elektron-resursli texnologiyasi bo'yicha topshiriqlar.

1.1. Quyidagilar orasidan mustaqil ta'limga doir xususiyatlarni aniqlang:

- maqsadlilik va rejalilik;
- joylarda amalga oshirish;
- kompyuterli dastur;
- qo'shimcha ta'lim;

- maxsus kurs.

1.2. Quyidagi qonuniyatlarni elektron-resursli texnologiyaning tarkibiy qismiga tegishli deb hisoblaysizmi?




- 1) layoqat va qobiliyat;
- 2) idrok va xotira;
- 3) texnik vosita;
- 4) barcha javoblar to'g'ri.





1.3. Elektron-resursli texnologiyadan foydalanishning samaradorligiga quyidagilarning ijobiy ta'siri mavjudmi?

- mustaqil mashg'ulotlar;
- mashg'ulotning ichki rag'batlariga;
- mashg'ulot maqsadiga;
- o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga;
- ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga;
- barcha javoblar to'g'ri.

1.4. Elektron-resursli texnologiyadan foydalanishga doir topshiriqlar.

Quyidagi fikrlar bilan tanishing va ularning elektron-resursli texnologiyadan foydalanishning qaysi xususiy (tashkiliy, sotsiologik, psixologik, kibernetik, gnoseologik) qonuniyatiga tegishli ekanligini aniqlang:

1. Elektron-resursli texnologiya dars jarayoni va tarbiyaviy tadbirlarni kuchaytirishga xizmat qiluvchi tashkiliy tuzilma hisoblanadi.		<input type="text" value="..."/>
2. Elektron-resursli texnologiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi.		<input type="text" value="..."/>
3. Elektron-resursli texnologiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompyuterli dastur asosida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.		<input type="text" value="..."/>

4. Elektron-resursli texnologiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-texnik vositalardan malakali foydalanish bilan qurollantiradi.		
5. Elektron-resursli texnologiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim vositasida kasbiy tayyorgarlikka ko'nikishga yo'naltiradi.		

Topshiriqlar ijrosini kompyuterli dastur asosida baholash

Mazkur topshiriqlarning javoblari to'g'ri belgilangan taqdirda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining elektron-modulli texnologiya bo'yicha kompetensiyalari rivojlanganligi va uning darajasi aniqlanadi. Bunda o'qitishning kredit-modul tizimi asosida kredit o'lchovi bo'yicha baholanadi.

E'tibor berilsa, bu texnologiya ta'lim berishning sifat ko'rsatkichlarga erishishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida elektron-modulli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining elektron-modulli texnologiya bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish ishlari amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tish joiz. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limda elektron-modulli texnologiyadan foydalanishning metodikasini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Buning uchun pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning tavsiyalariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.¹⁰

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining masofaviy ta'lim texnologiyasi. Boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishda masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda masofadan turib mamlakatimizning

¹⁰ Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent, 2007

eng chekka hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim jarayoni diagnostika qilinadi. Shu sababli bu o'rinda masofaviy ta'lim texnologiyasining eng muhim xususiyatlariga e'tiboringizni tortamiz.¹¹ Masofaviy o'qitish zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora ommaviylashayotgan shaklidir. Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonida qulay sharoitni vujudga keltirdi. Bunday o'qitish elementlarining ta'lim muassasalarida joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida o'qitishning bu turini takomillashtirish uchun barcha shart-sharoit mavjud. Shu nuqtai nazardan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-sonli qarori bilan 2022-2023 o'quv yilidan boshlab OTMlarda masofaviy ta'lim shaklini tashkil etish tartibi belgilandi. Mazkur tartibga muvofiq, masofaviy ta'limni boshqarish uchun Learning management system platformasi, internetga ulanish va foydalanish uchun axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, o'quv kontenti, fanlarning elektron o'quv-metodik majmualari hamda ilmiy va o'quv adabiyotlarining elektron bazasi, ta'lim tashkiloti to'g'risidagi barcha axborotlar joylashtirilgan rasmiy veb-sahifa bo'lishi kabi talablar qo'yildi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hisobiga kadrlarning sifatini yaxshilash imkoniyati kengayib bormoqda. Onlayn yoki masofaviy ta'lim deganda, negadir yurtimiz aholisining aksariyat qismi pandemiya sababli joriy etilgan ta'lim turini tushunadi. Lekin masofaviy ta'lim pandemiyaga qadar ham xorijiy davlatlarda ta'limning zamonaviy turi sifatida qo'llanib kelingan. Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi tayyorlagan "Distancye education in European higher education" hisobotiga ko'ra, Yevropada faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarining 53 foizida allaqachon masofaviy ta'lim shakli yo'lga qo'yilgan.

AQShda pandemiya sababli joriy etilgan karantin sharoitida o'quvchilar onlayn ta'limda turli dastur va

¹¹ Sharipov J. Masofaviy ta'lim. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 5-sentyabr soni.

platformalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Nyu-York ta'lim departamenti o'z veb sahifasida "Learn at home" (uyda o'qi) ruknini ochdi. Mazkur ruknda uyga vazifalar barcha fanlar bo'yicha o'quv materiallari va boshqa foydali platformalar havolalari joylashtirilgan. Ta'lim statistikasi milliy markazi ma'lumotlariga ko'ra, AQSh aholisining qariyb yarmi masofaviy o'qitishga bazaviy oliy ta'lim shakli sifatida qaraydi. Bugun masofaviy ta'lim shakli bo'yicha qabul parametrlari belgilangan davlat oliy ta'lim muassasalariga masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda qator muammo va kamchiliklar mavjud. Birinchidan, aksariyat oliy ta'lim muassasalari tomonidan masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish uchun foydalanadigan va ta'lim jarayonining asosiy vositasi hisoblangan Moodle platformasiga elektron o'quv adabiyotlar va video darsliklarni joylashtirish imkoni yo'q yoki hajmi cheklangan. Natijada o'quv adabiyotlari, kontentlar va boshqa materiallar talabalarga himoyalangan telegram va yutub kanallari orqali yetkazilmoqda. Mazkur platforma karonavirus pandemiyasi davrida onlayn ta'limni tashkil etish uchun yagona yechim bo'lsa-da, bugun dolzarb hisoblangan asinxron masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish talablariga to'liq javob bermaydi. Bu talablar o'zlashtirish sur'atining pasayishiga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-sonli Qarori bilan masofaviy ta'lim tashkil etish uchun o'quv muassasasida o'qitish jarayonini rejalashtirish, boshqarish, amalga oshirish va baholash uchun Learning management system platformasining Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta'lim muassasalari pedagog xodimlar ta'lim oluvchilar va boshqa axborotlar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi axborot tizimiga integratsiya qilinishi majburiyati bugunga qadar bajarilmagan. Tizim hamon yo'lga qo'yilmagan. Uchinchidan, professor-o'qituvchilarning masofaviy ta'lim shakli bo'yicha o'quv kontentlar tayyorlash bilan bog'liq ish hajmi va o'quv yuklamasini aniqlashning muayyan mexanizmi mavjud emas. Shu bois professor-o'qituvchilarning ish haqqini hisoblash yoki moddiy rag'batlantirish bo'yicha tizim yo'lga

qo'yilmagan. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka muvofiq masofaviy ta'limda bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar sonining 1:50 nisbatda cheklanishi ham professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quv yuklamasi hajmining keskin oshishi va natijada ta'lim jarayoni sifatining yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. To'rtinchidan, oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomning 12-moddasiga asosan masofaviy ta'lim shakliga talabalarni qabul qilish, o'qishni ko'chirish va qayta tiklash boshqa ta'lim shakllari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Biroq, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomda masofaviy ta'limga xos muammolar inobatga olinmagan. Tegishli o'zgartirishlar esa hanuzgacha kiritilmagan. Bu oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim shaklini belgilangan tartibda tashkil etishda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar va imtihon jarayonida talabalar shaxsini avtomatik autentifikatsiyalash, xatti-harakati va nigohi yo'nalishini nazorat qilish, xonadagi tovushlar tahlili, videodagi buzilishlarni tuzatish va hisobotlar tayyorlashga yo'naltirilgan avtoproektor dasturiy tizimining yo'lga qo'yilmaganligi davomat va o'zlashtirishni nazorat qilishga imkon bermaydi. Oltinchidan, an'anaviy ta'limga qaraganda masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish kamxarj bo'lishi, jumladan, o'quv va turar joy binolarini saqlash, kommunal xizmatlardan foydalanish, texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini saqlash. O'quv adabiyotlarini chop etish va boshqa an'anaviy ta'limga xos xarajatlar yo'qligi o'qitish xizmatining tannarxini pasaytiradi. Shunga qaramay Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan to'lov kontrakt miqdori an'anaviy ta'lim shakliga nisbatan yuqori etib belgilangan. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish mazkur jarayonda ilg'or texnologiyalar va xorijiy tajribani amaliyotga joriy qilish hamda taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarni sifatli

amalga oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1) yoshlarning masofaviy ta'limga qiziqishi yil sayin oshib borishi mazkur jarayonda ta'lim sifatini ta'minlash uchun oraliq hamda yakuniy nazorat ishlarini masofadan turib kuzatib borish (avtoproektor) talab etiladi. Shuni inobatga olgan holda xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, oraliq va yakuniy nazorat ishlarini tashkil etish jarayonida talabning biometrik ma'lumotlarga asosan shaxsini mustaqil aniqlaydigan, xatti-harakatini nazorat qiladigan, xonadagi tovushlarni tahlil qilib boradigan, imtihon jarayonida qoidabuzarliklarni kuzatadigan va qayd etadigan zamonaviy avtoproektor tizimini amaliyotga joriy etish;

2) talabalar bilimni inson omili aralashuvisiz baholash va korrupsiyaviy holatlarni bartaraf qilish maqsadida kelgusida mazkur tizimni oliy ta'limning kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlarida to'liq joriy etish masalasini o'rganib chiqish;

3) cheklovlarsiz o'quv adabiyotlar, videodarsliklar, amaliy mashg'ulotlar va boshqa o'quv kontentlarni joylashtirish talabalarning mazkur o'quv kontentlaridan foydalanishini monitoring qilish imkoniga ega maxsus platformani oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga tadbiiq etish zarur. Shuningdek, Learning management system talablaridan kelib chiqib, mazkur platformani Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta'lim muassasalari pedagog-xodimlar, ta'lim oluvchilar va boshqa axborotlar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi axborot tizimiga integratsiya qilish bo'yicha tezkor choralar ko'rish;

4) masofaviy ta'limning jozibadorligini oshirish uchun o'quv jarayonida interfaol mashg'ulotlar jumladan, turli multimedia, animatsiya, vertual laboratoriyalardan foydalanish ko'lamini oshirish hamda mazkur jarayonlarni tashkil etish uchun professor-o'qituvchilar malakasini muttasil oshirish;

5) masofaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining sifatini oshirish hamda unga malakali kadrlarni jalb qilish maqsadida o'quv amaliy mashg'ulotlar uchun multimedia, animatsiya, vizual va ko'rgazmali materiallarni o'z ichiga olgan elektron-o'quv kontentlarni yaratish bo'yicha professor-o'qituvchilar

faoliyatini rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

6) masofaviy ta'limning to'lov kontrakt miqdorini aniqlash bo'yicha xorijiy tajribani chuqur o'rganish va oliy ta'lim muassasalarining real xarajatidan kelib chiqib, masofaviy ta'limning to'lov kontrakt miqdorini belgilash tizimiga o'tish. Bugungi O'zbekistonda masofaviy ta'limda belgilangan to'lov kontrakt pulining eng kam miqdori aholi jon boshiga hisoblaganda yarmiga nisbatan 30,8 foizni tashkil etsa, ushbu ko'rsatkich Germaniya, Fransiya, Avstriya, Italiya Ispaniya va Chexiya kabi yevropa davlatlarida 4-8 foizdan oshmaydi. O'z navbatida real ta'lim xizmati narxining belgilanishi kelgusida mamlakatda o'qitish xizmatlari eksportining oshishiga imkon yaratadi.

E'tibor berilsa, masofaviy ta'lim texnologiyasi asosida pedagogik diagnostikani amalga oshirish qulayligi, tezkorligi va amaliy natijalarga boyligi bilan kutilgan samarani beradi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Buyuk Britaniyada masofaviy ta'lim texnologiyasi asosida ta'lim va tarbiya jarayonini pedagogik diagnostika qilish ustuvor darajada amalga oshiriladi. Buning asosiy sababi diagnostika jarayonida inson omilining susayishidir. Shu sababli masofaviy ta'lim texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilish metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasida tarkibiy qism sifatida shakllantirilishi lozim. Chunki kelgusida boshlang'ich ta'lim jarayonini raqamli texnologiya asosida tashkil etish va boshqarish islohotlari mo'ljallanmoqda.¹² Eslatib o'tish joizki, masofaviy ta'lim texnologiyasi o'zlashtirish jarayonini muntazam kuzatib borish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli keyingi paytlarda raqamli texnologiya talablariga binoan ta'lim tizimida masofaviy ta'lim texnologiyasi masalasiga ustuvor darajada qaralmoqda.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining raqamli texnologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹² "O'zbekiston - 2023" strategiyasi. // www.ziynet.uz

2019-yil 21-yanvardagi PF-0404-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030: raqamli texnologiya konsepsiyasi”da mamlakatda 2030-yilga qadar barcha sohalar raqamlashtirilishi va raqamli texnologiya asosida boshqarilishi vazifalari qo‘yilgan. Shu jihatdan ta‘lim tizimida ham raqamli texnologiyani qo‘llashga oid dasturiy yondashuvlar belgilangan bo‘lib, bugungi kunda ular “2022-2026 yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish Milliy dasturi”da o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan bu o‘rinda raqamli texnologiya mazmunining xususiyatlariga e‘tiboringizni tortamiz.

“Raqamli texnologiya” – bu Matematika va Informatika o‘quv fanlari asosiga tayangan holda ishlab chiqilgan, bilim va ko‘nikmalarni raqamlashtirish asosida ifodalanadigan o‘qitish shaklidir.¹³ Shu jihatdan raqamlashtirish asosida bilim asoslari, o‘qitish metodlariva o‘zlashtirish amaliyotimazkur texnologiyada muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, mazkur texnologiyaning eng muhim ko‘rinishi inson aqliy imkoniyatlarini raqamlashtirilgan holda qabul qilingan shaklini eslatib o‘tish joiz. Unga ko‘ra, quyidagi formuladan foydalaniladi: kishining insoniyligi uning to‘plagan bilimiga to‘g‘ri proporsional va yig‘ib qo‘ygan moddiy boyliklariga teskari proporsionaldir. Buni shunday tushunish kerak: insonning ma‘naviy boyligi, uning moddiy boyligidan miqdor va sifat jihatidan ko‘p bo‘ladi. Mazkur tushunchani ifodalash uchun pedagog olimlar quyidagi matematik belgilar va raqamlardan foydalanganlar:

$$K_i^D = \frac{\sum_{i=1}^n B(M_B)}{\sum_{i=1}^n B(M_{g \bullet B})}$$

Bu yerda:

K_i^D – insoniylik darajasi ko‘rsatkichi.

$\sum_{i=1}^n B(M_B)$ – kishining to‘plagan bilimlar yig‘indisi, ya‘ni

¹³ Xamzayev X. Raqamli texnologiya mazmuni // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Jizzax, 2020.

ma'naviy boyligi;

$$\sum_{i=1}^n B(M_{g \cdot B}) - \text{kishining mavjud moddiy boyligi.}$$

Ushbu formula inson kamoloti bosqichlariga qarab uning bilim darajasi har xil rivojlanishda bo'lishi imkonini beradi. E'tibor bering: agar mazkur formula asosida insonning bilim darajasiga ko'ra uning kamolot bosqichlari aniqlansa, quyidagi natija kelib chiqadi:

1) 17-21 yoshlarda insonning bilimi va ko'nikmalari to'liq rivojlanadi;

2) 25-40 yoshlar oralig'ida insonning bilimi va ko'nikmalari tajribadan o'tadi;

3) 40-60 yoshlar oralig'ida insonning bilim va ko'nikmalari hayotiy tajriba ko'rinishini oladi;

4) 60 yoshdan keyin insonning bilim va ko'nikmalari intellektual salohiyat darajasiga yetadi.¹⁴

E'tibor berilsa, mazkur formula asosidagi so'nggi bosqich, ya'ni insonning 60 yoshdan keyingi bilim va ko'nikmalari intellektual salohiyat darajasiga yetishi, xalqimizning "Qari bilganini – pari bilmas" hikmatini eslatadi. Buning asoslari shundan iboratki, ushbu formulani shakllantirishda Yevropalik pedagog olimlar vatandosh mutafakkirimiz Muso Al-Xorazmiyning "Algebra va anliz asoslari" (Algoritm) asaridan foydalanishgan. Shu ma'noda milliy pedagogikamiz uchun raqamli texnologiya u qadar mutlaqo yangi hodisa emas. Chunki raqamli texnologiyaning dastlabki elementlari mutafakkir matematiklarimiz asarlarida bayon qilib o'tilganligini eslatib o'tish joiz.¹⁵

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiya Matematika va Informatika fanlarining raqamlari va belgilari asosida ishlab chiqilganligiga e'tibor berish kerak. Bundan maqsad fikrni kodlashtirilgan tarzda ifoda etishdir. Chunki

¹⁴ Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009. 219-220 betlar

¹⁵ Qarang: Сартон П. Великий мислители математики Средней Азии. – Москва, 1999

iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarida ayrim milliy sirlarni saqlash uchun raqamli texnologiya asoslaridan foydalaniladi va ularda ifodalangan fikr faqat mutaxassislarga ma'lum bo'ladi. Shu ma'noda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyaning dastlabki elementlari bilan o'quvchilarni tanishtirish "O'zbekistonda innovatsion rivojlanish konsepsiyasi"ning vazifalaridan birini tashkil etadi. Buning yorqin misoli sifatida 2023-2024 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflarga Informatika o'quv fanining kiritilganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda bu o'quv fani boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli texnologiyalarning belgilari, formulalari, uning yechimlari va asoslari bilan tanishtiradi. Mazkur jarayon oliy pedagogik ta'lim jarayonida raqamli texnologiya mazmunini o'zlashtirishga asosiy e'tiborni qaratishni taqozo qiladi.

Raqamli texnologiyaning kompyuterli dastur asosida ishlab chiqilishi XX asrning 90-yillariga to'g'ri keladi. Bunda maxsus dastur asosida ta'lim jarayonini rivojlantirishga qaratilgan raqamlar va belgilarga asoslangan innovatsion rivojlanish texnologiyasi shakllantirilganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda raqamli innovatsion texnologiyaning asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

a) o'quvchilarga beriladigan bilimlarning raqamlashtirilishi;

b) o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'rsatkichlarining raqamlashtirilishi;

v) mamlakat miqyosida o'quvchilarning bilim va o'zlashtirish ko'rsatkichlarining umumiy monitoringini yuritish.

Bugungi kunda "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturi" ijrosi jarayonida ta'lim jarayonini raqamlashtirish vazifalari amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda bu borada YUNESKO ko'magida boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqilib, ularda beriladigan bilim va ko'nikmalar raqamlashtirilgan. Misol uchun, 1-4 sinflarda o'qitishning quyidagi 2 raqamlashtirilgan belgisi amaliyotga joriy etilmoqda:

1 K – kommunikatsiya, ya’ni boshlang’ich sinf o’quvchilarida amaliy bilimlar majmuini tarkib toptirish;

2 K – kreativlik, ya’ni boshlang’ich sinf o’quvchilarida ijodiy fikrlash ko’nikmasini tarkib toptirish.

Boshlang’ich sinflarda o’qitilayotgan aniq, tabiiy va gumanitar fanlarning o’quv materiallari va amaliy topshiriqlari anashunday belgilar asosida elektron variantli o’quv adabiyotlarida ifodalanadi. Unda asosiy e’tibor o’quvchilarning amaliy bilimlarini tarkib toptirish va ularning o’zlashtirgan bilimlari asosida ijodiy fikrlashini shakllantirishga qaratiladi. Bunda “amaliy bilimlar” deganda o’quv fanlari bo’yicha eng asosiy tushunchalarni o’zlashtirish va “ijodiy fikrlash” deganda esa amaliy bilimlar asosida yangicha fikr, g’oya va yondashuvlarni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi nazarda tutiladi.

Savol tug’iladi: o’qitish asoslarining bunday raqamlashtirilishidan maqsad nima? Asosiy maqsad hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda maktab ta’limi samaradorligini raqamli texnologiyalar monitoringi asosida kuzatib borish va boshqarishdan iborat. Shu ma’noda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining bunday raqamli texnologiyalar asoslaridan xabardor bo’lishi kelgusida ularning jamiyat talablari asosida kasbiy faoliyat yuritishiga asos bo’ladi.

Mamlakatimiz boshlang’ich ta’lim jarayonida 2023-2024 o’quv yilidan boshlab boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning o’zlashtirish darajasi ko’rsatkichlarini quyidagi 2 belgi asosida ifodalash qabul qilinganligini eslatib o’tish joiz:

1 K – kollabaratsiya, ya’ni boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’zlashtirish jarayonida jamoa bilan munosabatga kirisha olishi ko’nikmasini tarkib toptirish;

2 K – kriticizm, ya’ni boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’zlashtirish ko’rsatkichlarida tanqidiy munosabatning mavjudligini tarkib toptirish.

Boshlang’ich sinflarda o’qitilayotgan aniq-tabiiy va gumanitar fanlar turkumlarining samaradorlik darajasini baholashda ana shu raqamli belgilardan foydalanish amaliyotga

joriy etilmoqda. Unga ko'ra, o'quvchilarning kollabaratsiya, ya'ni ularning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishida o'zlari mansub bo'lgan jamoa bilan munosabatga kirishish ko'nikmasini tarkib toptirishga asosiy e'tibor qaratiladi. O'zgacha aytganda, bunda har bir o'quvchi muayyan bilim asoslarini yoki ko'nikmalarini o'zlashtirishda sinfdoshlarining ishtirokiga tayanadi. Bu an'anaviy o'qitish metodikasidagi guruhli ishlash metodiga mos keladi. Aynipaytda, bu o'rinda eslatib o'tish joizki, o'quvchilarning jamoa bo'lib bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishida ularning o'z faoliyatiga tayaniladi hamda bunda o'qituvchi ishtirok etmaydi. O'qituvchining asosiy vazifasi muayyan mavzular bo'yicha o'quv materiallarini taqdim etishdan iborat bo'ladi. Bu o'quv materiallari o'quvchilar jamoasi tomonidan tahlil qilinib, jamoaviy tarzda o'zlashtiriladi. Bu lotincha "kolaratsiya", ya'ni jamoaviylik tushunchasining mazmunidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarida tanqidiy munosabatning mavjudligi ushbu raqamli texnologiyaning innovatsion xususiyatlaridan biridir. Buning ma'nosi shuki, o'quvchi har bir mavzuda va o'zlashtirayotgan ma'lumotlariga tanqidiy nuqtai nazardan munosabatda bo'lish ko'nikmasini egallashi kerak. Tanqidiy munosabat muayyan ma'lumotlarni eng to'g'ri va mutlaq ma'lumotlar sifatida qabul qilmaslikni hamda o'quvchining o'z fikriga ega bo'lishini anglatadi. Shu sababli bu ma'no lotincha "kritisizm" tushunchasining mazmunini ifodalaydi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash va yondashuvni tarkib toptirish bilan ularning mustaqil fikrga ega bo'lishiga erishish mumkin.

Shu tariqa boshlang'ich sinflarda joriy etilayotgan mazkur raqamli texnologiyaning mazmunini quyidagicha tushunib olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) 1 K – kommunikatsiya: amaliy bilim;
- 2) 2 K – kreativlik: ijodiy yondashuv;
- 3) 3 K – kollabaratsiya: jamoaviy o'zlashtirish;
- 4) 4 K – kretisizm: tanqidiy munosabat.

Mazkur milliy raqamli texnologiyani idrok etish uchun

ana shu 4 K belgili kodga, ya'ni amaliy bilim, ijodiy yondashuv, jamoaviy o'zlashtirish va tanqidiy munosabatni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib toptirish boshlang'ich ta'limning *yangi metodikasi* sifatida taqdim qilinmoqda.

Bunday raqamli texnologiyaning mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayoniga tadbiriq etilayotganligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini markazlashgan raqamli reystrlar asosida boshqarishdan iborat. Unga ko'ra, yagona Raqamli kompyuterli texnologiya asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarish mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ham yagonalashtirilgan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishiga erishiladi. Shu sababli 2023-2024 o'quv yilidan boshlab mazkur Raqamli ta'lim boshqaruvi dasturlari mamlakat miqyosida amaliyotga joriy etilmoqda. Bevosita boshlang'ich ta'lim boshqaruviga oid raqamli ishlarni Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligining Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida mamlakatimizda shakllantirilayotgan raqamli texnologiyalarning asoslarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, raqamli texnologiya ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning tezkor imkoniyatlarini taqdim qiladi. Buning natijasida o'rinsiz qog'ozbozlik yoki byurokratik to'siqlarning bartaraf etilishiga erishiladi. Eng asosiysi, boshlang'ich ta'lim berish va uni boshqarishda inson omilining salbiy ta'siri susaytiriladi. Shu sababali mazkur texnologiyaga keyingi paytlarda butun dunyo mamlakatlari bo'yicha asosiy e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilgan ushbu yangi texnologiya Singapur, AQSH, Angliya, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Gongkong mamlakatlarining tajribalari hisobga olingan holda hamda unga milliy yondashuvlarning moslashtirilishi natijasida ishlab chiqilganligini eslatib o'tish joiz.

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli

innovatsion texnologiyadan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu metodikaning eng muhim yo'nalishlarini quyidagilar tashkil etadi:

a) oliy pedagogik ta'lim jarayonida raqamli texnologiya asoslarini kasbiy jihatdan chuqur o'zlashtirish;

b) amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli texnologiyalar asoslari bilan qurollantirish;

v) umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Raqamli texnologiya" maktab-laboratoriyalarini tashkil qilish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli texnologiyalar asoslarini chuqur o'zlashtirishi metodik jihatdan dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun masalan, "Pedagogik mahorat", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya", "Boshlang'ich ta'limda matematika" va "Umumiy pedagogika" o'quv fanlari vositasida raqamli texnologiyalar asoslarini talabalarga taqdim etish muhim ahamiyatga egadir. Ayni paytda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli texnologiyalarni mustaqil ta'lim vositasida o'rganishi va o'zlashtirishi kutilgan samarani beradi. Bunda asosiy e'tibor raqamli texnologiyalarning innovatsion xususiyatlarga egaligi, ularning asoslari qunt bilan o'rganilishi va boshlang'ich sinflarda ulardan foydalanish omillarining o'zlashtirilishiga qaratilishi kerak bo'ladi. Shu sababli bu borada "Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar" maxsus kursini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday kursda asosiy e'tiborni boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalardan foydalanish asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan talabalarni qurollantirishga qaratilishi lozim.

Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli texnologiyalar asoslari bilan kasbiy jihatdan muntazam tanishtirib borilishi ham metodik dolzarb masalalardan biridir. Muntazam ravishda tanishtirib borishdan maqsad mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish asoslari ishlab chiqilmoqda va tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Misol uchun, yuqorida bayon

qilingan Milliy dastur asosidagi 4 K raqamli texnologiyasi 2023-2024 o'quv yilidan boshlab mamlakatimizning 124 umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba-sinovdan o'tkazildi. Shu sababli amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli texnologiyalar asoslari bilan muntazam tanishtirib borish ishi Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Raqamli texnologiya" maktab-laboratoriyalarini tashkil etish ham muhim metodikalardan biridir. Bunday maktab-laboratoriya mashg'ulotlarini muntazam tashkil etib borish va unda raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarining ishtirokini ta'minlash boshlang'ich ta'limda mazkur innovatsion texnologiyadan foydalanishning muhim amaliy asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu borada mamlakatimizning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari hududlardagi oliy pedagogik ta'lim muassasalariga birlashtirilganligi tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur oliy pedagogik ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va mutaxassislari boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish asoslari bo'yicha maktab-laboratoriya mashg'ulotlarining o'tkazilishi kutilgan samarani beradi. Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagogik va psixologik qonuniyatlarga asoslangan metodikaga tayanish imkoniyatlarini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda raqamli innovatsion texnologiyadan foydalanish muhim xususiyatlarga ega. Shu sababli mazkur texnologiyani o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zaruriyat hisoblanadi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli inovatsion texnologiyasidan foydalanishning asoslari va metodikasini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada asosiy e'tiborni individual yondashuv asosidagi mustaqil

ta'limga qaratish maqsadga muvofiqdir.

Diqqat qilinsa, raqamli texnologiya asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishni pedagogik diagnostika qilish ma'lumotlarning boyligi, mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni joriy etish kabi masalalarda kengimkoniyatlarni beradi. Keyingi paytlarda ta'lim tizimini raqamlashtirish masalasi davlat ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari raqamli texnologiya asosida ta'lim jarayonini diagnostika qilishning metodikasini o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim diagnostikasining zamonaviy texnologiyalari asosan o'quv-texnik vositalarga tayangan holda ishlab chiqilgan o'qitish metodikalariga tayanadi. Bunda o'quv-texnik vositalardan ta'lim jarayonida foydalanish, ta'lim oluvchilarning ta'lim-texnik ko'nikmasini shakllantirish va ma'lumotlarni ishlash texnologiyasi bo'yicha malakasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega ekanligini eslatib o'tish joiz.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining elektron-resursli texnologiyasi asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining masofaviy ta'lim texnologiyasi xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining raqamli texnologiyasi negizlarini qanday vositalar tashkil qiladi?
4. Boshlang'ich ta'lim elektron-resursli texnologiyasi asosida diagnostika qilish metodikasini o'zlashtiring va uni haftalik pedagogik amaliyot davrida tajribadan o'tkazing.

10-mavzu: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi diagnostikasi

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim muhiti diagnostikasi.
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasi diagnostikasi.
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahorati diagnostikasi.

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich ta'lim, pedagogik diagnostika, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ta'lim muhiti, kasbiy malaka, individual mahorat.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim muhiti diagnostikasi. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lini rivojlantirish uchun pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik diagnostika qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun eng avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yaratilgan ta'lim muhitini pedagogik diagnostika qilish lozim bo'ladi.

“XXI asr malakasi” talablariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun quyidagi to'rt shart asosida ta'lim muhiti yaratilishi kerak:

- 1) kommunikativlik;
- 2) jamoa bo'lib ishlash;
- 3) ijodiy fikrlash;
- 4) tanqidiy yondashuv.¹⁶

Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchilar uchun kommunikativlik, ya'ni munosib shart-sharoit yaratib berish asosiy masala hisoblanadi. Bunda pedagogik diagnostika jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ta'limni amalga oshirishga doir

¹⁶ “XXI asr malakasi” // www.google.uz

texnologik sharoit o'rganiladi va baholanadi. Buning uchun muhim asoslardan biri shundaki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2023-2024 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim planshetlari bilan bepul ta'minlash va umumiy o'rta ta'lim maktablarining kompyuter o'quv-texnik vositalarini zamonaviylashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlar boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar asosida ta'lim va tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu ma'noda pedagogik diagnostika jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun tashkil etilgan ta'lim muhitining texnik jihozlanishi, ulardan foydalanishning qulayligi va ularda zamonaviy raqamli texnologiyalarning mavjudligi masalalari o'rganiladi. Ta'lim muhitini pedagogik diagnostika qilish natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun yaratilgan kommunikativlik, ya'ni real sharoit o'rganiladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayoni va uning samaradorligi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining holatini diagnostika qilishda ularning jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari ham o'rganiladi. Bunda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi, hamkorlik natijalari, tajriba ayriboshlash va individual metodikaga ega bo'lish masalalari diagnostika qilinadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jamoa bo'lib ishlash tajribalari bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi. Eslatib o'tish joizki, jamoa bo'lib ishlash natijasida har bir o'qituvchining mahorati to'liq namoyon bo'ladi. Davlat rahbarining tashabbusiga binoan 2023-2024 o'quv yilidan boshlab maktabda faoliyat yuritish uchun kelgan yosh o'qituvchilar bir o'quv yili davomida stajyor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur toifa o'qituvchilar uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajribali o'qituvchilarga biriktirib qo'yilishi ularning jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini tarkib toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda

keyingi paytlarda nafaqa yoshidagi tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan oqilona foydalanish an'anasi tarkib topdi. Shu jihatdan bunday toifadagi o'qituvchilarni boshlang'ich ta'limda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish bo'yicha mas'ul shaxslar sifatida belgilab qo'yish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini diagnostika qilishda ularda ijodiy fikrlash ko'nikmasining darajasi ham o'rganishi muhim masalalardan biridir. Ijodiy fikrlash – bu muayyan mavzu bo'yicha mustaqil fikrni bayon qilish, tarbiyaviy tadbirlarda rang-baranglikka intilish va o'quvchilar bilan ishlashda o'zining xususiy metodikasiga ega bo'lishdir. Ana shu uch mezon asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy fikrlash ko'nikmasi darajasini diagnostika qilish kutilgan samarani beradi. Bunda asosiy e'tibor umumiy o'rta ta'lim maktablarining axborot-resurs markazlari fondiga qaratiladi. Chunki markazning tegishli kitoblar, yangi axborotlar va ma'lumotlar bilan boyligi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy fikrlash ko'nikmasining rivojlanib borishiga omil hisoblanadi. Bizning kuzatishimizga ko'ra, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nisbatan ko'pchiligi Internet global axborot tarmog'i vositasida ma'lumotlarni oladi va foydalanadi. Biroq, mazkur axborot manbalarida mamlakatimizning boshlang'ich ta'lim xususiyatlariga mos kelmaydigan yondashuvlarning mavjudligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli pedagogik diagnostika jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy fikrlash ko'nikmasini o'rganish va baholash uchun eng avvalo, asosiy e'tibor maktabning axborot-resurs bilan ta'minlanishiga qaratiladi. Bunday yondashuv keyingi paytlarda mamlakatimizda tarkib topib borayotganligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tashabbusi hamda mas'ulligi bilan umumiy o'rta ta'lim maktablari yangi avlod kiioblari, jurnallar va gazetalar bilan muntazam ta'minlanib borayotganligi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy fikrlash darajasiga ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi. Shu sababli pedagogik diagnostika jarayonida mazkur masalalar

hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining tanqidiy fikrlashi deganda uning darsliklar, O'qituvchi kitobi va ta'limni boshqaruvchi tashkilotlarning ko'rsatmalariga xolis yondashuvi nazarda tutiladi. Misol uchun, darslikda muayyan mavzu bo'yicha yoritilgan materiallar boshlang'ich sinf o'qituvchisini qoniqtirmaydi, shunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining shaxsiy o'quv materiallari asosida mavzuni o'tishi mumkin. Aynan mana shunday yondashuv ijodiy fikrlashning negizini tashkil qiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy fikrlash ko'nikmasini pedagogik diagnostika qilishda uning davlat ta'lim siyosati, o'quv materiallari, metodikalari va o'quvchilar bilan ishlash yondashuvlaridagi xolislik, ijodiylik hamda yangilikka intilish masalalari o'rganilib, baholanadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijod bilan shug'ullanish yoki ilmiy-tadqiqotlar bilan shug'ullanish kabi holatlar uchraydi. Biroq, bu masala boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy fikrlash ko'nikmasiga kirmaydi. Shu sababli pedagogik diagnostika jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodi qo'shimcha ma'lumot sifatida qabul qilinadi. Mazkur masalalarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari chuqur o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini pedagogik diagnostika qilishda ularning eng muhim kasbiy xususiyatlarini baholash muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasi diagnostikasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifalari belgilab berilgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasini diagnostika qilishda quyidagilar o'rganilib, baholanadi:

a) boshlang'ich sinflar uchun filologiya fanlari va aniq fanlar bo'yicha mashq daftarlariga ega bo'lish;

b) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining multimediyali disk ilovasi mavjud o'quv-metodik qo'llanmalarga ega bo'lishi;

v) kasbiy kompetensiya yondashuviga ega bo'lish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasi diagnostikasida bolalarning nutqini o'stirish, ularning yozma va og'zaki nutqini tarkib toptirish bo'yicha mahorati alohida baholanadi. Chunki boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ravon so'zlash, fikrini yozma ifoda qila olish va bayon, insho rejalarini tuzish ko'nikmalarini egallaydi. Bunda o'qituvchining mahorati muhim o'rin tutadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda Matematika va Informatika fani o'qituvchilarining kasbiy malakasi ham alohida diagnostika qilinadi. Bunda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, mustaqil hisob-kitob qila olish va tafakkurga ega bo'lish holatlari o'rganiladi. Buning natijasida aniq fanlar bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malaka darajasi baholanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasini baholashda ularning darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalardagi multimediali ilova diskidan foydalanish mahorati ham o'rganiladi. Chunki multimediali ilovada mavzular bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar, vazifalar va matnlar taqdim etilgan, ulardan o'quvchilarning foydalanish ko'nikmasi baholanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar bilan individual va qo'shimcha mashg'ulotlar vositasida ana shu multimediali ilovadan foydalangan holda o'quvchilarning bilim darajasi va ko'nikmalarini tarkib toptiradi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisi qo'shimcha o'quv materiallarini to'g'ri va talab darajasida o'zlashtirgan bo'lsa, bu hol boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati darajasini belgilaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Kasbiy kompetensiya – bu kasbiy bilim, ko'nikma va malakaning umumiy majmuidir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari diagnostika qilinganida ularning bilim darajasi, o'qitish ko'nikmasi va o'quvchilarni amaliyotga

yo'naltirish malakasi o'rganilib, baholanadi. Buning natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari qanday kompetensiyaviy malakaga ega ekanligi to'g'risida umumiy ma'lumotlarga ega bo'linadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasini diagnostika qilishda asosiy e'tibor ularning pedagog sifatidagi malakaga va mahoratlariga qaratiladi. Mazkur masalani maktab ta'lim muhitini diagnostika qilish bilan aralashtirmaslik kerak. Chunki har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi individual tarzdagi malaka va mahoratga ega bo'ladi, bu hol maktab ta'lim muhitining bir qismi hisoblanadi xolos.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahorati diagnostikasi. Pedagogika nazariyasi va tarixida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga nisbatan bir necha yondashuvlar mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim. Ana shunday yondashuvlardan biri individual mahoratga ega bo'lishdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahorati deganda ularning mustaqil metodika va texnologiyalarga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahoratini diagnostika qilishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- a) o'z ustida ishlashi;
- b) murakkab vaziyatlardan chiqa olishi;
- v) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash metodikasi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z ustida ishlashi bugungi kundagi Pedagogika fanining eng muhim masalasidir. Chunki texnologiyaning rivojlanib borish sharoitida fikrlar, g'oyalar, yondashuvlar va konsept (turg'un yondashuv) lar o'zgarib bormoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z ustida ishlash individual mahoratini diagnostika qilishda ularning ma'lumotlarni izlashi, topishi va tahlil qilishi, bir necha yondashuvlardan eng muhimini tanlay olishi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy va ruhiy imkoniyatlariga mos tushadigan tushuntirish vositalaridan

foydalanishi o'rganilib, baholanadi. Bu hol nisbatan murakkabligi bilan e'tiborni tortadi. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarini optik tolali (markazlashgan simli uyali aloqa) Internet global tarmog'i bilan bog'lash jarayoni kechmoqda. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z ustida ishlash jarayonida asosiy ma'lumotni bosma nashrlardan olayotganligini eslatib o'tish joiz va kelgusida ularning ma'lumot bilan ishlashi axborot-kommunikatsion vositalar asosida kechishini idrok etish kerak. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z ustida ishlashini pedagogik diagnostika qilish jarayonida imkon qadar maktab sharoitidan kelib chiqib baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahoratida ularning murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish malakasi ham muhim o'rin tutadi. Chunki boshlang'ich ta'lim jarayoni va boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan xususiyatlar ta'lim va tarbiya jarayonida turli murakkab vaziyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari murosa va kelishuv metodikasiga asosan murakkab vaziyatdan chiqishi taqozo etiladi.¹⁷ Shu jihatdan boshlang'ich ta'limdagi murakab vaziyatlar o'tkinchi va muddatli bo'lishini eslatib o'tish joiz. Mazkur xususiyatlarni hisobga olgan mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilari, eng avvalo, asosiy e'tiborni murakkab vaziyatlarning kelib chiqish sabablariga qaratadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayonida murakkab vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu boradagi yondashuvlarini o'rganib baholash ham muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari keyingi paytlarda individual yondashuv asosida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayoniga e'tiborni qaratayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki boshlang'ich ta'limning darsliklari xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay yangi yondashuvlar asosida

17 Umarova Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – Toshkent, 2021

tayyorlanib amalga kiritildi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning ko'nikmalarini tarkib toptirishga qaratilgan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ba'zida bo'sh o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuzaga keladi. Bunday holatda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bo'sh o'zlashtirish sabablarini aniqlash, ular to'g'risida ma'lumot to'plash va muammoni hal etish metodikasi o'rganilib, baholanadi. Bizning kuzatishimizga ko'ra, bo'sh o'zlashtirishning ikki muhim ko'rinishi mavjud: 1) darsliklarning murakkabligi; 2) oilada bola bilan ishlashning yetarli emasligi. Aynan mana shu sabablar keyingi paytlarda o'quvchilarning bo'sh o'zlashtirishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'sh o'zlashtirishning bunday omillari va sabablarini tezkor ilg'ashi, ularni bartaraf etish yondashuviga ega bo'lishi taqozo etiladi. Pedagogik diagnostika jarayonida ana shularga asosiy e'tibor qaratilib, baholanadi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahoratini baholashda maxsus metodikaga asoslanish taqozo etiladi. Ta'kidlangan yondashuv va metodikani oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini diagnostika qilishda o'ziga xos yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kasbiy kompetensiya darajasi pedagogik diagnostika qilinganda aniq sharoitdan kelib chiqilishi kutilgan samarani beradi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim muhiti diagnostikasi nimalarga asoslanadi?
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasi diagnostikasining asosiy omillari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahorati diagnostikasi asoslarini nimalar tashkil qiladi?

4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual mahorati diagnostikasi asoslarini o'zlashtiring va haftalik pedagogik amaliyot davrida tajribadan o'tkazing.

11-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi bo'yicha xorijiy tajribalar

Reja:

1. Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi.
2. Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi.
3. Amerika mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi.

Tayanch tushunchalar: *boshlang'ich ta'lim, xorijiy mamlakatlar, tajriba va metodika, o'rganish va o'zlashtirish, rivojlanish va taraqqiyot.*

Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi. Bugungi kunda Yevropa mamlakatlari G'arbiy va Sharqiy davlatlarga bo'linib, ularning ta'lim bo'yicha tajribasini o'rganish an'anasi mavjud.¹⁸ Shu ma'noda quyidagi yondashuv asosida Yevropa mamlakatlarining boshlang'ich ta'lim diagnostikasi bo'yicha tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) g'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi;
- b) sharqiy Yevropa mamlakatlari tajribasi;
- v) tajribalarni qiyosiy o'rganish.

Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlandiya, Islandiya, Fransiya kabi g'arbiy Yevropa davlatlarida boshlang'ich ta'lim jarayoni nodavlat tashkilotlar tomonidan diagnostika qilinadi. Bunda asosiy e'tibor demokratik yondashuvga qaratiladi. Nodavlat tashkilotlar boshlang'ich ta'limning mazmuni va

¹⁸ Бордовский Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург. 2001

amaliyotini o'rganib, baholaydi hamda bunda davlat ta'lim siyosatining yo'naltirish vazifasiga e'tiborni qaratadi. Chunki g'arbiy Yevropa davlatlarida boshlang'ich ta'lim ko'p hollarda nodavlat shaklda amalga oshiriladi. Bunda davlat inklyuziv ta'limga muhtoj boshlang'ich sinf o'quvchilarini moddiy-moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, qolgan o'quvchilar esa oila yoki homiyilar imkoniyatlaridan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limning nodavlat shaklida o'qiydi. Shu sababli mazkur mamlakatlarning boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishni nodavlat shaklini o'rganish va o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mamlakatimizda ham boshlang'ich ta'limning nodavlat shakllari tarkib topa boshladi. Eslatib o'tish joizki, g'arbiy mamlakatlarda maxsus nodavlat ta'lim muassasalari mavjud bo'lganligi uchun "boshlang'ich maktab" atamasi ishlatiladi. Biroq bizning mamlakatimizda maxsus boshlang'ich maktablar mavjud bo'lmaganligi uchun ushbu iborani ishlatish ta'limga oid me'yoriy hujjatlarga mos emas. Aksincha, diagnostika jarayonida "boshlang'ich ta'lim" atamasining ishlatilishi to'g'ri hisoblanadi.

Bolgariya, Ruminiya, Veneriya kabi sharqiy Yevropa davlatlari o'tgan asrda sotsialistik tuzumda bo'lganligi uchun ularning umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limning davlat shakli saqlanib qolgan. Shu sababli mazkur davlatlarda boshlang'ich ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga asosan davlat tashkilotlari tomonidan diagnostika qilinadi. Diagnostika jarayonida boshlang'ich ta'lim sharoiti, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mahorat darajasi, o'quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorligi va boshlang'ich ta'limning istiqbolli rejalarga egaligi o'rganilib baholanadi. Bu jarayon mamlakatimizdagi pedagogik diagnostikaga nisbatan mos tushadi. Ayni paytda, sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham boshlang'ich ta'limning nodavlat shakllari yuzaga kelayotganligini eslatib o'tish joiz. Demak, kelgusida mazkur mamlakatlarda ham pedagogik diagnostikaning nodavlat shaklidan foydalanish tarkib topadi. Shu sababli sharqiy Yevropa mamlakatlarining boshlang'ich ta'limni diagnostika

qilish bo'yicha tajribasini o'rganishda ana shu sabablarni hisobga olish taqozo etiladi.

G'arbiy va sharqiy Yevropa mamlakatlarining boshlang'ich ta'limni diagnostika qilish tajribalarini o'rganishda qiyoslash metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda g'arbiy Yevropa mamlakatlarida nodavlat diagnostika shakli muvaffaqiyatli qo'llanilsa, sharqiy Yevropa mamlakatlarida davlat shakli imkoniyatlaridan oqilona foydalaniladi. Bundan tashqari, Yevropa mamlakatlarining boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishida xalqaro ta'lim dasturlariga asoslanish umumiyligi mavjud. Xalqaro ta'lim dasturlarining mazkur qit'a boshlang'ich ta'lim jarayoniga to'liq tadbiiq etilganligini hisobga olish lozim. Chunki deyarli barcha xalqaro ta'lim dasturlari Yevropa mamlakatlari boshlang'ich ta'lim jarayoni tajribasidan kelib chiqib tuzilgan. Shuningdek, eslatib o'tish joizki, muayyan tajribani o'rganganda uning eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, Yevropa mamlakatlarining boshlang'ich ta'limni diagnostika qilish bo'yicha tajribasi rang-barang xususiyatlarga ega. Bu tajribani o'rganish jarayonida aynan ana shu xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman, boshlang'ich ta'limni diagnostika qilish tajribasini o'rganish jarayonida uning texnologik ta'minlanganligiga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. Bu masalada Yevropa mamlakatlari yaxshi tajribaga ega ekanligini eslatib o'tish joiz.

Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi. Osiyo mamlakatlarining boshlang'ich ta'lim diagnostikasini o'rganish bo'yicha tajribalarini o'zlashtirishda o'ziga xos yondashuv taqozo etiladi. Bunda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) shimoliy-g'arbiy Osiyo mamlakatlari tajribasi;
- b) markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi;
- v) janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi.

Rossiya, Xitoy, Gangkong kabi shimoliy-g'arbiy Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim jarayoni davlat tomonidan diagnostika qilib boriladi. Bunda asosiy e'tibor ta'lim

oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasiga qaratiladi. Misol uchun, Xitoy boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasida o'quvchilarning Birlashgan Millatlar Tashkilotining ish tillari bo'lgan Ispan, Fransuz, Ingliz, Arab, Golland va Island tillaridan birini bilishi, matematik tafakkuri va mustaqil faoliyatga tayyorgarligi alohida diagnostika qilinadi. Shu sababli keyingi paytlarda shimoliy-g'arbiy Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining til bilish ko'nikmasini diagnostika qilish jarayoni kuchaygan. Bu borada mamlakatimizda ham alohida yondashuvning shakllanganligini eslatib o'tish joiz. Shimoliy-g'arbiy Osiyo mamlakatlarining boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilish tajribasini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik imkoniyatlari hisobga olinishini nazarda tutish kerak.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Pokiston kabi Markaziy Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim jarayoni aralash ta'lim vositasida diagnostika qilinadi. Bunda o'qitishning an'anaviy va onlayn shakllari samaradorligi, o'quvchilarning milliy qadriyatlarni o'zlashtirish darajasi, ularda umuminsoniy qadriyatlarining shakllanish jarayoni va maktab ta'lim muhitining sharoitlarini o'rganib baholashga asosiy e'tibor qaratiladi. Keyingi paytlarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishning nodavlat shakli ham tarkib topa boshlaganligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, Qozog'istonda ellik foiz boshlang'ich ta'lim diagnostikasi nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun maxsus guruh shakllantirilib, boshlang'ich ta'limda davlat talablarining bajarilishi o'rganiladi. Shu sababli Markaziy Osiyo mamlakatlari boshlang'ich ta'lim jarayoni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashib borayotganligini eslatib o'tish joiz.

Hindiston, Indoneziya, Avstraliya kabi janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishda asosiy e'tibor o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlarga qaratiladi. Buning uchun o'qituvchilarning o'quv yuklamasi, vaqt rejimi, dam olish vaqti va ularning tibbiy-

gigiyenik sharoitlar bilan ta'minlanganligiga diqqat qilinadi. Buning natijasida mazkur mamlakatlarda o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqish va intilishning ko'rsatkichlari o'sib bormoqda. Mazkur mintaqaning Yaponiya mamlakatida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi faqat mamlakatning Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli bu mamlakatda boshlang'ich ta'lim jarayoni qat'iy ravishda davlat tomonidan nazorat qilinadi. Chunki o'tgan asrning 90-yillarida Yaponiyaning bir qator boshlang'ich ta'lim maktablarida bolalar xususiyatlariga mos kelmaydigan jangarilik sport turlari o'qitilgan va buning natijasida o'quvchilarning ongida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelgan. Mazkur masala hatto YUNESKOning e'tiroziga sabab bo'lgan. Shu sababli Yaponiyada boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil qilish, o'quv fanlarini tanlash, o'qitish texnologiyalarini belgilash va ularning samaradorligini baholash davlat tomonidan amalga oshiriladi.

E'tibor berilsa, Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim jarayoni, uning samaradorligi, asosan, davlat manfaatlari nuqtai nazaridan diagnostika qilinadi. Shu sababli Osiyo mamlakatlarida aholining 99 foizi boshlang'ich ta'lim bilan ta'minlanib kelinmoqda. Bunday ko'rsatkich mamlakatimizga ham xos ekanligini eslatib o'tish joiz. Chunki lo'li etnik guruhi ko'chmanchi hayot kechirganligi uchun ularning farzandlarini qamrab olish murakkab kechmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda aholining 99,1 foizi boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olinganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Amerika mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi. Amerika mamlakatlari boshlang'ich ta'lim diagnostikasida Buyuk Britaniyaning tajribasi ta'siri mavjud bo'lsa-da, biroq o'ziga xosliklarga ham ega. Shu ma'noda mazkur qit'aning boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasini o'rganishda quyidagilarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) milliy mintalitet ustuvor bo'lgan tajriba;
- b) aralash mintalitet mavjud bo'lgan tajriba;
- v) yangicha yondashuv asosidagi tajriba.

Kanada, Amerika Qo'shma Shtatlari, Panama kabi

mamlakatlar boshlang'ich ta'lim diagnostikasida milliy xususiyatlar ustuvor hisoblanadi. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining amerikacha ruhga ega bo'lishi alohida diagnostika qilinadi. Amerikacha ruh – bu erkinlik tamoyiliga asoslangan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanloviga tayanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv fanlari va o'qituvchilarni tanlaydi. Ayni paytda, davlat tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining amerikacha ruhda voyaga yetishi nazorat qilinadi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Amerika Qo'shma Shtatlari boshlang'ich ta'limida davlat nazorati kuchaytirildi. Chunki mazkur mamlakatda aholining qurol bilan yurishi erkinligi mavjud bo'lganligi uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida salbiy illatlarning paydo bo'lishi e'tiborini kuchaytirgan. Shu sababli davlat boshlang'ich ta'lim jarayoni va o'quvchilarning vatanparvar bo'lib o'sish ko'rsatkichlarini alohida diagnostika qilib boradi.

Braziliya, Portugaliya, Urugvay kabi aralash mintalitetli mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar talablari asosida diagnostika qilinadi. Chunki mazkur mamlakatlarda Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan ko'chib kelgan yuzga yaqin millatga ega aholi yashaydi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayonida davlat tilidan tashqari o'nlab tillar o'qitiladi va o'quvchilarning til madaniyatiga ega bo'lishi qat'iy yo'lga qo'yilgan. Mazkur yondashuv boshlang'ich ta'lim jarayonini muntazam diagnostika qilib borishni taqozo etgan va pedagogik diagnostika masalasiga milliy masala sifatida munosabatda bo'linadi, misol uchun, Braziliyada ming kishilik aholiga ega bo'lgan etnik guruhlarga ham ularning ona tillarida boshlang'ich ta'lim tashkil qilingan va ana shunday yondashuv asosida boshlang'ich ta'limning samaradorligi baholanadi. Bunday rang-baranglik boshlang'ich ta'limning turli yondashuvlar asosida rivojlanib borish imkoniyatini bermoqda. Shu ma'noda mamlakatimizda ham davlat tilidan boshqa tillardagi boshlang'ich ta'lim jarayoni aralash mintalitet yondashuvi asosida diagnostika qilinishi

mazkur ta'lim bosqichining rivojlanishiga omillardan biri bo'lib xizmat qilishini eslatib o'tish joiz.

Amerika qit'asi mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishda keyingi paytlarda yangicha yondashuvlar tarkib topib bormoqda. Bunday yangicha yondashuvlarning asosini raqamli texnologiya asosida masofadan turib diagnostika qilish, xalqaro ta'lim dasturlarining samaradorligini o'rganish va diagnostika jarayonida inson omili ta'sirini kamaytirish tashkil qiladi. Shu sababli bunday yangicha yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilish ommalashib bormoqda. Diagnostika jarayoni raqamli texnologiya asosida ko'p hollarda nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotganligini eslatib o'tish joiz. Chunki Amerika mamlakatlarida nodavlat tashkilotlari demokratiyaning asosiy bo'g'ini hisoblanadi va shu sababli boshlang'ich ta'limni tashkil qilish hamda uni boshqarish jarayonida ham demokratik qadriyatlar ustuvor darajada tarkib topib bormoqda. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanlovi kengayib borayotganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda kelgusida boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishda raqamli texnologiyalarning ustuvor bo'lishi ehtimoli mavjud. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kompyuterli dastur asosida boshlang'ich ta'limni diagnostika qilish texnologiyalarini o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning xorijiy tajribalari rang-barang va xilma-xildir. Shu sababli ularni o'rganish diagnostika jarayonini kuchaytirish hamda yangi diagnostika texnologiyalarini ishlab chiqishda qo'l keladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim diagnostikasi bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini muntazam o'rganib borish muhim ahamiyatga ega. Bu bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi ko'lamini kengaytirishga erishiladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi asoslari nimalardan iborat?
2. Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi qanday omillarga tayanadi?
3. Amerika mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribasi qanday xususiyatlarga ega?
4. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi tajribalarini o'zlashtiring va konspekt qiling.

12-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida klaster tizimi

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimining hamkorlik usuli.
2. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimining o'zaro bog'liqlik usuli.
3. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimida tajriba almashish usuli.

Tayanch tushunchalar: *boshlang'ich ta'lim, diagnostika, klaster, usul, yondashuv, baholash, yo'naltirish, hamkorlik.*

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimining hamkorlik usuli. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim diagnostikasida bir necha o'ziga xos yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlarning rang-barangligi diagnostik jarayonning demokratik xususiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, agar diagnostika jarayoni demokratik qadriyatlar asosida o'tkazilsa, uning qonuniyligi va xolisligi kutilgan darajada tarkib topadi. Shu jihatdan diagnostika – bu nazorat emas, balki o'rganish, baholash va tavsiyalar majmuini ishlab chiquvchi jarayondir. Shunday yondashuvlardan biri klaster tizimi hisoblanadi.

Klaster – ta’lim va tarbiyaga oid tashkiliy ishlarni, muammolarni va uni rivojlantirish yechimlarini bir necha mutaxassislarning hamkorligi asosida ishlab chiquvchi tizimdir. Klaster tizimi Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor-o’qituvchilarining tadqiqotlari natijasida muhim yondashuvga aylandi va bunga qadar metod sifatida qabul qilingan klaster o’quv, ilmiy va amaliy tizim sifatida shakllandi. Shu jihatdan boshlang’ich ta’lim diagnostikasida klaster tizimi muhim o’rin tutadi.

Klaster tizimi bir necha usullarga asoslangan o’ziga xos yondashuvlar majmuidir. Shu jihatdan boshlang’ich ta’lim diagnostikasida klasterning hamkorlik usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunda tajribali shaxslar va tashkilotlarning o’zaro va birgalikda diagnostika jarayonini amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan hamkorlik usulining quyidagi mexanizmlariga e’tibor bering:

a) tajribali mutaxassislarning diagnostika jarayonida ishtirok etishi;

b) ilmiy tashkilotlarning diagnostika jarayonida ishtirok etishi;

v) maktab jamoasining diagnostika jarayonida ishtirok etishi.

Mazkur klaster ishtirokchilari diagnostika jarayonida o’zlarining vazifalariga ega bo’ladi. Shu jihatdan tajribali mutaxassislar boshlang’ich ta’lim diagnostikasining asoslarini, savolnomalarini va uni o’tkazish metodlarini ishlab chiqadi hamda diagnostika jarayonida ilmiy tahlil vazifasini bajaradi.

Ilmiy tashkilotlarning boshlang’ich ta’lim diagnostikasidagi ishtiroki davlat ta’lim standartlari va talablarini, o’quv rejalari va dasturlarini tahlil qilish tarzida amalga oshiriladi. Misol uchun, O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining O’zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti (O’zPFITI) mamlakatimizda ta’lim tizimini ilmiy asoslar bilan ta’minlovchi eng muhim ilmiy tashkilot hisoblanadi. Shu sababli mazkur institutning boshlang’ich ta’lim diagnostikasidagi ishtiroki diagnostik jarayonning ilmiy

asoslari va mexanizmlarini tanlashi shaklida amalga oshiriladi. Chunki institutda boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan ilmiy mutaxassislar faoliyat yuritadi va ular boshlang'ich ta'lim vazifalari bo'yicha aniq yo'nalishlarga ega hisoblanadi. Shu sababli diagnostika jarayonida bu mutaxassislarning ishtirok etishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining klaster tizimi hamkorlik usulida maktab jamoasi tashkiliy, ta'minot va amaliy ishtirokchi vazifasini bajaradi. Bunda boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostikaga tayyorlash, o'quvchilarni yo'naltirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini diagnostik materiallar bilan ta'minlash maktab jamoasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilish tartibli, maqsadli va samarali amalga oshiriladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasining hamkorlik usuli mazkur jarayonda jamoaviy faoliyatga asoslanadi. Shu jihatdan keyingi paytlarda mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida, jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universitetida klaster tizimi asoslarini tadqiq etish va uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki jamoaviy faoliyat boshlang'ich ta'lim jarayonining mavjud muammolarini tezkor ravishda aniqlash va hal etish imkoniyatlarini beradi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimining o'zaro bog'liqlik usuli. Klaster tizimida o'zaro bog'liqlik usuli ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni belgilangan vazifalarni birgalikda hal etish jarayoniga asoslanadi. O'zaro bog'liqlik usulida ta'limdan manfaatdor shaxslar ishtirok etadi. Shu jihatdan mazkur usulning quyidagi xususiyatlariga e'tibor bering:

a) maktab Pedagogik jamoasining boshlang'ich ta'lim diagnostikasida ishtirok etishi;

b) ota-onalar jamoasining boshlang'ich ta'lim diagnostikasida ishtirok etishi;

v) boshlang'ich ta'limdan keyingi ta'lim bosqichi

vakillarining diagnostika jarayonida ishtirok etishi.

Maktab Pedagogik jamoasi boshlang'ich ta'limning samaradorligi bo'yicha asosiy iste'molchi hisoblanadi va shu sababli bu jamoa boshlang'ich ta'lim jarayonini muntazam kuzatib boradi. Mazkur jamoaning boshlang'ich ta'lim diagnostikasi jarayonidagi ishtiroki davlat ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash bilan amalga oshadi. Misol uchun, diagnostika jarayonida har bir o'quv fani bo'yicha belgilangan davlat ta'lim standartlariga rioya etilishi maktab pedagogik jamoasi tomonidan qat'iy nazorat qilinadi va bu jamoa diagnostikani amalga oshiruvchi ishtirokchilarga e'tiroz bildirish huquqiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi jarayonida ota-onalar vakillari jamoatchilik fikrini ifodalovchi va kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Bunda o'quvchilarning va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining manfaatlari ota-onalar vakillari tomonidan jamoatchilik nazorati shaklida himoya qilinadi. Misol uchun, biror o'quv fani bo'yicha o'tkazilgan diagnostikaning natijalarini ushbu vakillar tahlil qilish huquqiga ega va bundan maqsad o'quv fanlarining ahamiyatidan kelib chiqqan holda ularning o'qitilishi jarayonini xolis baholashdan iborat.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, Prezident maktablari va maxsus ijodiy ta'lim muassasalariga tayyorlanmoqda. Shu sababli mazkur maxsus ta'lim muassasalari o'z vakillari vositasida boshlang'ich ta'lim diagnostikasi jarayonida ishtirok etish huquqiga ega. Chunki mazkur faoliyat bilan ushbu ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim imkoniyatlari, muhiti, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasi va o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorgarlik ko'lamini bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv mamlakatimiz ta'lim tizimi va diagnostika jarayoni uchun yangi tizim ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasining klaster tizimi o'zaro bog'liqlik usulida ta'limdan manfaatdor ishtirokchilarning faolligiga tayaniladi. Chunki eng avvalo,

boshlang'ich ta'lim samaralaridan jamiyat manfaatdor hisoblanadi, jamiyatning bu manfaatdorligi maktab Pedagogik jamoasi, ota-onalar va ta'limning maxsus muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim diagnostikasida o'zaro bog'liqlik usuli klaster tizimining eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limni klaster usulida diagnostika qilishning o'zaro bog'liqlik usuli ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning faoliyatidan manfaatdorlar ko'nikmasini baholashga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunday manfaatdorlarning asosiy tarkibini ota-onalar, jamoatchilik vakillari va ta'lim boshqaruvi metodistlari tashkil qiladi. Shu sababli diagnostika jarayonida mazkur toifalarning ham vakillarini ishtirok etishi klaster vositasida boshlang'ich ta'limni baholashning asoslarini kuchaytiradi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda ta'lim jarayoni manfaatdorlarining o'zaro bog'liqligi asosida uni rivojlantirishning yangicha vositalari va yo'nalishlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimida tajriba almashish usuli. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining klaster tizimida tajriba almashish usuli muhim ahamiyatga ega. Bu usulga ko'ra, hududlar kesimida o'tkazilgan boshlang'ich ta'lim diagnostikasi natijalari bo'yicha tajriba almashiladi va buning samarasi o'laroq hududlardagi boshlang'ich ta'limning mazmuni hamda uni o'qitish metodikasi kuchayadi. Shu jihatdan, mazkur usulning quyidagi xususiyatlariga e'tibor bering:

a) boshlang'ich ta'lim diagnostikasi natijalari bo'yicha maktablararo tajriba almashish;

b) boshlang'ich ta'lim diagnostikasi natijalari bo'yicha hududlararo tajriba almashish;

v) boshlang'ich ta'lim diagnostikasi natijalari bo'yicha Respublika miqyosida tajriba almashish.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining klaster tizimida

maktablararo tajriba almashish muhim mexanizmlardan biridir. Unga ko'ra, muayyan maktabda o'tkazilgan diagnostika natijalari o'zga maktablar vakillari bilan birgalikda muhokama qilinadi va buning natijasida maktablarning diagnostika jarayoniga tayyorgarlik ko'rishi kuchayadi. Chunki har bir maktab bugungi kunda moddiy va texnologik jihatlardan teng ta'minlangan, ayni paytda, boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchi o'qituvchilarning tajribasi bo'yicha farqliklar kuzatiladi. Shu sababli diagnostika jarayonining maktablararo tajriba almashinuvi har bir maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy malakalarining rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimining tajriba almashish usulida hududlar kesimi muhim o'rin tutadi. Bunga ko'ra, tuman, shahar va viloyatlar miqyosida amalga oshirilgan diagnostika natijalari bo'yicha tajriba almashish o'ziga xos mexanizmlardan hisoblanadi. Chunki tumanlar maktablarining tajribalari shahar maktablari uchun, shahar maktablarining tajribalari viloyat maktablari uchun o'ziga xos yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tumanlar va shaharlarda bugungi kunda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyat yuritmoqda. Ayni paytda, tumanlar, shahar va viloyatlarning iqtisodiy rivojlanish jarayoni turli bosqichda bo'lganligi uchun maktablarning tajriba almashish jarayoni sust kechayotganligini ta'kidlab o'tish joiz. Shu sababli mazkur bo'shliqni boshlang'ich ta'lim diagnostikasi natijalari asosida to'ldirish imkoniyatlari mavjudligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi bo'yicha klaster tizimining Respublika miqyosida tajriba almashish usuli muhim mexanizmlardan biridir. Unga ko'ra, Respublika miqyosida amalga oshirilgan boshlang'ich ta'lim diagnostikasi natijalari asosida aniqlangan eng yaxshi maktablar tajribalari namuna sifatida taqdim etiladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, har bir maktab o'zining tajribasini namuna sifatida ko'rsatilishini maqbul biladi. Shu sababli diagnostika jarayonida maktablar

tajribasining eng yaxshi namunalari aniqlanishi va baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida Respublika miqyosida maktablarning tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilib, sog'lom raqobat muhiti asosida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunday omillarni aynan diagnostika natijalari berishini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasining klaster tizimi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim yondashuvlardan hisoblanadi. Shu sababli biz mazkur tizim imkoniyatlaridan foydalanish, uning mexanizmlarini ishlab chiqish va metodikasini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish kutilgan samarani beradi, deb hisoblaymiz. Eslatib o'tish joizki, klaster tizimi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida o'quv jarayonida foydalanish yondashuvlari tarkib topdi. Ayni paytda, klaster tizimi imkoniyatlaridan boshlang'ich ta'lim diagnostikasida foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagi metodikaga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- 1) boshlang'ich ta'lim diagnostikasini klaster tizimi asosida o'tkazishning me'yoriy asoslarini ishlab chiqish;
- 2) mazkur klaster tizimi asosida o'tkaziladigan diagnostika jarayoni ishtirokchilarining vazifalarini aniq belgilab qo'yish;
- 3) bunday tizim asosida o'tkazilgan diagnostika natijalarini Respublika miqyosida ommalashtirish.

Bunday metodika boshlang'ich ta'lim diagnostikasining samaradorligigaxizmatqilishigavaunita'limmanfaatdorlarining faol ishtiroki asosida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim jarayonini klaster tizimi asosida baholashning bir necha usullari mavjud. Bunda asosiy usullarni hamkorlik, o'zaro bog'liqlik va tajriba almashinish tashkil qiladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayonini jamoaviy diagnostika qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu tariqa boshlang'ich ta'lim jarayonini diagnostika qilishda klaster tizimi jamoaviylik, demokratlik va ochiqlik tamoyillariga tayanishini eslatib o'tish joiz.

Klaster tizimi mamlakatimizda ilmiy asoslangan ta'lim vositalaridan biri sifatida amaliyotga keng tadbiiq etilmoqda. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limni klaster tizimi asosida diagnostika qilish metodikasini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turganligini ta'kidlab o'tish lozim. Bu borada o'ziga xos tadqiqotlar majmuini amalga oshirish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimida hamkorlik, o'zaro bog'liqlik va tajriba almashish usullari mazkur jarayon uchun amaliy mexanizmlarning eng muhimlarini o'zida mujassam etadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida klaster tizimining hamkorlik usuli asoslarini nimalar tashkil qiladi?

2. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimining o'zaro bog'liqlik usuli omillari nimalarga tayanadi?

3. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimida tajriba almashish usulining asoslari qanday xususiyatlarga ega?

4. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimining tajriba almashish usulini o'zlashtiring va konspekt qiling.

13-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv asoslari diagnostikasi.

2. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv samaradorligi diagnostikasi.

3. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribasi diagnostikasi.

Tayanch tshunchalar: diagnostika, boshlang'ich ta'lim, individual yondashuv, baholash, o'rganish, yondashuv, samaradorlik, yo'naltirish.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv asoslari diagnostikasi. O'zbekistonda barcha sohalar qatorida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish jarayoni ham kechmoqda. Shu jihatdan Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2023-yil 2-fevraldagi 01-20-son buyrug'i bilan oliy pedagogik ta'lim jarayonida "individual yondashuv texnologiyasi universitet ta'lim jarayonining strategik yo'nalishi" sifatida belgilangan. Chunki individual yondashuv texnologiyasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qiyotgan har bir talaba bilan alohida shug'ullanish imkoniyatini beruvchi vositalardan biridir. Shu ma'noda bu hol kelgusida boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri bo'lishi kutilmoqda. Negaki, individual yondashuv texnologiyasi bilan qurollangan boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchi bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda bu o'rinda boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti masalasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashish va uning asoslari bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Individual yondashuvda har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanish taqozo etiladi va har bir sinfda o'quvchilar miqdorining ko'pligi mazkur masalaning murakkabligini namoyon qiladi. Ayni paytda, bu murakkablikni hal qilish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'quvchilarni biriktirib qo'yish yo'li bilan amaliy samaraga erishish mumkin. Misol uchun, Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor-o'qituvchilariga 5 nafardan talabalar biriktirilgan va bu tajriba talabalar bilan individual ishlash imkoniyatlarini bermoqda. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari, ehtiyojlari va o'qituvchilarga bo'lgan munosabatlarini hisobga olgan holda ularni ustozlarga biriktirish boshlang'ich ta'limda individual yondashuvning muhim asoslari hisoblanadi. Shuningdek, maktab to'garaklari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual shug'ullanish imkoniyatlari ham mavjud. Bundan tashqari, o'quvchilarning murojaatlariga boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlariga biriktirilgan

o'quvchilardan tashqari murojaat etuvchilar bilan ham individual shug'ullanishi maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda individual yondashuv asoslari diagnostika qilinganida o'quvchilarning o'qituvchilarga birlashtirilganligi va uning samarasi, to'garaklarning amaliy ta'siri va qiziqarliligi hamda murojaat etuvchi o'quvchilar bilan ishlash darajasi o'rganilib baholanadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda individual yondashuv asoslarini tarkib toptirish, rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar diagnostikaning hosilasi sifatida ishlab chiqiladi. Negaki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan qiziqishlari yuqori bo'lib, bu omildan foydalangan holda ularning ta'lim olish huquqlarini kuchaytirishda aynan individual yondashuv o'ziga xos imkoniyatlarni beradi. Bu jarayonni diagnostika qilish boshlang'ich ta'limning individuallashtirish borishiga xizmat qilishini ta'kidlab o'tish joiz.

Individual yondashuv asoslari bo'yicha yangi nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlarni yaratishga ham ehtiyojlar mavjud. Bunday tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalarga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilari miqdorini maqbullashtirib borish yo'nalishlariga ega bo'linadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda individual yondashuv asoslari yanada kuchayadi. Shu sababli mazkur masala diagnostik jarayonning asosiy ob'ektlaridan biri bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ham individual yondashuv asoslari bo'yicha ishlanmalar yaratish, takliflar ishlab chiqish va haftalik pedagogik amaliyot davrida ularni tajriba-sinovdan o'tkazish ishlariga jalb qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang'ich ta'lim diagnostikasi metodikasi amaliyotga yo'naltirilishi zaruriyat bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuvning eng muhim asoslariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunda diagnostika jarayonini amalga oshiruvchilarning har birini individual yondashuvi mavjud bo'lishini eslatib o'tish joiz. Shu sababli diagnostika jarayonida

uning rahbari diagnostikani amalga oshiruvchilarning individual yondashuvlarni umumlashtirgan holda amaliyotga tadbiiq etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, muayyan diagnostika ishtirokchisi bilim berish bo'yicha chuqur individual yondashuvga ega bo'lishi mumkin, ikkinchisi tarbiya jarayoni bo'yicha shunday yondashuv asosida mahoratga ega bo'ladi. Bunday holatda ta'limni diagnostika qilishda shu bo'yicha individual yondashuvning eng samaradorligiga asoslaniladi, tarbiya va boshqa diagnostika yo'nalishlarida ham ular bo'yicha o'ziga xos individual yondashuvlarga asoslaniladi. Buning natijasida ta'lim, tarbiya, ta'lim oluvchilarning faoliyati, ta'lim beruvchilarning mahorati va maktab muhiti yo'nalishlari bo'yicha bir necha individual yondashuvlardan foydalangan holda pedagogik diagnostikani amalga oshirishga erishiladi. Demak, pedagogik diagnostikada individual yondashuvning rang-barangligiga asoslanish o'ziga xos imkoniyatlarni beradi.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv samaradorligi diagnostikasi. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi rivojida turli yondashuvlarga asoslanish mazkur jarayonning demokratik qadriyatlarga amal qilishini namoyon qilmoqda. Shu jihatdan individual yondashuv tizimi ham demokratik yondashuvlarning tarkibiga kiradi va unda ta'lim oluvchilarning huquqlarini to'liq ta'minlash imkoniyatlari mavjud. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda individual yondashuv samaradorligini diagnostika qilib borish ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv samaradorligi o'quvchilarning bilim darajasi, ularning faolligi, ta'lim-tarbiyaga nisbatan ijobiy munosabati va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Diagnostika jarayonida ana shu masalalar o'rganilishi tavsiya etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi o'quv fanlari kesimida, kasbiy tajribalarni ayriboshlashda va o'z individual metodikalarini ommalashtirib borishda ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan diagnostika jarayonida mazkur masalalar alohida o'rganilib, tahlil etilishi maqsadga

muvofoiq bo'ladl va bu bilan boshlang'ich ta'limda individual yondashuv samaradorligi bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limda individual yondashuv samaradorligini o'rganish va baholashda maktablararo, hududlararo va mamlakat miqyosi kesimida ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofoiq bo'ladi. Chunki har bir maktabning individual yondashuv bo'yicha o'z samarasiga ega bo'lishi tajribadan ma'lum. Hududlararo va mamlakat miqyosida individual yondashuv samaradorligi boshlang'ich ta'lim sifatining ko'rsatikchlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur masalani diagnostika qilishning yangilangan va takomillashgan metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Umuman bizning yondashuvimizga ko'ra, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib *boshlang'ich ta'lim diagnostikasi metodikasini* shakllantirish kutilgan samarani beradi. Chunki bugungi kunda boshlang'ich ta'limning mutlaqo yangi vazifalari shakllanganligi ma'lum va jamiyatimizning yangicha rivojlanishi diagnostika jarayoniga ham bo'lgan munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda bu borada diagnostika mazmunida individual yondashuv tizimi ham aks etishi maqsadga muvofoiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuvning samaradorlik masalasiga alohida e'tibor berish kerak. Chunki individual yondashuv deganda, eng avvalo, pedagogik tajribadan o'tgan va jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan o'qitish hamda boshqaruv vositalari tushuniladi.¹⁹ Shu sababli boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning individual yondashuvi deganda va uning samaradorligini baholashda tashxislash jarayonining tajribalarga asoslanishi nazarda tutiladi. Aynan mana shu masala sababli individjual yondashuv diagnostika jarayonida xususiy yondashuv emas, balki mahoratlar asosida baholashni nazarda tutadi. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida pedagogik diagnostikani amalga oshirish metodikasini ishlab

¹⁹ Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023

chiqish ham dolzarb bo'lib turibdi. Chunki keyingi paytlarda individual yondashuv texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Pedagogik diagnostikaning individual yondashuv usuli ham ana shu texnologiyaning tarkibiga kirishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribasi diagnostikasi. Jamiyatimizning boshlang'ich ta'limga nisbatan munosabati va yondashuvlarida yangiliklar hamda yangi metodikalarning tarkib topib borishi jarayonga aylandi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va boshlang'ich ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi ilmiy xodimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribalarini o'rganish va eng yaxshi tajribalarni ommalashtirishda diagnostik jarayon muhim o'rin tutadi. Buning uchun individual yondashuvning o'qituvchilar tajribasi, maktablar tajribasi, hududlar tajribasi va mamlakat miqyosidagi tajribasi diagnostika qilinishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday yondashuv diagnostik faoliyatning ham samaradorligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribasi darhol paydo bo'lmaydi, u yillar davomida shakllanib tajribadan o'tib boradi. Shu jihatdan, boshlang'ich ta'limni amalga oshirish bo'yicha an'anaviy, maxsus va mustaqil ta'lim shakllaridagi individual yondashuv tajribalarini o'rganib baholash kutilgan samarani beradi. Negaki, mazkur yondashuvlar keyingi paytlarda muhim nazariy va metodik ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki boshlang'ich ta'limda individual yondashuvning shakllangan va tarkib topgan tajribalarini o'rganish va baholash bilan mazkur jarayonni yanada kuchaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirish uchun eng muhim yo'nalishlarni beruvchi

mexanizmlarni namoyon qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim diagnostikasi va uning asoslaridan biri bo'lgan individual yondashuv amaliyoti oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuv tajribalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, mahoratli va tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual yondashuv metodikasidan foydalangan holda diagnostikani amalga oshirish amaliy samaradorlikni beradi. Chunki tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z nuqtai nazari va fikrlariga asosan deyarli har bir dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'zlashtirish va tarbiyalanganlik darajasini tashxislab boradi. Shu sababli ular da diagnostika bo'yicha amaliy individual yondashuvlar mavjudligiga e'tibor berish kerak. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tajribali o'qituvchilarning har bir o'quvchi, ta'lim muhiti va sharoitlari to'g'risidagi individual tashxis fikrlarini maxsus o'tkazilgan pedagogik diagnostika ma'lumotlari bilan qiyoslash qiziqarli axborotlarni beradi. Chunki tajribali o'qituvchilarning individual tashxisi muntazam ravishda amaliyot sinovidan o'tib kelayotgan hisoblanadi va maxsus o'tkazilgan pedagogik diagnostikaning ma'lumotlari ko'p hollarda yangi axborotni taqdim etadi. Shu sababli bu jarayonda mazkur ikki holatni qiyosiy tahlil qilish boshlang'ich ta'limning holati to'g'risida strategik darajadagi ma'lumotni berishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limni individual yondashuv asosida diagnostika qilish nisbatan yangi yondashuvdir. Shu sababli bu borada o'ziga xos metodikalarni va vositalarni ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti asoslarini individual yondashuv tayanchlari, uning samaradorligi va o'ziga xos tajribasi tashkil qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv asoslari diagnostikasi nimalarga tayanadi?
2. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv samaradorligi diagnostikasining asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribasi diagnostikasi omillarini nimalar tashkil qiladi?
4. Boshlang'ich ta'limni individual yondashuv diagnostikasi asoslarini o'zlashtiring va haftalik pedagogik amaliyot davrida sinovdan o'tkazing.

14-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining samaradorligini baholash

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faollik darajasi diagnostikasi.
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligi diagnostikasi.
3. Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlari diagnostikasi.

Tayanch tushunchalar: faollik darajasi, diagnostika, tushuncha, samaradorlik, faoliyat, istiqbolli yo'nalishlar, metodika, malaka.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faollik darajasi diagnostikasi. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar va o'qituvchilarning faollashuv jarayoni kechmoqda. Chunki hozirgi zamon boshlang'ich ta'limi ta'lim tizimidagi keng ko'lamli vazifalarni bajarayotganligi ma'lum. Shu sababli boshlang'ich ta'lim samaradorligini muntazam o'rganib borish va uni diagnostika qilish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Samaradorlik deganda boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarning zamonaviy talablar asosida

bajarilishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

Boshlang'ich ta'limning asosiy samaradorligi o'quvchilarning faollik darajasi bilan belgilanadi. Bu masalani diagnostika qilishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) o'quvchilarning bilim darajasi;
- 2) o'quvchilarning sog'lomlik darajasi;
- 3) o'quvchilarning mustaqillik darajasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi ularning fikrlash ko'nikmasi bilan baholanadi. Bunda o'quvchilarning o'z fikriga egaligi, fikrini ravon ifodalashi va yangi matnni tahlil qila olish ko'nikmasi diagnostika qilinadi. Chunki o'quvchilar mazkur ta'lim bosqichida bilimning eng boshlang'ich bosqichlarini egallaydi. Ko'pchilik o'quvchilarning ravon o'qishiga asosiy e'tiborni qaratadi. Biroq diagnostika jarayonida o'quvchilarning fikrlash darajasini o'rganish muhim hisoblanadi. Aynan fikr jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimi o'z ifodasini namoyon qiladi. Misol uchun, ba'zi o'quvchilar tez o'qiydi yoki fikrini ifodalashda qiynaladi. Shu sababli keyingi paytlarda PISA kabi xalqaro ta'lim dasturlari talablariga asosan o'quvchilarning fikrlash darajasini rivojlanirish bilan ularning bilimlarini oshirish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu jihat diagnostika jarayonida hisobga olinishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lomlik darajasi ularning jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan to'g'ri rivojlanib borishi bilan baholanadi. Bu borada keyingi paytlarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlanirish va ularning to'g'ri ovqatlanishini nazorat qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu tadbir boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan talab darajasida rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarning sog'lomlik darajasini diagnostika qilishda ularning yosh va harakatlariga mos bo'lgan jismoniy, aqliy hamda ruhiy rivojlanish darajasi baholanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter kabi texnik vositalardan keng foydalanayotganligi ularning

sog'lomlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli keyingi paytlarda "Kompyuter savodxonligi" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuterdan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon diagnostik faoliyatda hisobga olinishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqillik darajasi ularning murakkab sharoitlarda o'zini tuta olishi, muammoni hal etishi va o'zgalarga namuna bo'lishi bilan belgilanadi. Shu sababli diagnostika jarayonida aynan mana shu masalalarga e'tibor qaratiladi. Keyingi paytlarda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'nikmasini tarkib toptirishga alohida diqqat qilinmoqda. Bu bilan o'quvchilar o'zlarining imkoniyatlari doirasida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini egallashi uchun ularga ko'nikma beriladi. Diagnostika jarayonida o'quvchilarning mustaqillik darajasini baholash natijasida bu faoliyatni rivojlantirishning yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyatimizning hozirgi innovatsion rivojlanish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ham faollik ko'nikmasiga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Chunki aynan faollik o'quvchilar faoliyatining asoslaridan birini tashkil etadi. Shu jihatdan diagnostika vositasida quyidagilar asosida o'quvchilarning faollik darajasi o'rganilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasi shakllanganligi;
- o'quvchilarda mustaqil faoliyat asoslarining shakllanganligi;
- o'quvchilarning murakkab holatlardan mustaqil chiqib keta olish ko'nikmasi shakllanganligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasini diagnostika qilish uchun ularning yozma va og'zaki nutqidagi ravonlik, matnni tushunish va tahlil qila olish, o'z fikrini ifodalay olish masalalariga e'tibor qaratiladi. Aynan bu masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil

fikrlash ko'nikmasining shakllanganligini namoyon qiladi. Shu sababli yangi avlod darsliklarida bu masalalarga alohida e'tibor berilgan. Darsliklar va mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu hol diagnostika jarayonida hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarning mustaqil faoliyat asoslarini ularning bilim olishga intilishlari, qiziqishlari va o'zgalarga munosabatlari tashkil etadi. Diagnostika jarayonida mana shu masalalar o'rganilishi, ularning ko'rsatkichlari belgilanishi va bu faoliyatni rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqilishi asosiy vazifalardan biridir. Keyingi paytlarda o'quv fanlari tarkibi takomillashmoqda va Bolalar ijodiyot markazlarida to'garaklar vositasida o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini shakllantirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli bunday imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'nikmasini shakllantirish va uning darajasini aniqlash jarayoni diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasining hozirgi zamon holatida o'quvchilarning murakkab holatlardan mustaqil chiqib keta olish ko'nikmasini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunday murakkab holatlar tarkibini tabiiy ofatlar davrida to'g'ri xatti-harakat qila olishi, oila muammolarida o'quvchilarning o'zini erkin tutishi, o'zgalalar bilan munosabatlarda ruhiy tushkunlikka tushmasligi, o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan turli holatlardan chiqib keta olishi kabilar tashkil etadi. O'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'nikmasi diagnostika qilinganida ana shu masalalarga e'tibor beriladi.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining faollik darajasi diagnostikasi omillarini tashkil qiladi.

“XXI asr malakasi” talablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini amaliy faoliyatga ta'limiy, tarbiyaviy va ko'nikma jihatidan tayyorlash qo'yilgan.²⁰ Shu sababli boshlang'ich

²⁰ “XXI asr malakasi”. // www.lex.uz

ta'limni diagnostika qilish samaradorligi o'quvchilarning bilim, tarbiya va ko'nikma jihatidan faoliyatga tayyorgarligi bilan baholanadi. Chunki o'quvchilarning faoliyatga tayyorgarligi ularning faollik darajasi asoslarini tashkil qiladi. Ta'kidlab o'tish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining faollik ko'nikmasiga ega bo'lishi ularning ongi, dunyoqarashi, aqli va ruhiyatining talab darajasida rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli keyingi paytlarda mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida faollik ko'nikmasini yuksak darajada tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda. Misol uchun, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari davlat tomonidan ta'lim planshetlari bilan ta'minlanayotganligi ularning faollik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim samaradorligini diagnostika qilishda, eng avvalo, o'quvchilarning faollik ko'nikmasi darajalari va ko'rsatkichlari o'rganilib baholanishi bugungi kundagi yondashuvlarning asosiylaridan birini tashkil qiladi. Bundan asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarida faollik ko'nikmasining tarkib topishini nazorat qilib borishdir. Chunki o'quvchilarning faolligi ta'lim va tarbiya jarayonining dinamik rivojlanib boshishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligi diagnostikasi. Mazkur masala boshlang'ich ta'lim samaradorligining negizlaridan birini tashkil etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligi boshlang'ich ta'lim metodikasini yangilash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur masalani diagnostika qilishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) o'qituvchining ta'lim samaradorligi;
- 2) o'qituvchining tarbiya samaradorligi;
- 3) o'qituvchining faollik samaradorligi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim samaradorligi o'quvchilarning bilimdonlik darajasi bilan baholanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nisbatan ko'pchiligi bilimdon hisoblansa, o'qituvchining ta'lim samaradorligi ijobiy hisoblanadi. Bugungi kunda bu boradagi asosiy muammo

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ko'pligidir. Shu sababli qabul qilish jarayonida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi "O'qituvchi maqomi to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich sinflarda o'quvchilar miqdorini tartibga solish nazarda tutilgan. Buning natijasida o'quvchilarning bilimdonlik darajasi oshadi va o'qituvchilarning ta'lim samaradorligi kuchayadi. Diagnostika jarayonida aynan ana shunday murakaab holatlar hisobga olinib, baholanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiya samaradorligi o'quvchilarda axloqiy ong va axloqiy munosabatlarning talab darajasida tarkib topganligi bilan belgilanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nisbatan ko'pchiligida axloqiy ong va axloqiy munosabatlarning talab darajasida shakllanganligiga e'tibor qaratiladi, uning natijasiga ko'ra diagnostik baho beriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyat sharoitida shaxsning tarbiyalanganlik darajasi mezonlari o'zgaruvchan bo'ladi. Shu jihatdan diagnostika jarayonida o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi ayni holat bo'yicha baholanadi. Bunday tajriba xalqaro ta'lim dasturlarida keng qo'llaniladi. Unga ko'ra, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi diagnostika qilingandan keyin muayyan muddat o'tib yana qayta diagnostika qilinadi. Natijada, o'quvchilarning tarbiya samaradorligi aniq namoyon bo'ladi va bu hol o'qituvchilarning tarbiya samaradorligini baholashga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faollik darajasi ularning o'z kasbiy vazifalarini talab darajasida bajarishi bilan belgilanadi. Juda ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari faol ekanligi kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligini diagnostika qilishda ularning faoliyatidagi yutuqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faollik darajasi ta'lim berish, tarbiyani amalga oshirish va o'quvchilar bilan ishlashda namoyon bo'lishini eslatib o'tish joiz.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligi masalasini diagnostika qilib borish

ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday diagnostika jarayonida quyidagilarga e'tibor berish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi:

- o'qituvchi zimmasiga yuklangan vazifalar ko'lami;
- o'qituvchining vaqt omilidan foydalanish darajasi;
- o'qituvchining o'z faoliyatida rejaga amal qilish ko'lami.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga juda ko'p vazifalar yuklanganligi ko'zga tashlanadi. Biroq bu vazifalardan asosiyini bilim va tarbiya berish tashkil qiladi. Ayni paytda, o'qituvchini jamoat ishlariga jalb etish qat'iyon ta'qiqlangan. Biroq kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda o'qituvchilar turli tadbirlar bilan mashg'ul bo'lib qolayotganligi sir emas. Shu jihatdan o'qituvchining vazifasi diagnostikasi qilinganida uning eng asosiy funksiyalariga e'tibor qaratiladi. Agar o'qituvchi o'z vazifasidan tashqari funksiyalar bilan ta'minlangan bo'lsa, diagnostika natijasida uni bartaraf etish uchun tavsiya beriladi.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisining vaqt omilidan oqilona foydalanishi taqozo etiladi. Shu jihatdan mazkur masala diagnostika qilinganida o'qituvchining dars uchun belgilangan vaqtdan qanday foydalanishi, maktab muhitida vaqtdan oqilona foydalanishi va umumiy faoliyat davrida vaqtdan foydalanishi masalalari o'rganiladi. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'qituvchisining maktab faoliyatida vaqtdan foydalanish ko'nikmasiga qaratiladi. Agar o'qituvchi uchun vaqt taqchilligi sezilsa va u diagnostika jarayonida namoyon bo'lsa, bu muammoni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyati davomida vaqt omilidan foydalanish uchun rejaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi kunlik, haftalik va oylik vaqt rejasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shu sababli diagnostika jarayonida mana shu masalalar o'rganiladi va asosiy e'tibor o'qituvchida vaqtdan rejali foydalanish bo'yicha malakani kuchaytirishga qaratiladi. Chunki o'qituvchi faqat mashg'ulot o'tuvchi shaxs emas, balki u o'zi ustida ishlashi, yangi ma'lumotlar bilan tanishishi va ijtimoiy faoliyat

ko'rsatishi zaruriyat hisoblanadi. Diagnostika jarayonida ana shularga e'tibor berish kutilgan samarani beradi.

YUNESKO tashkilotining boshlang'ich ta'lim bo'yicha eng muhim tavsiyalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyat samaradorligiga o'rgatishdir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining ta'limiy va hayotiy faoliyatlarida maqsadlariga erisha olishi kerak. Faoliyat samaradorligiga erishish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida maqsadni qo'ya olish, unga yetish yo'llarini izlash, o'zgalarning yordamidan foydalanish va mustaqil harakat kabi ko'nikmalar tarkib toptirilishi lozim. Aynan mana shu masalalar pedagogik diagnostika jarayonida o'rganilib, baholanadi. Buning natijasida har bir o'quvchining faoliyat samaradorligi ko'nikmasiga baho berish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Eslatib o'tish joizki, bugungi kunda shahar va qishloq hududlarida istiqomat qilayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari teng faoliyat ko'nikmalariga ega. Chunki ularga taqdim etilayotgan bilim va axborotlar teng taqsimlanmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyat samaradorligi diagnostika qilinganligi hududlar kesimida yondashish kutilgan samarani bermaydi. Demak, mazkur masalada qaysi hududda istiqomat qilishidan qat'iy nazar boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyat samaradorlik ko'nikmasi tenglik tamoyili asosida tashxislanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu masala bo'yicha ham yangicha yondashuvlarga asoslangan metodikani ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur masalaga e'tibor berishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlari diagnostikasi. Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishga ega bo'lishi mazkur ta'lim bosqichining eng muhim vazifalaridan biridir. Bunda aynan, istiqbolli yo'nalishlar diagnostika qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan quyidagi masalalarga e'tibor berish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi:

- 1) boshlang'ich ta'limning uzoq muddatli dasturlarga egaligi;
- 2) boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan texnologiyalar

darajasi;

3) boshlang'ich ta'lim bo'yicha rejalarning asosligi.

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning uzoq muddatli dasturlari ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" va Milliy o'quv dasturi shular jumlasidandir. Misol uchun, Milliy o'quv dasturida boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar fanlarga turkumlashtirib o'qitish hamda xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanish belgilangan. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim mazmuni muntazam ravishda takomillashib boradi. Shu jihatdan diagnostika jarayonida ana shu masalalarga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan texnologiyalar turlari ko'p bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- axborot-kommunikatsion texnologiyalar;
- mustaqil ta'lim texnologiyasi;
- masofaviy ta'lim texnologiyasi.

Axborot-kommunikatsion texnologiya o'quvchilarning bilim darajasini kuchaytirish va ularni yangi ma'lumotlar bilan ta'minlash, mustaqil ta'lim texnologiyasi esa o'quvchilarni mustaqil faoliyatga tayyorlash va masofaviy ta'lim texnologiyasi esa boshlang'ich ta'lim bo'yicha tajribalarni ommalashtirib borish imkonini bermoqda. Shu sababli mazkur jarayonni diagnostika qilishda ana shu masalalarning samaradorligiga e'tibor berish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha rejalarning mavjudligi asosiy masalalardan hisoblanadi. Bunda Milliy o'quv dasturiga asosan fanlar kesimida muddatli rejalarga ega bo'lish amaliy samara beradi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limning o'quv fanlarini korreksiyalab borish ham amaliy rejalarni belgilab olishda qo'l keladi. O'quv fanlarini korreksiyalashda eng zaruriy ma'lumotlarni berish va eng muhim fanlarni o'qitish tamoyiliga asoslaniladi. Aynan, ana shu masalalar diagnostika qilinib baholanadi.

Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlarini

diagnostika qilishda bir necha muhim omillarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday omillarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich sinf o'qituvchisining istiqbolli mo'ljalga ega bo'lishi;

- maktab jamoasining boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha rejaga ega bo'lishi;

- boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarning yo'nalishlari.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining istiqbolli mo'ljaliga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bunda u choraklik va bir o'quv yilida amalga oshiradigan shaxsiy tadbirlari bo'yicha o'zining tasavvuriga ega bo'lishi kerak. Diagnostika jarayonida suhbat yoki so'rovnoma asosida ana shu masala o'rganiladi hamda o'qituvchining mo'ljallari tahlil etiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'ziga xos metodikaga ega o'qituvchilar ko'p hollarda yangi ma'lumotlarni izlab topish ishini mo'ljallashadi. Shuningdek, ular yangi avlod darsliklari bilan ishlashni ham birinchi maqsad sifatida belgilashadi. Shu sababli diagnostika jarayonida mazkur masalalar o'rganilib baholanadi.

Bugungi kunda har bir maktab jamoasining boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha rejaga ega bo'lishi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ko'p hollarda bunday reja maktab Pedagogik kengashi majlislarida boshlang'ich ta'lim masalalarini ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi. Shu sababli diagnostika jarayonida maktab jamoasining boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha rejaga ega bo'lishi va maktab Pedagogik kengashida boshlang'ich ta'lim masalalari bo'yicha ko'rib chiqilgan holatlar o'rganiladi. Chunki aynan, bu ikki hol maktabda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Hozirgi zamon oliy ta'lim muassasalarida va ilmiy-tadqiqot institutlarida boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha istiqbolli tadqiqotlar yo'nalishlarini belgilash an'anasi mavjud. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich ta'lim bo'yicha eng muhim muammolar va ularni tadqiq etish asoslariga qaratiladi.

Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarning diagnostika vositasini o'rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Bunda istiqbolli yo'nalishlarning to'g'ri belgilanganligi, dolzarbligi, jamiyat uchun ehtiyojga egaligi va mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirishga xizmat qilishi masalalariga qaratiladi. Buning natijasida aniqlangan ma'lumotlar asosida diagnostika tavsiyalari ishlab chiqiladi.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlari diagnostikasida muhim o'rin tutadi. Bu masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida 2026-yil oxiriga qadar mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning sifat ko'rsatkichlarini xalqaro ta'lim dasturlari talablariga mos darajaga olib chiqish vazifasi qo'yilgan. Xalqaro ta'lim dasturlarining asosiy masalalaridan biri har bir ta'lim bosqichining istiqbolli yo'nalishlarga ega bo'lishi talabidir. Shu sababli boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishda uning istiqbolli yo'nalishlari ham o'rganilib baholanishi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Istiqbolli yo'nalish – bu boshlang'ich ta'lim jarayonida erishilgan yutuqlarni rivojlantirish va kelgusida yangi yutuqlarga erishish rejalariga ega bo'lishdir. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlarini diagnostika qilishda mavjud yutuqlar baholanadi va kelgusi rejalar tahlil qilinadi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlarini belgilab olish imkoniyatiga ega bo'linadi. Misol uchun, bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlari va xorijiy mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan aniq va tabiiy fanlar darsliklari amaliyotga kiritildi. Mazkur yangi avlod darsliklarining ikki o'quv yilida qanday yutuqlarni berishi va ularni qanday takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab olish masalasi bo'yicha boshlang'ich ta'limni istiqbolli rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri paydo bo'ldi. Aynan mana shu masalaning diagnostika qilinishi boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlarini o'rganish

doirasiga kiradi. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim muhiti, maktab sharoiti, kelgusidgi o'quvchilar kontingenti, boshlang'ich ta'limni oliy ma'lumotli o'qituvchilar bilan ta'minlash kabi istiqbolli yo'nalishlarni muntazam diagnostika qilib borish muhim ahamiyatga egadir. Bunday istiqbolli yo'nalishlar, aynan, pedagogik diagnostika jarayonida namoyon bo'ladi va ilmiy-tadqiqotlar hamda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha mo'ljallar yuzaga keladi. Demak, boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlarini pedagogik diagnostika qilib borish muntazam ravishda amalga oshiriladigan ta'lim vositalaridan biridir. Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim samaradorligi diagnostikasi o'ziga xos yondashuvlarni taqozo etadi. Buning uchun diagnostik jarayonni maxsus tuzilgan dasturga asosan amalga oshirish kutilgan samarani beradi. Mazkur masalalar bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish maqsadga muvofiqdir.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faollik darajasi diagnostikasi asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligi diagnostikasi omillari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlari diagnostikasi qanday xususiyatlarga ega?
4. Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlari diagnostikasi asoslarini o'zlashtiring va ko'rgazmali jihoz tayyorlang.

15-mavzu: Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining istiqbolli yo'nalishlari

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining nazariy istiqbolli yo'nalishlari.
2. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining metodik istiqbolli yo'nalishlari.
3. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining xalqaro ta'lim dasturlariga asoslanish istiqbolli yo'nalishlari.

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich ta'lim, diagnostik jarayon, nazariy istiqbol, metodik istiqbol, xalqaro ta'lim dasturi, rivojlanish va taraqqiyot, mahorat va tajriba.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining nazariy istiqbolli yo'nalishlari. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning sifat ko'rsatkichlariga erishish jarayoni kechmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olish ham muhim o'rin tutadi. Ana shunday yo'nalishlardan biri nazariy istiqbolli yo'nalishdir.

Boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning nazariy istiqbolli yo'nalishida quyidagilar amaliy o'rin tutadi:

- a) diagnostika asoslari bo'yicha tadqiqotlar yaratish;
- b) diagnostikaning yondashuvlarini yangilab borish;
- v) diagnostikaning mezonlarini takomillashtirib borish.

Boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning nazariy yo'nalishida uning asoslari bo'yicha yangi avlod tadqiqotlarini yaratish muhim o'rin tutadi. Chunki innovatsion jamiyat sharoitida diagnostika asoslariga bo'lgan ehtiyojlar yangilanadi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limning vazifalari, mazmuni va uning ta'lim jarayonida tutgan o'rni kabi masalalar bo'yicha diagnostika asoslariga doir yangi tadqiqotlarni yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarida yangi fundamental mavzularni belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim diagnostikasining yondashuvlarini yangilab borish ham muhim nazariy masalalardan biridir. Chunki ko'pchilik diagnostika jarayonini tekshirish deb qabul qiladi. Aslida, diagnostika mavjud holatni o'rganish va olingan ma'lumotlar asosida shu jarayonni rivojlantirish mexanizmidir. Shu ma'noda diagnostika asoslariga yondashuvning aniq me'yorlari, munosabatlari va uni tushunish asoslari bo'yicha yangi tadqiqotlarni yaratish bugungi kundagi eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. Buning uchun Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika ilmiy tadqiqot instituti bilan hamkorlikda oliy pedagogik ta'lim muassasalarining yangi tadqiqotlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonidagi yutuqlar va sifat o'zgarishlari diagnostika mezonlari bo'yicha yangi avlod tadqiqotlarini yaratishni ham taqozo etmoqda. Bunda diagnostikaning talablari, qoidalari va me'yoriy asoslarini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tadqiqotlar majmui yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi kunga qadar diagnostikaning eng asosiy mezonlari sifatida o'rganish va baholash bo'lib kelmoqda. Ta'limning hozirgi rivojlanish jarayoni diagnostika mezonlari tarkibiga tahlil, tavsiya va yo'naltirish ko'rsatkichlarini kiritishni taqozo etmoqda.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning nazariy istiqbolli yo'nalishida asosiy e'tibor tadqiqotlarga qaratiladi. Bizning kuzatishimizga ko'ra, bugungi kunda diagnostika asoslari, mezonlari va me'yorlari bo'yicha yangi avlod tadqiqotlarini yaratish sust kechmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor diagnostikaning muayyan xusuiy masalalariga qaratilmoqda. Shu sababli mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan Pedagogika universitetlari boshchiligida pedagogik diagnostikaning nazariy istiqbolli yo'nalishi bo'yicha fundamental, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni yaratish taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining metodik istiqbolli yo'nalishlari. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda

pedagogik diagnostikaning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning metodik istiqbolli yo'nalishini idrok etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

- a) diagnostika metodikasini takomillashtirish;
- b) diagnostika metodikasiga raqamli texnologiyani joriy etish;
- v) diagnostika metodikasining xorijiy tajribalarini o'zlashtirish.

Boshlang'ich ta'limni diagnostika qilishning metodik istiqbolli yo'nalishida uning metodikasini takomillashtirish taqozo etiladi. Buning uchun o'rganish, test, suhbat, hujjatlar ijrosi kabi metodlarning samaradorligi bo'yicha yangi usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun, pedagogik diagnostikaning hujjatlar ijrosi metodikasi murakkabligicha qolmoqda. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda ta'limga oid butunlay yangi hujjatlar majmui qabul qilinishi davom etmoqda. Shu sababli diagnostikaning mazkur metodini strategik hujjatlar ijrosini o'rganishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mana shunday yondashuvlar asosida diagnostika metodikasini takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi metodikasiga raqamli texnologiyani joriy etish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun kompyuterli diagnostika dasturi ishlab chiqilib, u asosida boshlang'ich ta'limni masofadan turib onlayn shaklida diagnostika qilib borish maqsadga muvofiqdir. Mazkur kompyuterli dasturda quyidagilarning aks etishi kutilgan samarani beradi:

- o'tkaziladigan diagnostikaning maqsadi tavsifi;
- diagnostikaning vazifalari tavsifi;
- diagnostika bo'yicha beriladigan topshiriqlar majmui;
- diagnostika ishtirokchilari to'g'risida ma'lumot;
- diagnostikani o'tkazish vaqti va muddati;
- diagnostika jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish dasturi;
- diagnostika natijalarini baholash mezonlari;

- diagnostika natijalari bo'yicha ishlab chiqiladigan tavsiyalar dasturi.

Mazkur kompyuterli ishlanma asosida boshlang'ich ta'limni muntazam ravishda diagnostika qilib borish imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim diagnostikasi metodik istiqbolli yo'nalishida xorijiy tajribalarini o'zlashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda asosan dunyo miqyosida e'tirof etilgan Germaniya va Fransiya mamlakatlarining ta'lim diagnostikasi tajribalarini o'zlashtirish, bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan Fransiya ta'lim diagnostikasida quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

1) diagnostika jarayonida ijobiy ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi usullardan foydalanish;

2) diagnostika ishtirokchilarining xolis harakatlari;

3) diagnostika jarayonini kompyuterli dastur asosida o'tkazish;

4) diagnostika natijalari bo'yicha uzoq muddatli (kamida ikki yilga mo'ljallangan) ta'limni rivojlantirish Yo'l xaritasini ishlab chiqish.

Bu tajribada inson omilining past ekanligi muhim o'rin tutadi. Shu sababli diagnostika jarayoni kutilgan samarani beradi.

Pedagogik diagnostikaning Germaniya tajribasida bu jarayonni bosqichli ravishda o'tkazishga asosiy e'tibor qaratiladi. Buning uchun quyidagicha yo'l tutiladi:

1-bosqich: diagnostika o'tkaziladigan ta'lim muassasasini har tomonlama o'rganish va uning imkoniyatlarini aniqlash;

2-bosqich: kompyuterli dastur asosida diagnostika jarayonini amalga oshirish;

3-bosqich: diagnostika jarayonida olingan ma'lumotlarni kompyuterli dastur asosida tahlil qilish va kichik muddatli (kamida bir yilga mo'ljallangan) tavsiyalarni ishlab chiqish.

Diqqat qilinsa, bu tajribada ham inson omilining sustligi mavjud va unda tizimli yondashuv ustuvor hisoblanadi.

Bunday tajribalarni o'zlashtirib borish boshlang'ich ta'lim diagnostikasi metodik istiqbolli yo'nalishini kuchaytiradi. Shu

sababli mazkur masala bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasi metodik istiqbolli yo'nalishi muntazam yangilanib borish xususiyatiga egadir.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining xalqaro ta'lim dasturlariga asoslanish istiqbolli yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatimiz ta'lim jarayoniga PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro ta'lim dasturlari qoidalari va talablarini joriy etish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim diagnostikasini xalqaro ta'lim dasturlari asosida istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bunda quyidagicha yondashish muhim ahamiyatga egadir:

- a) PIRLS xalqaro ta'lim dasturi asosida diagnostika qilish;
- b) TIMSS xalqaro ta'lim dasturi asosida diagnostika qilish;
- v) PISA xalqaro ta'lim dasturi asosida diagnostika qilish;
- d) TALIS xalqaro ta'lim dasturi asosida diagnostika qilish.

PIRLS xalqaro ta'lim dasturi talablari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va uni tushunish darajasini diagnostika qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning matnni ravon, tez va ifodali o'qishi o'rganiladi. Shundan so'ng ularning mavjud matnlarni tushinishi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari baholanadi.

TIMSS xalqaro ta'lim dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkuri va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlari o'rganiladi. Unda o'quvchilarning matematik topshiriqlarni mustaqil yechishi va yondashuvi, ularning tabiiy fanlar asoslarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari baholanadi.

PISA xalqaro ta'lim dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishlaridagi savodxonlik darajasi o'rganiladi. Bunda o'quvchilarning notanish matnni o'qish darajasi, notanish mashqlarni yechish ko'nikmasi va ularning tabiiy fanlar bo'yicha

tushunchalari ko'rsatkichlari o'rganilib, baholanadi.

TALIS xalqaro ta'lim dasturi asosida ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar (boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari) uchun yaratilgan ta'lim muhiti hamda sharoitlari o'rganiladi. Bunda ta'lim beriladigan muassasaning jihozlanishi, texnik imkoniyatlari, ish sharoitlari, ta'lim muhiti, o'qitish jarayonining imkoniyatlari o'rganilib, baholanadi.

E'tibor berilsa, xalqaro ta'lim dasturlarini o'zlashtirish va u asosda boshlang'ich ta'limni diagnostika qilish keng imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim diagnostikasining istiqbolli yo'nalishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida ularning o'zlashtirilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi ko'lamida kengaytiradi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining nazariy istiqbolli yo'nalishlari asoslari nimalardan iborat?

2. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining metodik istiqbolli yo'nalishlari omillarini nimalar tashkil qiladi?

3. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining xalqaro ta'lim dasturlariga asoslanish istiqbolli yo'nalishlari qanday xususiyatlarga ega?

4. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining xalqaro ta'lim dasturlariga asoslanish istiqbolli yo'nalishlarini o'zlashtiring va taqdimot tayyorlang.

Uchinchi modul bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023

2. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001

3. Xudoyqulov X., Jumanova F. Kasbiy pedagogika. – Toshkent, 2021

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Rasmiy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni. // www.ziyounet.uz.

2. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. // www.ziyounet.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori. // www.ziyounet.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. // www.ziyounet.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // www.ziyounet.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-maydagi "2022-2026 yillarda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. // www.ziyounet.uz.

7. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent, 2021

8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022

II. Monografiya, darslik, ilmiy maqola va o'quv qo'llanmalar

9. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. – T.: "O'qituvchi". 1972. – 108 b.

10. Абдуллаева Ш., Сейтов С., Холикова Г. История педагогики. – Т.: "Фан ва технология". 2008. – 258 с.

11. Абдулханова К.А. Деятелност и психология личности. – М.: ВЛАДАС. 1980. – 210 с.

12. Abdullayeva Sh., Xolmamatova L.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: TAQI, 2005. – 210 b.
13. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: ТГПУ им. Низами, 2003.
14. Актуальные проблемы воспитания современного детства. Сборник. – М.: Просвещение. 1993. – 310 стр.
15. Аманашивили Ш.А. Размышления о гуманной педагогике. – М.: Высшая школа. 1996. – 310 с.
16. Askarova O.M. Pedagogika. – Т.: “Moliya”. 2008. – 211 b.
17. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. Учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – С. 304
18. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Т.: “Zebo prints”. 2023
19. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Т.: “Yangi asr avlodi”, Sharq, 2004. – В. 335
20. Yo'ldashev J.G'. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. – Т.: “Sharq”. 1996. – 224 b.
21. Мавлянов А. и др. Технология обучения на основе принципов педагогической технологии. – Т.: “Ishonchli hamkor”. 2021. – 117 с.
22. Mavlonova R., Voxidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Т.: “Fan va texnologiya”. 2016. – 310 b.
23. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan axborot-kommunikatsion ta'minotni ishlab chiqish texnologiyasi. – Т.: “Ishonchli hamkor”. 2021. – 110 b.
24. Mirkomilov M. Pedagogika nazariyasi. – Т.: TDPI. 2008. – 310 b.
25. Muxamedov G.I., Xodjamkulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri. / Monografiya. – Т.: Universitet, 2019. – 92 b.
26. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. Toshkent, “O'qituvchi”, 2001.
27. Ochilov M. Oliy maktab pedagogikasi. – Т., 2008.
28. Рузметова Х. Теория педагогики. – Т.: ТДПУ. 2011.

– 80 c.

29. Tojiyev M., va boshq. Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar. / Metodik tavsiyanoma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016. – 96 b.

30. Tojiyev M., Ziyomammedov B. Milliy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbig'i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. / Monografiya. – T.: “Mumtoz so'z”, 2010. – 224 b.

31. Xodjamkulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: Toshkent viloyati tajribasi. / Monografiya. – T.: Universitet, 2020. – 174 b.

III. Foydalanilgan internet saytlari

1. www.ta'lim.uz
2. www.talant.spb.ru/wald.html
3. www.school.edu.ru.
4. www.inter-pedagogika.ru.
5. www.obrozavaniye.ru
6. www.wings.ru
7. www.ppf.uni.udm.ru
8. www.search.re.uz
9. www.pedagog.uz
10. www.ref.uz.
11. www.ziyonet.uz.

LUG'AT

Boshlang'ich ta'lim – 7-11 yoshli bolalarga bilim, ko'nikma va faoliyat asoslari bo'yicha tushunchalar berish ta'lim bosqichi. Boshlang'ich ta'lim mamlakatimizda o'quvchilarni umumiy o'rta, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlovchi hamda maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni bog'lovchi muhim ta'lim bosqichi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi – oliy ma'lumotga ega bo'lgan, axloqiy fazilatlariga boy va pedagogik faol xislatlarga ega o'qituvchilar toifasi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida nazariy, metodologik va texnologik jihatdan tayyorlanadi hamda o'qish jarayonida haftalik pedagogik amaliyotni o'taydi. Oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatning birinchi yilida stajyor-o'qituvchi sifatida ishlaydi.

Boshlang'ich ta'lim texnologiyalari – boshlang'ich ta'limda an'anaviy, noan'anaviy va o'quv-texnik vositalarga asosan ishlab chiqilgan o'qitish metodikalari majmui. Boshlang'ich ta'lim texnologiyalari keyingi paytlarda kompyuterli dastur asosida raqamlashtirilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi – boshlang'ich ta'lim jarayoni, tarbiyaviy tadbirlar, boshlang'ich ta'lim ishtirokchilari va boshlang'ich ta'lim muhitini ilmiy baholovchi vosita. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi umumiy pedagogik diagnostikaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogik diagnostika – ta'lim muassasalaridagi muhit, sharoit, ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari va ta'lim beruvchilarning mashg'ulot ko'rsatkichlarini baholovchi ilmiy vosita. Pedagogik diagnostika zaruriyatga qarab muddatli ravishda o'tkaziladi, lekin har bir o'quv yilida bir marotaba pedagogik diagnostika o'tkazish zaruriyat hisoblanadi.

Pedagogik diagnostika metodlari – ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini baholovchi metodlar majmui. Pedagogik diagnostkada hujjatlarni o'rganish, test, suhbat, topshiriq, trening va tahlil metodlari keng qo'llaniladi.

Pedagogik diagnostika texnologiyalari – ta'lim

muassasalari faoliyati va samaradorligini o'rganish hamda baholashga yo'naltirilgan texnologik vositalar majmui. Pedagogik diagnostika texnologiyalarida raqamli texnologiya, masofaviy ta'lim texnologiyasi, individual yondashuv texnologiyasi va kompyuterli ta'lim texnologiyasi muhim o'rin tutadi.

Pedagogik diagnostikani tashkil qilish – ta'limga oid me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladigan tashkiliy jarayon. Pedagogik diagnostika ta'limni boshqaruvchi, ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi va pedagog kadrlar tayyorlovchi muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik diagnostikaning maqsadi – ta'lim jarayonining holati va mazmunini o'rganuvchi jarayon. Pedagogik diagnostikaning maqsadi ta'lim bosqichlarini yoki muayyan fanlar turkumlarini o'qitish jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Pedagogik diagnostikaning maqsadi tekshirish jarayoni emas, aksincha, ta'lim jarayonini o'rganish vositasidir.

Pedagogik diagnostikaning vazifalari – ta'lim jarayoni, ta'lim beruvchilar faoliyati va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholashga yo'naltirilgan yondashuvlar majmui. Pedagogik diagnostikaning asosiy vazifalari tarkibiga diagnostika jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqish kiradi.

Pedagogik diagnostikaning xorijiy tajribalari – pedagogik diagnostika bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish vositasi. Pedagogik diagnostikaning xorijiy tajribalarini o'rganishda Yevropa, Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlariga bo'lib o'rganish kutilgan samarani beradi. Bundan maqsad pedagogik diagnostikaning o'ziga xos metodlarini o'zlashtirishdir.

Pedagogik diagnostikaning ma'lumotlari – o'tkazilgan o'rganishlar bo'yicha olingan ma'lumotlar majmui. Pedagogik diagnostikaning ma'lumotlari oshkora tarzda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi va jamoatchilikka taqdim etiladi.

Bundan maqsad ta'lim muassasalarining pedagogik diagnostika jarayoniga tayyorlanib borishini tarkib toptirishdir.

Pedagogik diagnostika bo'yicha tadqiqotlar – ta'lim jarayoni mazmuni va samaradorligiga oid muammolar bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar majmui. Pedagogik diagnostika bo'yicha tadqiqotlar Respublika va xorijlik pedagog olimlarning tadqiqotlariga bo'linadi.

Pedagogik diagnostikaning ahamiyati – ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlantirishga yo'naltirilgan vosita. Pedagogik diagnostikaning ahamiyati ta'lim va tarbiya jarayonining holati, ko'rsatkichlari hamda istiqbolli yo'nalishlarga egaligini baholash bilan belgilanadi. Shu sababli keyingi paytlarda mamlakatimizda sifatli ta'limga erishish vazifasini amalga oshirishda pedagogik diagnostikadan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik diagnostika asoslarini o'zlashtirishi zaruriyat hisoblanadi.

Onaxon Jabborova, Xurinis Qarshiboyeva

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 02.03.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Cambria”
garniturasini. Hisob-nashr tabog‘i. 8,375.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 9.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha